



UDK:378:005(067)

Otabek ALIMARDONOV,
O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, PhD
E-mail: otabelalimardonov111@gmail.com

Tarix fanlari doktori, professor R.Murtazayeva tahriri ostida

“AMIR TEMUR DAVLATI TASHQI SIYOSATIDA XALQ DIPLOMATIYASI TAMOYILLARI: TARIXIY TAJIRIBA VA ZAMONAVIY AHAMIYATI”

Annotatsiya

Ushbu maqolada Amir Temur diplomatiyasining tarkibiy qismi sifatida xalq diplomatiyasi tamoyillari tahlil qilinadi. Sohibqiron o'z zamonasida turli elatlar va davlatlar bilan tinchlik, madaniy hamkorlik, ilm-fan va savdo aloqalarini yo'lga qo'ygan bo'lib, bu jarayonlarda xalq omilidan samarali foydalangan. Xalq diplomatiyasining rasmiy bo'lmagan, ammo ta'sirchan yo'nalishlari – madaniy, ilmiy, iqtisodiy va media diplomatiyasi orqali Temur o'zining xalqaro siyosatini barpo etgan. Maqolada tarixiy manbalar va zamonaviy xalqaro munosabatlar nazariyalari asosida ushbu yondashuvlarning bugungi tashqi siyosatda tutgan o'rni yoritiladi.

Kalit so'zlar: Amir Temur, xalq diplomatiyasi, temuriylar davlati, tashqi siyosat, madaniy diplomatiya, iqtisodiy diplomatiya, media diplomatiya, rasmiy diplomatiya, xalqaro munosabatlar, yumshoq kuch.

“ПРИНЦИПЫ НАРОДНОЙ ДИПЛОМАТИИ ВО ВНЕШНЕЙ ПОЛИТИКЕ ГОСУДАРСТВА АМИРА ТЕМУРА: ИСТОРИЧЕСКИЙ ОПЫТ И СОВРЕМЕННОЕ ЗНАЧЕНИЕ”

Аннотация

В данной статье рассматриваются принципы народной дипломатии как важная составляющая дипломатии Амира Темура. Великий полководец и государственный деятель наладил культурные, научные и торговые связи с народами Востока и Запада, используя элементы неформальной дипломатии. Особое внимание уделяется таким направлениям, как культурная дипломатия, медийное влияние, научный обмен и экономическое сотрудничество. На основе исторических источников и современных теорий международных отношений в статье раскрывается актуальность дипломатического наследия Темура в контексте внешней политики Узбекистана.

Ключевые слова: Амир Темура, народная дипломатия, государство тимуридов, внешняя политика, культурная дипломатия, экономическая дипломатия, медиадипломатия, официальная дипломатия, международные отношения, мягкая сила.

“PRINCIPLES OF PUBLIC DIPLOMACY IN THE FOREIGN POLICY OF AMIR TEMUR'S STATE: HISTORICAL EXPERIENCE AND CONTEMPORARY SIGNIFICANCE”

Annotation

This article analyzes the principles of public diplomacy as an integral part of Amir Temur's diplomatic legacy. As a visionary leader, Temur established peaceful, cultural, scientific, and trade relations with various nations across the East and West, effectively employing non-official diplomatic tools. The study focuses on cultural diplomacy, media influence, academic exchange, and economic cooperation. Based on historical sources and modern international relations theories, the article explores the relevance of Temur's diplomatic approaches for contemporary foreign policy practices, particularly in Uzbekistan.

Key words: Amir Temur, public diplomacy, Timurid state, foreign policy, cultural diplomacy, economic diplomacy, media diplomacy, official diplomacy, international relations, soft power.

Kirish. Diplomatiya – insoniyat tarixining eng qadimiy siyosiy amaliyotlaridan biri bo'lib, u davlatlar, xalqlar va madaniyatlar o'rtasida muloqot, hamkorlik va barqarorlikni ta'minlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Jumladan, diplomatiyaning maxsus turi hisoblanadigan xalq diplomatiyasi bugungi kunda an'anaviy rasmiy diplomatiyani to'ldiruvchi va boyituvchi muhim ijtimoiy-siyosiy vosita sifatida e'tirof etilmoqda. Ushbu yondashuv orqali xalqlar, ziyolilar, madaniyat va san'at namoyandalari, ommaviy axborot vositalari, nodavlat tashkilotlar xalqaro aloqalarda faol subyektga aylanib bormoqda.

Xalq diplomatiyasining tarixiy ildizlarini izlar ekanmiz, Amir Temur faoliyati ushbu fenomenning erta

shakllaridan biri sifatida alohida e'tiborni tortadi. Temur kabi sohibqironning tug'ilishi nafaqat o'sha zaminda, balki butun Yevropa va Osiyo davlatlarining siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotida tub burilish sodir etdi.

Sohibqiron o'zining tashqi siyosiy strategiyasida nafaqat rasmiy elchilar, balki ziyolilar, savdogarlar, olimlar, me'morlar, san'atkorlar va boshqa ijtimoiy guruhlar orqali ham ko'p qirrali diplomatik aloqalarni amalga oshirgan. Uning madaniy va ilmiy aloqalarni qo'llab-quvvatlashi, xalqaro savdo yo'llarini kengaytirishi, dinlar va madaniyatlararo muloqotga sharoit yaratgani xalq diplomatiyasining amaliy ko'rinishlari sifatida talqin etilishi mumkin.

Xalq diplomatiyasi bugungi globallashuv sharoitida milliy manfaatlarni ilgari surishda, madaniy o'zaro tushunishni shakllantirishda va yumshoq kuch siyosatini amalga oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Shu bois, xalq diplomatiyasining tarixiy ildizlarini o'rganish, ayniqsa o'zbek diplomatiya tarixining yuksak cho'qqilaridan biri – Amir Temur faoliyatini tahlil qilish nihoyatda muhimdir. Sohibqiron nafaqat zabardast sarkarda, balki tajribali diplomat, murakkab xalqaro aloqalarni olib borgan siyosatchi sifatida ham ajralib turadi. Xususan, Temur va Fransiya qiroli Karl VI o'rtasidagi diplomatik yozishmalar, madaniy aloqalar va savdo yo'llari orqali amalga oshirilgan muloqotlar tarixiy xalq diplomatiyasining ilk ko'rinishlaridan biridir. Mazkur maqolada ana shu jarayonlar xalq diplomatiyasi tamoyillari nuqtai nazaridan tahlil qilinadi.

Bugungi globallashuv davrida O'zbekistonning xalqaro siyosiy strategiyasini takomillashtirishda Amir Temur diplomatik merosining tarixiy ahamiyatini qayta baholash va uni zamonaviy xalq diplomatiyasi konsepsiyasi bilan uyg'un holda o'rganish dolzarb vazifalardan biridir. Ushbu maqola aynan shu vazifani bajarishga – ya'ni Amir Temur diplomatiyasida xalq diplomatiyasiga xos bo'lgan tamoyillarni tahlil qilishga, ularning bugungi xalqaro siyosiy amaliyotdagi o'rini aniqlashga qaratilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Amir Temur diplomatiyasi va xalq diplomatiyasining tarixiy ildizlari yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar ikki asosiy manba guruhiga bo'linadi: tarixiy-badiiy manbalar va zamonaviy ilmiy-nazariy adabiyotlar. Har ikkala yo'nalish ham Sohibqironning xalqaro munosabatlarga oid faoliyatini turli nuqtai nazardan talqin etadi.

Tarixiy manbalar ichida, eng avvalo, "Temur tuzuklari" asari alohida o'rin tutadi[1]. Ushbu asarda Temurning siyosiy qarorlar qabul qilishdagi maslahatlarga asoslangan yondashuvi, harbiy yurishlar oldidan o'tkazilgan kengashlar, xalq bilan bevosita muloqotga urg'u berilgani ko'rsatiladi. Bu holatlar bugungi xalq diplomatiyasining ilk shakllari sifatida talqin etilishi mumkin. Shuningdek, Ibn Arabshoh, De Klavixxo va boshqa zamondosh manbalarda Temurning tashqi siyosati, elchilarni yuborish tartibi, marosimlardagi protokolga amal qilinishi haqida batafsil ma'lumotlar mavjud.

Zamonaviy tadqiqotlar orasida R. Nelson, S.R. Moralez, N. Zohidov va Z. Abdullayevlarning ishlarida Amir Temurning xalqaro aloqalarni yuritish uslubi, madaniy va iqtisodiy diplomatiyaga qo'shgan hissasi chuqur yoritilgan. Ayniqsa, Richard Nelsonning Amir Temurni "madaniyatlararo ko'priq quruvchi" sifatida baholashi xalq diplomatiyasining zamonaviy talqinlari bilan uyg'unlashadi. Shu bilan birga, S.R. Moralez tomonidan e'tirof etilganidek, Temur diplomatiyasida "yumshoq kuch" (soft power) unsurlari yaqqol ko'zga tashlangan – ayniqsa, savdo aloqalari, dinlararo bag'rikenglik va elchilar orqali axborot tarqatish tizimida.

"Amir Temur va Fransiya" (A. Saidov va L. Keren) kitobi o'zbek va fransuz manbalari asosida Amir Temurning Yevropa bilan olib borgan diplomatik aloqalarini yoritadi[1]. Mualliflar XIV–XV asrlarda Fransiya Sharqqa bo'lgan qiziqish kuchaygani, temuriylar faoliyati esa bu jarayonni tezlashtirganini ko'rsatadi. Kitobda Temur davrida xalqaro elchilar, savdogarlar, diniy vakillar, san'atkorlar va olimlar orqali shakllangan ko'p qirrali aloqalar yoritilgan. Shuningdek, Parijda tashkil etilgan "Temuriylar tarixi va san'atini

o'rganish" uyushmasi, La Timuride byulleteni, Klavixxo yozishmalari va L. Kerenning izlanishlari bugungi zamonaviy xalq diplomatiyasi amaliyotiga yaqinlashadi. Asarda Yevropa va O'rta Osiyo madaniyatlari o'rtasida ko'priq vazifasini bajargan bu tarixiy muloqotlar keng yoritilgan.

Biroq ayrim tadqiqotlarda Amir Temur diplomatiyasining xalq bilan bevosita aloqador jihatlarini yetarli darajada chuqur tahlil qilinmagan. Xalq diplomatiyasi atamasi ko'p hollarda zamonaviy kontekstda qo'llanilgan bo'lsa-da, uning tarixiy ildizlari, xususan, Temuriylar davrida shakllangan amaliyotlar bilan uzviy bog'liqligi ilmiy izlanishlarda hali to'liq ochib berilmagan.

Shu bois, ushbu maqola tarixiy manbalar va xalqaro aloqalar nazariyalari asosida Amir Temur diplomatiyasining xalq diplomatiyasiga oid jihatlarini tizimli tahlil qilishni maqsad qilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot quyidagi metodologik yondashuvlarga asoslanadi:

Tarixiy-komparativ tahlil – Temuriylar davridagi diplomatik faoliyatni zamonaviy xalq diplomatiyasi modeli bilan qiyoslash;

Manbaviy tahlil – Amir Temur va Karl VI o'rtasidagi yozishmalar, De Klavixxo kundaligi va fransuz sharqshunoslarining ishlari asosida xalq diplomatiyasiga oid dalillarni ajratib ko'rsatish[2];

"Soft power" nazariyasi – Temurning kuch va madaniyat uyg'unligiga asoslangan siyosatini Joseph Nye nazariyasi bilan bog'lash[3];

Madaniyatlararo kommunikatsiya yondashuvi – Sharq va G'arb o'rtasidagi o'zaro tushunish va do'stlikni xalq diplomatiyasi kontekstida talqin qilish.

Tahlil va natijalar. Amir Temur bir yuz ellik yillik qaramlikdan so'ng - o'zbek milliy davlatchiligining mustaqilligini tiklagan, mamlakat va mintaqalarni birlashtirgan, o'z zamonasi uchun dunyo miqyosidagi taraqqiyparvar markazlashgan davlat boshqaruvi tizimini yaratgan.

Amir Temur va temuriylar davri diplomatiyasi dunyo hamjamiyati bilan uyg'unlikda rivojlangan va o'zida o'sha zamon xususiyatlarini yaqqol aks ettirgan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, o'sha vaqtda Markaziy Osiyo jahon diplomatiyasining markaziga aylangan. Tabiiyki, Sharq diplomatiyasi o'zining alohida jihatlarini bilan bu boradagi g'arb an'analaridan sezilarli darajada ajralib turgan. Osiyo diplomatiyasining yorqin sahifalaridan biri Amir Temur faoliyati bilan bevosita bog'liqdir.

Sohibqironning Bosfor ko'rfazidan tokim Tyan-Shan tog'larigacha, Uraldan Hind okeaniga qadar yastangan ulkan saltanatini boshqarish, bu keng hududlarda joylashgan turli mamlakatlarni yagona davlatga birlashtirish va samarali siyosat yuritish uchun nainki shavkatli davlat arbobi, jasur sarkarda, ayni chog'da moxir diplomat sifatida ham beqiyos salohiyatga ega bo'lish taqozo etilgan.

Amir Temur diplomatiyasining mazmuni mohiyatini va ahamiyatini 4 ta davr kesimida ko'rib chiqish mumkin. Avvalo, sohibqiron o'zidan oldingi davr sharq hukmdorlarining diplomatiya san'atidan yaxshigina xabardor bo'lgan.

U diplomatiya ilmini chuqur egallagan olim edi. Tug'ma diplomatik noyob qobiliyat esa Amir Temurning yirik saltanat tuzushiga katta omil bo'lib xizmat qildi. Amir Temur diplomatiyasiga xos xususiyatlardan yana biri shuki, u raqiblarga yozgan xatlarida odatda sharqona odob-axloq va asrlar mobaynida qaror topgan udumlardan chekinmagan.

Ikkinchidan, o'z davrining yetuk davlat arbobi va diplomati sifatida sharq va g'arb dunyosi uchun ulkan ishlarni amalga oshira oldi. Sohibqiron Amir Temur diplomatik munosabatlarda tashabbus ko'rsatib, xalqaro aloqalarni rivojlantirishga intilgan. O'zining diplomatik aloqalari, hatti-harakatlari bilan Amir Temur o'z davrida mavjud bo'lgan diplomatiya ilmini umuminsoniy g'oyalar, yuksak axloqiy fazilatlar bilan boyitdi. Uning shakli, etikasi, mazmunini go'zallashtirib, o'z davri darajasidan yuqoriga olib chiqdi. Muxtasar qilib aytganda Markaziy Osiyo diplomatiya maktabiga asos soldi.

Uchinchidan, o'zidan keyingi temuriy shahzodalar uchun ulkan diplomatik tajriba amaliyotini qoldirdi. Uning diplomatik donologini o'g'li Shohrux muvaffaqiyatli davom ettira olgan.

To'rtinchidan, hozirgi davr O'zbekiston tashq siyosati va diplomatiyasi uchun salmoqli ilmiy-amaliy meros qoldirgan. Uning Osiyo va Yevropa mamlakatlari hukmdorlari bilan olib borgan diplomatik aloqalari zamonaviy O'zbekiston tashqi siyosatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. U o'z davrida bugungi kunda zamonaviy diplomatiyaning bir qancha turlaridan unumli foydalangan, ularning ko'pchiligini o'z yaratgan va isloh qilgan.

Bugungi kunda davlatlar o'rtasida muhim ahamiyatga ega bo'gan rasmiy diplomatiya aloqalarining nozik jihatlari ham aynan Temur sharofati bilan yanada go'zallashgan. Avvalo shu haqida ya'ni Amir Temur davlatining rasmiy diplomatiyasiga to'xtalsak.

Amir Temurning rasmiy diplomatiyasi. Bu borada Amir Temur xalqaro diplomatiya etikasiga qat'iy rioya etgan. Uning saltanati devonida maxsus diplomatiya korpusi tuzilgan bo'lib, unga har tomonlama ma'lumotli va bir necha tillarni yaxshi bilgan kishilar kirgan. Ularga Sohibqironga turli mamlakatlardan kelgan vakillar bilan muzokara olib borish ishlari yuklatilgan.

Amir Temur boshqa hukmdorlarga elchilar yuborar ekan, ularga yuklatilgan vazifaning ahamiyatiga qarab o'z nomidan ish ko'ruvchi bunday odamlarning e'tiborli, el-yurt ichida tanilgan, aql va zakovatli bo'lishiga katta e'tibor bergan. Sohibqiron elchilarni tanlashda g'oyat ehtiyotkorlik ko'rsatgan, o'z a'yonlari ichidan eng sadoqatli, bilimdon va hushyor kimsalarnigina bu ishga loyiq ko'rgan.

De Klavixo bu davrda har bir sohaga katta e'tibor berilgani, rasmiy marosimlardagi mukammallik va go'zallik haqida o'z "kundalik"larida hayratlanib yozgan edi[4].

Amir Temur diplomatiyasida elchilik munosabatlari faqat siyosiy vosita bo'lmay, balki ilm-fan, din, san'at va savdo orqali xalqlarni yaqinlashtiruvchi muloqot shakliga aylangan. Temur Karl VI ga yuborgan elchilari orqali o'z davlati haqidagi axborotlarni, madaniy g'oyalarni Yevropaga yetkazgan. Ayni vaqtda Yevropadan kelgan elchilar Temur saroyining ochiqligi, savdo va ilm-fanga bo'lgan munosabatidan hayratlangan.

Fransiya Qiroli Karl VI ning yozishmalaridan shu narsa ma'lumki, XIV va XV asrlardayoq mamlakatlarimiz o'rtasida mustahkam siyosiy, iqtisodiy, madaniy aloqalarni o'rnatish zarur deb hisoblangan. Bu tarixiy yozishmalar rasmiy diplomatiya bilan bir qatorda, madaniy diplomatiya, xalqlar do'stligi va ko'p qirrali xalqaro munosabatlarning shakllanganidan dalolat beradi.

Xalq diplomatiyasining asosiy belgilari bo'lmish – norasmiy aloqalar, do'stlik, madaniy hamkorlik, savdo erkinligi, dinlararo bag'rikenglik – Temur siyosatida izchil ko'zga tashlanadi. Klavixoning qaydlariga ko'ra, Samarqand Temur davrida xalqaro savdo, diplomatiya va ilmiy almashinuv markaziga aylangan. Bu – zamonaviy xalq diplomatiyasining mohiyatiga to'la mos keladi.

Temuriylar davridagi tarixiy muloqotlar XX-XXI asrda Yevropa, ayniqsa Fransiya da temurshunoslikning shakllanishiga xizmat qilgan. L. Keren, J. P. Roux kabi olimlar orqali bu tarixiy meros zamonaviy xalq diplomatiyasining vositasiga aylandi. Bu bugungi O'zbekiston tashqi siyosatida, xususan, YUNESKO doirasidagi madaniy muloqotlarda ham yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Amir Temur davlati xalq diplomatiyasi. Amir Temur o'z zamonasining boshqa hukmdorlaridan ancha ilgari ketgan zukko davlat rahbari sifatida o'z tashqi siyosatida diplomatiyaning nozik turlaridan biri bo'lgan xalq diplomatiyasidan ham unumli foydalangan. Amir Temur tashqi siyosatida qoni, irqi, dini, mafkurasi turli bo'lgan sharq va g'arb davlatlari bilan tinchlik va hamkorlik aloqalarini o'rnatib, bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etgan Yevroosiyo, integratsiya g'oyasining tamal toshlarini qo'ygan. U musulmon sharqidan g'arbga do'stona niyatda qo'l uzatgan birinchi dastlabki davlat arbobi edi. Olimlar Amir Temurning bu ishlarini "dostona qo'l cho'zish siyosati" deb nomlashgani ham bejiz emas. Shuningdek, u tashqi ishlarni yuritishda turli millat va elat vakillaridan ham unumli foydalangan.

Amir Temur va uning shaxsi bugungi O'zbekistonning zamonaviy davlatlar va xalqlar bilan xalq diplomatiyasini rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi kunda Amir Temur tarixini o'rganishga bo'lgan qiziqish yanada kuchayib bormoqda. Fransiya da Temuriylar tarixi va san'atini o'rganish hamda fransuz-o'zbek madaniy aloqalari uyushmasi, Ispaniya da esa, "Klavixo - Amir Temur" Ispaniya-O'zbekiston do'stlik uyushmasi faoliyat olib borayotgani, Parijda maxsus «Temuriylar» («La Timuride») nomli byulleten chop etilayotgani buni yana bir bor isbotlaydi.

O'zbekistonda 1996 yilda tashkil etilgan Xalqaro Amir Temur xayriya jamg'armasi taniqli davlat arbobi va sarkarda, ilm-fan va madaniyat homiysi Amir Temurning jahon madaniyati va tarixiga qo'shgan ulkan hissasini o'rganish, tartab qilish, uning nomi bilan bog'liq, nodir me'moriy yodgorliklarni ta'mirlash va asrashga yordam berish, Amir Temur va temuriylar merosini o'rganayotgan xalqaro tashkilotdir.

Amir Temur va xalq diplomatiyasi mavzusida o'tkazilgan turkum tadbirlar

Tadbirlar nomi va o'tkazilgan sanasi	Tadbir tashkilotchilari, maqsadi, ishtirokchilar soni
2017-yil 9-aprel "Amir Temur va Temuriylar davlatida xalq diplomatiyasining roli" mavzusida ilmiy-amaliy anjuman	Do'stlik jamiyatlari kengashi, O'zRFA Temuriylar tarixi davlat muzeyi, 100 dan ortiq ishtirokchi
2018-yil 9-aprel, "Amir Temur va Temuriylar davlatida xalq diplomatiyasining roli" mavzusida ilmiy-amaliy anjuman[5].	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va horijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi hamda O'zRFA Temuriylar tarixi davlat muzeyi, 100 dan ortiq ishtirokchi
2019-yil 9-aprel, "Amir Temur va temuriylar davlatida xalq diplomatiyasining ahamiyati" mavzuida davra suhbat[6].	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va horijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi hamda O'zRFA Temuriylar tarixi davlat muzeyi, 80 dan ortiq ishtirokchi

	2019 yil 22 aprel, A.Temur tavalludi munosabai bilan Shahmat chempionati	AQSHning Chikago shahridagi "O'zbek-Amerika" assotsiatsiyasi, 50 ga yaqin ishtirokchi
	2024 yil 8 aprel, "Amir Temur va Temuriylar davrida madaniy va iqtisodiy diplomatiya" mavzusida davra suhbat[7]	Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti, 100 dan ortiq ishtirokchi

Sohibqironning oqilona va odilona siyosati tufayli xalq bilan davlat o'rtasida o'zaro hamkorlik, bir-birini qo'llab-quvvatlash yuzaga kelgan... xalq esa bunga javoban Amir Temur olib borgan siyosatni qo'llab-quvvatlab, saltanat qonun-qoidalariga rioya etgan. Bu fikr Temurning siyosiy barqarorlikni faqat kuch bilan emas, balki xalq bilan muloqot va ishonch orqali ta'minlaganini ko'rsatadi. Aynan ushbu jihatlar xalq diplomatiyasining tarixiy ko'rinishi hisoblanadi.

Amir Temurning ichki va tashqi siyosatida xalq diplomatiyasining quyidagi jihatlari keng qo'llanilganligini ko'rish mumkin.

Xalq bilan doimiy aloqada bo'lishi;

Elchilar va bilimdonlar orqali xalqaro aloqalarni yuritishi;

Madaniy diplomatiyani yo'lga qo'yishi;

Yevropa bilan o'zaro yozishmalar va ilmiy hamkorlikni boshlashi;

Zamonaviy diplomatik almashuvlar (Fransiya – O'zbekiston) orqali tarixiy merosni xalq do'stligiga aylantirish.

Amir Temur davlatida madaniy diplomatiya. Amir Temur davridagi madaniy diplomatiya faqat rasmiy siyosat emas, balki xalqlarni yaqinlashtiruvchi vosita sifatida ham xizmat qilgan. Bu xalq diplomatiyasining muhim asosidir. Amir Temur o'z davrida mamlakatlar va xalqlar o'rtasida madaniy diplomatiyani rivojlantirishga katta hissa qo'shgan. Richard Nelson haqqoniy ravishda Amir Temur saltanatga faqat bir madaniyatni majburan kiritmasdan, aksincha, turli madaniyatlarni qo'shib bugungacha yashab kelayotgan Yevroosiyo g'oyasini dastlab ishlab chiqqan shaxs ekanligini, madaniyatlararo yaxshigina ko'prik o'rnatganligini (ko'chmanchilar va o'troq xalqlar, mo'g'ullar, turklar, forsiylar) g'arb va sharq o'rtasida ham tahsinga sazovor munosabatlar o'rnatganini aytib o'tgan edi.

Amir Temur diplomatiyasi umuminsoniy g'oyalarga sadoqat ruhida shakllangan, tashqi aloqalar orqali turli xalqlar o'rtasida madaniyatlararo ko'prik o'rnatgan. U ilm-fan va madaniyat ravnaqiga keng imkoniyatlar yaratgan, din peshvolari, olimlar, san'atkorlar, me'morlar, yozuvchilar, shoirlarga alohida g'amxo'rlik ko'rsatib turgan. Bunday siyosat natijasida Sharq uyg'onish davrining ikkinchi bosqichiga asos solingan.

Amir Temur davlatining iqtisodiy diplomatiyasi va logistika siyosati. Yevropa davlatlari qirollari bilan yozishmalardagi ma'lumotlarga ko'ra, u Yevropa davlatlari bilan tez-tez elchilar almashinib turishni, shuningdek, mamlakat taraqqiyotiga katta hissa qo'shuvchi savdogarlar, ya'ni tadbirkorlar toifasiga katta imkoniyatlar yaratishni ko'zlagan.

Ayniqsa, savdo yo'llarining Samarqand orqali o'tishi saltanatning iqtisodiy, madaniy va ilmiy rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan. Misr tarixchisi As-Sayir Farojning yozishicha, o'lkamiz bo'ylab o'tadigan jahon savdo-sotiq yo'llari Amir Temur nazoratida bo'lgan va tijoratdan tushgan daromadning miqdori Fransiya Qirolining daromadidan ham ortiq bo'lgan[8].

O'rta asrlarda savdo bilan diplomatiya uyg'unlashib ketgan edi. Amir Temur saltanati rivojida Buyuk ipak yo'lining alohida o'rni bo'lgani kabi, ushbu aloqa

vositasining taraqqiyotida Amir Temur va temuriylar olib borgan siyosatning alohida o'rni bor. "Buyuk Ipak yo'li... Sharq bilan G'arb, islom bilan nasroniylik bir-biriga tutashgan joy edi...". Amir Temur "Buyuk ipak yo'li"ni nazorat qilib, xorijiy mamlakatlardan kelayotgan savdo karvonlari qatnovining xavfsizligini ta'minlashda rabotlar, qal'alar, ko'priklar qurish yo'lida muhim chora-tadbirlar ko'rdi va Sharq bilan G'arb o'rtasida savdo-sotiq va elchilik aloqalarini har tomonlama rivojlantirishga g'oyat katta e'tibor berdi. U poytaxtga ketayotgan savdogar va elchilarning beto'xtov yurishi uchun sharoit yaratilishini talab qilardi.

Amir Temur davlatining shaharlar diplomatiyasi. Amir Temur shaharlar qurish va obodonlashtirishga katta e'tibor bergan. Uning davrida Markaziy Osiyodagi shaharlar har tomonlama gullab yashnagan. Poytaxt Samarqandga alohida e'tibor berilganligi tarixiy manbalarda ham o'z aksini topgan. 2015-yilda Samarqandga tashrif buyurgan AQSHning sobiq davlat kotibi Jon Kerri Temuriylar davrining shon-shavkati, uning turli millat va elatlarni birlashtirgan poytaxt Samarqand shahri haqida quyidagilarni aytib o'tgan edi: "Bu turklar, arablar, musulmonlar, yahudiylar, yunonlar, armanilar, xristianlar, katolik va nestorianlar bilan birday muloqotda bo'lgan shahardir. Biz Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nyu-Yorkda 70 yil muqaddam tashkil etilgan deb hisoblaymiz. Yo'q. Bu Samarqandda bir necha yuz yil oldin sodir bo'lgan".

Amir Temur davlatida parlament diplomatiyasi. Qadim O'zbekiston zaminida yashab o'tgan mutafakkir ajdodlarimizning tarixiy asarlarida, zamondoshlarining ular haqidagi xotiralarida ham bugungi parlamentning qadimiy kurtaklari ko'zga tashlanganligini ta'kidlab o'tish lozim. Xususan, Amir Temur diplomatiyasi maslahat, kengashga asoslangan bo'lib, so'nggi xulosa chiqarilgan qat'iy qarorlar qabul qilgan. Buyuk Amir Temurning "Temur tuzuklari" sahifalarida davlat ishlarini saltanat qonun-qoidalariga asoslangan holda boshqarganligi[9], saltanat ishlarida har kimning so'zini eshitib har kimdan fikr olganligi haqidagi 3 satrlar mavjud. Sohobqiron har bir yurish va jangu-jadallar oldidan piru-murshidlardan duo va fотиha olish bilan birga, davlat arboblari, sipohlar hamda sarkardalar ishtirokida maslahatu-mashvaratlarni doimiy o'tkazganligi va yurtning oqsoqollaridan iborat Qurultoy chaqirganligi yaxshi ma'lum.

Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma»sida yer kurrasidagi jahonshumul ahamiyatga ega bo'lgan Hindiston yurishining Kengash orqali qabul qilinganligi ko'rsatilgan[10].

Bugungi kunda respublikamizda xorijiy davlatlarning tajribasini o'rganish bilan bir vaqtda Sharqdagi mutafakkir ajdodlarimizning bebaho meroslaridan ham foydalangan holda parlamentning yangi tizimi yaratilishiga qolmasdan, hokimiyat uch tarmog'ining yanada mutanosib shakli yaratildi.

Amir Temur davlatining media diplomatiyasi. Amir Temur diplomatiyasining tahdid, ogohlantirish bilan birga tashviqot usullaridan keng foydalanishga intilgan. Bu esa o'sha davrning o'ziga xos information kurashlaridan biri edi. U o'z saltanatining barcha mintaqalaridagi haqiqiy ahvol, mahalliy amaldorlarning xalqqa munosabati, bozorlardagi narx-navo, joylardagi tartib intizom haqida

aniq va to'g'ri ma'lumotga ega bo'lishga katta etibor bergan. Buning uchun maxsus axborot to'plovchilardan, aloqa xizmatlaridan, joylarga topshiriq bilan yuboriladigan ishonchli vakillardan foydalangan. Sohibqiron bevosita xalq bilan uchrashib turgan, arz va shikoyatlarni to'g'ridan to'g'ri eshitib va ko'rib hal qilgan. "...Sohibqiron... mahalliy amaldorlarning xalqqa munosabati, joylardagi narx-navo va tartib-intizom haqida aniq ma'lumotga ega bo'lish uchun ishonchli vakillardan, aloqa xizmatlaridan foydalangan". Bu esa Temurning diplomatik aloqa vositalari, elchilarning xalq bilan bevosita ishlashi, axborot almashinuvi orqali olib borilgan xalq diplomatiyasini misoli bo'la oladi.

Amir Temurning harbiy strategiyasi. Amir Temur moxir va muzaffar sarkarda sifatida mamlakatning mudofaa qudratini mustahkamlash, jangovar qo'shinning moddiy ta'minoti, uni qurollantirish, harbiy intizom masalalariga alohida e'tibor bergan. Pokistonlik olim Durrioniy "Amir Temur O'rta Osiyodan chiqqan buyuk sarkardalardan biridir. Uning qat'iyatligi, bir maqsadga intiluvchanligi hamda tirishqoqligi kuchli raqiblari ustidan g'alaba qozonishga yordam bergan. U turli vaziyatlarda raqiblaridan ustun kelishining birorta ham imkoniyatini qo'ldan boy bermagan, kerak bo'lganda hech ikkilanmay muzokara olib borgan, o'zi kuchli diplomat bo'lgan, uning strategiyasi zudlik bilan harakat qilish, raqibiga zarba berish" deb uning diplomatiyasiga katta baho bergan.

Amir Temurning muhim harbiy strategiyalari:
bu g'animni tinch yo'l bilan o'z tomoniga og'dirish;

qo'shin tarkibi xilma-xil millat va e'tiqod qiluvchilarning mavjudligi;

qo'shin tarkibida tibbiy xizmat vakillarining tashkil etilganligi;

axborot xurujidan moxirlik bilan foydalanish;

xarbiy taktikaning sir tutilishi;

hududlarning topografiyasini mukammal bilish;

falakiyot ilmidan xabardorlik;

tashqi razvedkaning mukammal tashkil etilganligi

Zamonaviy O'zbekiston diplomatik munosabatlarini rivojlantirishda Amir Temur merosining ahamiyati.

Amir Temur Yevropaning Fransiya, Angliya va Kastiliya kabi yirik qirolliklari bilan bevosita savdo va diplomatik aloqalar o'rnatdi. Tarixshunos S.R.Moralez

"The Diplomat in Spain" gazetasining internet saytida chiqargan maqolasida quyidagilarni bayon qilgan: "O'zbek diplomatiyasi haqiqatdan chuqur tarixiy ildizga ega. Ayniqsa, Sohibqiron Amir Temur davriga kelib, Yevropa davlatlari bilan hamkorlik aloqalari yanada rivojlana bordi. Temuriylar tarixi va san'atini o'rganishda fransuz-o'zbek olimlarining hamkorligi, ilmiy almashinuv, madaniy ko'priklar, o'zaro hurmat, temurshunoslik orqali ikki xalqni yaqinlashtirish bulaming bari zamonaviy xalq diplomatiyasining yorqin misolidir.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Amir Temur saltanatining tashqi siyosati va diplomatiyasi tarixi, uning yo'nalishlari alohida mavzularda chuqur o'rganilishi kerak va ular bugungi O'zbekistonning tashqi siyosati va diplomatiyasini boyitishda muhim ahamiyatga ega.

Bugungi jahon xalqaro munosabatlar tizimi Amir Temurdan o'rnatilishi kerak bo'lgan 4 ta jihatga to'xtalib o'tish mumkin:

Birinchii jihat. Tashqi siyosat yo'nalishida mudofaa, tinchlik, barqarorlik, yaxshi qo'shnichilik va savdo-iqtisod aloqalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Ikkinchi jihat. Ko'p qirrali tashqi siyosat yuritish amaliyoti. Bu mamlakatlarga boshqa bir mamlakat bilan bog'lanib qolish siyosatidan qutqaradi.

Uchinchi jihat. "Soft power" siyosati. Bu orqali mamlakat o'zining milliy brendlarini namoyish qilish imkoniga ega bo'ladi.

To'rtinchi jihat. Kuch ishlatmasdan nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish amaliyoti.

Amir Temur faoliyatida xalq diplomatiyasining ko'plab jihatlari – xalq bilan bevosita aloqa, madaniy almashinuv, bag'rikenglik, elchilik va savdo orqali o'zaro ishonch kabi elementlar mavjud bo'lgan.

Temurning Fransiya bilan aloqalari zamonaviy xalq diplomatiyasining tarixiy ildizlarini ochib beradi va bu tajriba hozirgi O'zbekiston diplomatik siyosatida qadrlanishi lozim.

Temuriylar diplomatik merosidan zamonaviy O'zbekistonda xalq diplomatiyasi siyosatini shakllantirishda foydalanish, xususan, madaniy va ilmiy almashinuvlar orqali xalqaro nufuzni oshirish mumkin.

Amir Temur xalq diplomatiyasiga oid tarixiy tajribalarni xalqaro konferensiyalar, diplomatik treninglar va madaniy almashinuv dasturlari orqali targ'ib qilish muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR

1. Саидов А., Керен Л. Амир Темур ва Франция. – Тошкент: Адолат, 2016.
2. Руи Гонсалес де Клавихо. Буюк Амир Темур тарихи (1403–1406). Т.: 2007.
3. Nye, Joseph S. Soft Power: The Means to Success in World Politics. – NY: Public Affairs, 2004.
4. Руи Гонсалес де Клавихо. Самарқанддаги Амир Темур саройига саёҳат кундалиги // Санъат. – Тошкент: 1990. – № 6. – Б.22.
5. Амир Темур ва Темурийлар давлатида халқ дипломатияси / https://www.kultura.uz/view_2_r_11254.html
6. Амир Темур ва темурийлар давлатида халқ дипломатиясининг аҳамияти / <https://soglom.uz/archives/14761?utm>
7. Амир Темур ва Темурийлар даврида маданий ва иқтисодий дипломатия / <https://www.scocenter.uz/post-detail/559>
8. Uvatov U. Misr tarixchisining qo'llanmasi // "Milliy tiklanish" gazetasi, 1996,10-oktyabr
9. Темур тузуклари / Б. Ахмедов тахрири остида. - Т.: Ф. Гулом нашриети, 1996. - Б. 68, 86, 87.
10. Бобурнома.-Т.: Юлдузча нашриёти, 1989.-Б. 132-133,201.



UDK:339: 94 (575.146)

Umidjon BAQOYEV,
Buxoro davlat universiteti magistranti
E-mail:umidjonbaqoyev7@gmail.com

DSc, professor A.Zamonov taqrizi asosida

IMOMQULIXONNING ERON SHOHLARI BILAN SIYOSIY ALOQALARI

Аннотация

Vali Muhammadxon vafot etgach, Buxoro xonligi taxtini Imomqulixon (1611–1642) egalladi. Dastlab Buxoroda Imomqulixon hokimiyatining mustahkamlanishi natijasida Safaviylar sulolasi bilan munosabatlarda sokinlik davri boshlangan. Ammo Imomqulixon davrida Eron shohlari bilan munosabatlar yaxshilangan, ikki mamlakat o'rtasida do'stlik va elchilik aloqalari olib borilgan. Mazkur maqolada Eronda hukmronlik qilgan safaviy hukmdorlar Abbos I va Safiy I davrida Imomqulixon bilan olib borilgan elchilik munosabatlari manbalar asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Eron, Movarounnahr, Buxoro, elchi, siyosiy maktub.

ПОЛИТИЧЕСКИЕ ОТНОШЕНИЯ ИМАМКУЛИХАНА С ИРАНскими ЦАРЯМИ

Аннотация

После смерти Вали Мухаммад-хана престол Бухарского ханства занял Имамкули-хан (1611–1642). С укреплением власти Имамкулихана в Бухаре начался период спокойствия в отношениях с династией Сефевидов. Однако во время правления Имамкули-хана отношения с иранскими шахами улучшились и между двумя странами установились дружественные и дипломатические отношения. В данной статье на основе источников анализируются посольские отношения с Имамкулиханом во времена правления сефевидских правителей Аббаса I и Сафи I в Иране.

Ключевые слова: Иран, Мавераннахр, Бухара, посол, политическое письмо.

IMAM QULI KHAN'S POLITICAL RELATIONS WITH THE IRANIAN SHAHS

Annotation

After Vali Muhammad Khan's death, Imam Quli Khan (1611–1642) ascended to the throne of the Bukhara Khanate. With the strengthening of Imamkuli Khan's power in Bukhara, a period of calm began in relations with the Safavid dynasty. However, during the reign of Imamkuli Khan, relations with the Shahs of Iran improved, and friendly and diplomatic relations were maintained between the two countries. This article analyzes, based on sources, the diplomatic relations with Imamquli Khan during the reigns of the Safavid rulers Abbas I and Safi I in Iran.

Key words: Iran, Transoxiana, Bukhara, ambassador, political.

Kirish. 1611-yil ashtarxoniy Vali Muhammadxon vafot etgandan so'ng, Buxoro xonligi taxtini Imomqulixon (1611–1642) egallagan. Buxoroda Imomqulixon hokimiyatining mustahkamlanishi natijasida safaviy shohlari bilan tashqi aloqalarda sokinlik davri boshlangan. Mir Muhammad Salim o'zining “Silsilat us-salotin” asarida yozishicha, Shoh Safiy I davrida Eron va Buxoro o'rtasida elchilik almashinuvi to'xtamagan, ammo ba'zan ochiqdan-ochiq yurishlar ham bo'lgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Eron va Buxoro siyosiy va elchilik aloqalarini Muhammad Yusuf Munshiyning “Tarixi Muqimxoniy”, Iskandarbek Munshiyning “Tarixi olamroyi Abbosiy”, Hoji Mir Muhammad Salimning “Silsilat us-salotin”, Armeniy Vamberining “Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi” kabi asarlardan tahlil qilib, tadqiq etish mumkin. Shuningdek, Bo'riboy Ahmedov (1982), Azamat Ziyo (1990), Audrey Burton (1997), Hamid Ziyoyev (2012), Cihat Aydoğmuşoğlu (2013) Tofiq Nejeffli (2021) kabi bir qator olimlar safaviy va ashtarxoniy hukmdorlar

diplomatik munosabatlarga oid maxsus tadqiqotlar olib borishgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani yozishda tarixiylik, tizimlilik, xolislik, shuningdek, statistik usullardan foydalanilib, Safaviylar bilan Ashtarxoniyalar sulolasi o'rtasidagi o'zaro siyosiy va diplomatik munosabatlar tahlil qilindi. Shuningdek, turk, ingliz va rus olimlarining tadqiqot metodologiyasidan ham foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Vengriyalik sharqshunos Armeniy Vamberi shunday yozadi: “Vali Muhammadxon tiriklayin qo'lga olindi va g'olib shayxning (Imomqulixon nazarda tutilyapti U.B) amri bilan o'sha zahoti boshidan judo qilingan. U atigi olti yil hukmronlik qildi. Bundan keyin Eron bilan Movarounnahr o'rtasida uzoq muddat tinchlik va xotirjamlik davri davom etdi. Shoh Abbos o'z qurol kuchi bilan raqibi ustidan g'alaba qozongach, o'zining barcha dushmanlari va xususan, o'zbeklar nazarida katta mavqe qozondi. Shu bois, Eronga qilinadigan kichkina to'qnashuv ham to'xtatildi...[3]”. Vali Muhammadxon

bilan Imomqulixon o'rtasida bo'lgan jangda Imomqulixonga ko'maklashgan Eshim sultonining o'g'li Abulixon Toshkent hokimi qilib tayinlangan. Ammo mazkur holat qozoqlardan bo'lgan Eshim sultonga yoqmagan. Shundan so'ng Eshim sulton bilan Abuli sulton birlashib, Toshkent va Turkistonga yurish qilgan. Imomqulixon shimolda qozoqlarga qarshi kurashayotganida, 1612-yilda Rustam sulton Muhammadxonning tarafdorlari Chichektauga hujum qilib, qozi Abdullabey Qipchoqni asirga olgan. Maymana hokimi ham Jerivan qal'asiga qochishga majbur bo'lgan[8]. Imomqulixon Toshkentni egallagan Samarqand atrofidagi hududlarga bostirib kirgan qozoq qo'shinlarini qaytarish uchun Buxoroni tark etgan. Ukasi Nadr Muhammadxonni esa Balxdan yordamga chaqirgan. Lekin Nadr Muhammad Rustam Muhammadxon Gurjistondan Balxga hujum qilganligi uchun akasiga yordamga borishdan bosh tortgan. Imomqulixonning qat'iy iltimosidan so'ng, Nadr Muhammadxon qo'shini bilan birodariga yordam berish maqsadida Balxdan Samarqandga borishga kirishgan. Bundan xabar topgan Rustam Muhammad safaviy qizil askarlar yordamida Balxga hujum qilgan. Nadr Muhammadxon Samarqandga akasiga yordam berish uchun ketganligi sababli Balxdagi vaziyatga aralasha olmagan. Rustam Muhammad Balx va Chechaktau atrofini egallab, talon-taroj qilgan[1]. Balxda ahvolni o'nglab olish uchun Nadr Muhammadxon Rustam Muhammadxonga qiziga uylanishni taklif qilgan. Rustam Muhammadxon esa shu yo'l bilan bemalol Samarqand hokimi bo'lishi mumkinligiga ishongan. Rustam Muhammad qo'shinlari mazkur vaqtda boylik to'plash bilan band edi. Ayni paytda Nadr Muhammad tarafdorlari esa Balxda qo'shin yig'ish bilan mashg'ul bo'lgan. Nadr Muhammad tarafdorlari birdaniga safaviylarga hujum qilib, ularni turli tomonlarga tarqatib yuborgan. Qizilboshlar yana mag'lubiyatga uchradilar. Rustam Muhammadxon o'z tarafdorlari bilan Gurjistonga ketgan. Keyinchalik esa u yerdan Hirotga jo'nab ketgan[1].

1613-yilda yana Rustam Muhammadxon tarafdorlari Balx va uning atrofiga hujum qilgan. Gurjistonda oziq-ovqat tanqisligi sodir bo'lgani tufayli ular Balx atrofini talon-taroj qilish maqsadida Abdullabey Qipchoqqa qo'shila boshlagan. Bir qator qal'alar Abdullabey qipchoqning tarafdorlari tomonidan bosib olingan. O'n kundan keyin Buxoro qo'shini yetib kelgan, Rustam Muhammad tarafdorlari mag'lubiyatga uchragan bo'lsa ham, ular Buxoro qo'shiniga katta talofat yetkazgan. Rustam Muhammad bu vaziyatdan xursand bo'lib, o'ljalar bilan birga asirlarni ham qo'lga kiritgan. U asirlarni oz qismini shoh Abbos Iga yuborgan[8].

Xoja Mir Muhammad Salim o'zining "Silsilat us-salotin" asarida yozishicha, hijriy 1022-yil (milodiy 1613-yilda) shoh Abbos I elchilar bilan birga Buxoroga bir maktub yuborgan. Maktubda ilgarigi do'stlik aloqalarini mustahkamlash haqida shoh tomonidan fikr bildirilgan[6][7]. Imomqulixon javob maktubida otasining o'limidan so'ng shoh Abbos I huzurida boshpana topgan va Hirotidan Balxga bir necha bor

bosqin uyushtirgan Vali Muhammadxonning o'g'li Rustam Muhammad sultonni qo'llab-quvvatlagani uchun unga ta'na qilgan[5][7].

1613-yil bahorida qozoqlar Turkiston va Toshkentni bosib olgan. Imomqulixon Turkiston va Toshkentni qaytarib olish uchun amirlarni yuborgan, o'zi esa qozoqlarni jazolash uchun Qipchoq dashtlariga yo'l olgan. Biroq Farg'ona va Andijonda ko'tarilgan qo'zg'olon tufayli Eshim sulton qaytishga majbur bo'lgan. Eshim sultonning raqibi hisoblangan Tursun Muhammad sulton Imomqulixon bilan ittifoq tuzgan va Toshkent hokimi etib tayinlangan. Nadr Muhammadxon Imomqulixon hali yo'lda ekan, Andijondagi qo'zg'olonni allaqachon bostirgan edi. Imomqulixon Nadr Muhammadxonga Balxga qaytishga ruxsat bergan. Lekin Andijonda qo'zg'olon ko'tarilganidan so'ng darhol Imomqulixon Nadr Muhammadxonni chaqirib olgan[8]. Rustam Muhammadxon faoliyati natijasida Safaviylar davlati bilan Buxoro xonligi o'rtasidagi munosabatlarda hamon birmuncha keskinlik mavjud edi. Bunday vaziyatda Imomqulixon 1613-yil sentabrda Xo'ja Navro'z ismli elchini Moskvaga yuboradi. Xo'ja Navro'z Imomqulixonning Safaviylar bilan yaxshi munosabatda ekanligi, ikki davlat o'rtasida savdo karvonlari va elchilar kelib-ketib turishini aytdi. Mazkur elchi 300 kishidan iborat savdo karvonlari bilan Qozonda, Samarada va boshqa joylarda mahalliy hokimiyat tomondan qabul qilingan. Imomqulixon elchilar bilan yuborgan yorlig'ida har ikki mamlakat o'rtasidagi savdo va elchilik munosabatlarini davom ettirishni rus hukumatiga taklif qilgan[10]. Bundan ma'lum bo'ladiki, Imomqulixon Navro'zxo'jaga shunqor va mo'ynalarni, hatto Sibirga borib bo'lsa ham olib kelishni buyurgan. Rus hukmdori Imomqulixon yorlig'iga javoban Qozon mahkamasi nomiga maxsus farmon yuborgan. Farmonda Buxoro xonligidan kelgan savdogarlar avvalgidek Rossiya hududida erkin savdo qilish mumkinligi aytilgan. Shuningdek, Navro'zxo'ja Rossiyaning istalgan yo'lidan borishi uchun ruxsat berilgan. Navro'zxo'ja boshchiligidagi elchilar 1615-yilda Buxoroga qaytgan[10]. Shoh Abbos I Imomqulixonga Usmoniylar imperiyasiga qarshi birgalikda kurashish taklif etgan, ammo xon buni rad etgan. Mazkur javob bilan Imomqulixon sunniy dunyosining yetakchisiga qarshi ittifoqchi bo'lishni istamagani va shoh Rustam Muhammadni qo'llab-quvvatlaganligi uchun qabul qilmaslik haqida xabar yuborgan. Shoh I Abbosning mavqei kuchli bo'lsada, Gurjistondagi harbiy safarga hozirlangani uchun xonlikka hech bir yurish qilmasligi haqida xabar bildirgan[8]. Aynan shu davrda Shoh I Abbosning Gurjistonga harbiy safarda bo'lganidan foydalangan Imomqulixon Xurosonga yurishni rejalashtirgan[11].

1616-yil Safaviylar davlati va Buxoro xonligi o'rtasidagi munosabatlar iliq davom etgan. Ammo 1617-yilda mart oyida Shoh I Abbosning Qorabog'da qishlashidan foydalangan beklar Xurosonga uch tomondan hujum qilgan. Muhammad Boqibey qalmoq boshchiligidagi kuchlar Mozandaron va Astrobodga hujum qilgan. Muhammadquli Do'rman boshchiligidagi boshqa kuchlar esa Andxuy va Saraxsga hujum boshladi. Muhammadquli Do'rman ilk jangda Murichoq

hokimi Xusravni mag'lubiyatga uchratgan. Ikkinchi jangda esa Saraxs hokimi Husaynni yengib o'ldirdi. Qora Tag'ma boshchiligidagi uchinchi qo'shin Safaviylar hududidagi Yazdgacha borib, ko'p o'lja jumladan, chorva bilan qaytgan[8][11]. 1616–1617-yillarda Usmoniylar sultoni Ahmad I (1603–1617) va Imomqulixon o'rtasida Safaviylarga qarshi kurashish maqsadida elchilik aloqalari olib borgan. 1617-yil dekabrda to'satdan Ahmad II vafot etishi bilan Imomqulixon va Ahmad II o'rtasidagi diplomatik munosabatlar uzilib qolgan[8]. Usmoniylar imperiyasi Eron bilan munosabatlarning buzilishini istamagan bo'lsada, lekin ba'zi voqealar Murod IV (1623–1640) ni Revon va Bag'dodga yurish qilishga majbur qilgan. Murod IV Imomqulixonga Eronga qarshi birgalikda hujum qilishni taklif qilib, maktub yuborgan[14]. Imomqulixon bu maktubga qanday javob berganligi to'g'risida manbalarda ma'lumotlar keltirilmagan. Faqat shunisi bizga ma'lumki, bu davrda Imomqulixon va Eron shohi Abbas I o'rtasida diplomatik munosabatlar mavjud bo'lgan[8]. 1617-yil dekabrda o'zbek hukmdori Imomqulixonning tog'asi va devonbegi lavozimida ishlagan Nodir Mirzo Tog'ay qo'mondonligida 30 000 o'zbek Xurosonga yuborgan. O'zbeklar Amudaryodan o'tib, Marv chegarasiga yetib keldilar, u yerdan Obivardga kelib, Dargaz yo'lidan Nishopur chegarasigacha bosib o'tdilar. Biroq, o'zbeklar Mashhadga hujum qilishni rejalashtirayotgan bir paytda, Marv hokimi Mihrabxon Nodir Tog'ayga qo'shilish uchun kelayotgan bo'lgan bir qism o'zbek askarlariga hujum qilib, ba'zilarini o'ldirgan. Shuningdek ba'zi mashhur o'zbek amirlarini ham asirga olganini eshitgan Nodir devonbegi chekinishga majbur bo'lgan[11]. Mihrabxon qo'lga olingan o'zbek qo'mondonlarini Shoh Abbosga yuborgan. Lekin keyinchalik Hirot hokimi Rustam Muhammadxonning aralashuvi bilan qo'lga olingan o'zbek qo'mondonlari ozod qilingan. Xuroson bekларbegisi Husaynxon Shamluning o'limidan xabar topgan o'zbeklar hijriy 1027-yilda (milodiy 1617/1618-yilda) Yalangto'sh Bahodir qo'mondonligida Xurosonga yurish qilgan. Ammo otasining vafotidan so'ng uning o'rniga Xuroson hokimi etib tayinlangan Hasanxon Hirot hokimi Rustam Muhammad bilan birga Yalangto'sh Bahodirni orqaga qaytishga majbur qildi. 1619-yilda Buxoro xonligi hukmdori Imomqulixon Safaviylar saroyiga aloqalarni olib borish va tinchlik o'rnatish iltimosi bilan o'z elchisini yuboradi. 1619-yil aprel oyida Isfahonda mehmon bo'lgan o'zbek elchisi shohning ziyofat taklifida Turkiya va Hindiston elchilari bilan yonma-yon o'tirgan[11].

Shoh Abbos hijriy 1030-yil (milodiy 1620–1621) o'zbeklarga qarshi kurashish maqsadida Xurosonga safarga chiqdi. Chunki o'sha yili Balx o'zbeklari Murg'ob qal'asiga hujum qilib, qal'aning barcha qizilbosh askarlarini o'ldirib, Shamlu toifasining mo'tabar kishilaridan bo'lgan qal'a qo'mondonini Balxga olib ketishgan. Shuningdek, Badg'isdagi Shamlu toifasiga mansublarni o'ldirib, ba'zilarini asirga olishgan. Shuningdek, Nadr Muhammadxon va Imomqulixonning onasi Imom Rizoga qarindosh bo'lib, Shoh Abbos I ga maktub va sovg'alar yuborgan[1].

Safaviylarning elchisi Muhammad Solihbek 1623-yil bahorida Buxoro shahriga kelgan. Tinchlik shartlari qabul qilindi va Muhammad Solih bek Xoja Ibrohim bilan Balxdan Isfahonga jo'nab ketgan. Shoh Abbos I mamnunlik izhori sifatida Xoja Ibrohimni saqlamagan. Shoh 1623-yilning kuzida Xoja Ibrohimni qaytarib yubordi. 1624-yil boshlarida Safaviylar Usmoniylardan Bag'dodni qaytarib olgan. Shunday qilib, Buxoro xonligi va Safaviylar davlati o'rtasida tinchlik saqlanib qolgan. 1629-yilda Shoh I Abbos vafot etgunga qadar ikki davlat o'rtasida hech qanday to'qnashuv bo'lmagan[12].

1623-yilda Usmonliylar sultoni Mustafo I taxtdan ag'darilgan va uning o'rniga Murod IV taxtga o'tirgan. Sulton Murod IV taxtga o'tirganidan ko'p o'tmay, Bag'dod Safaviylar qo'lga o'tgan[8.170]. Shuning uchun Usmoniylar vazirlari sultonga Buxoro xonligi bilan yaqin munosabatlar o'rnatishni va Safaviylarga qarshi birgalikda hujum boshlashni taklif qiladilar. Birin-ketin ular Imomqulixonga maktublar jo'natdilar. Ikkinchi maktub esa buxorolik Oy Muhammad vositachiligidagi yuborilgan. Imomqulixon dastlab bu taklifni olqishlamagan. Ikkinchi marotaba Murod IV Imomqulixonga Eronga qarshi birgalikda hujum qilishni taklif qilib, maktub yuborgan[14]. Imomqulixon bu maktubga qanday javob berganligi to'g'risida manbalarda ma'lumotlar keltirilmagan. Faqat shunisi bizga ma'lumki, bu davrda Imomqulixon va Eron shohi Abbas I o'rtasida diplomatik munosabatlar mavjud bo'lgan[8].

Shoh Abbos I vafot etgach, uning nabirasi Som Mirzo 1629-yil 17-fevralda Isfahondagi Oliqopi saroyida Shoh I Safiy nomi bilan taxtga o'tirgan[12]. Shoh Safiy davrida Eronda ichki kurashlar avj olgan va Turkiya hujumlari natijasida zaiflashib qolgan edi. Turkiya bilan janglar davom etib turgan paytda boburiy Shoh Jahon Qandahor hokimiga Boburiylar saroyida katta lavozim va'da qilib, 1638-yilda Qandahorni Hindistonga qo'shib oladi. Shu tariqa Eron-Turkiya sulhi tuzulganiga qadar hindlar Qandahorda o'z mavqelarini mustahkamlab olgan[4].

Bu davrda Balx hokimi Nadr Muhammad Hindistondagi ichki ziddiyatlardan foydalanishga harakat qilgan. U boburiy Jahongirshohni vafotini eshitgach, Qobulga hujum boshlab, shaharni bir qancha vaqt qamal qilib turgan, faqat Muhabbatxon boshchiligidagi hind qo'shinlari Qobulda Boburiylar hukmronligini tiklashga muvaffaq bo'ladi[4.52]. 1631-yil bahorida o'zbeklar Bolo Murg'ob va Badg'isga hujum qiladilar. Ammo Hirotidan sakkiz kilometr sharqda joylashgan Chahorbar degan joyda Hirot hokimi Hasanxon Imomqulixon qo'shinini mag'lub etdi va uch yuz kishini asirga oldi. 1631-yil 11-mayda Hasanxon Shoh Safiyga maktub yo'llab, o'zbeklar ustidan g'alaba qozonib, 300 ga yaqin asir olganini bildirgan. Buxoro xonligi qo'shinlari 1631-yil noyabrda yana hujumga o'tgan. Shibirg'on hukmdori Nadr Muhammadxonning o'g'li Abdulaziz ikki ming nafar askari bilan Chechektau va Badg'isga hujum qildi. U Badg'isni talon-taroj qilganidan so'ng, otasi unga qo'shimcha kuch beradi va u Turbet Jam tomon yo'l oldi. Ular Jom va Boxarz qal'alarini ham buzib

tashladilar[8.179]. Ayni paytda Balx hukmdori Nadr Muhammadxon o'g'li Abdulazizning Yalangto'sh Bahodir va boshqa o'zbek lashkarboshilari boshchiligidagi 20 minglik qo'shinning Maruchag' qal'asiga yuborilishi Hirot qo'shinlari va aholisi o'rtasida notinchliklar keltirib chiqargan. Bundan xabar topgan Shoh Safiy I o'zbek qo'shinlariga qarshi kurashda hamda xurosonliklarga yordam berish uchun safaviylarning jasur qo'shinini Rustambek va Xalaf beklar bilan yuborgan[12]. Biroq Imomqulixon ukasi Nadr Muhammadxonga qizilboshlar bilan jang qila olmasligini bildirgan va mazkur qal'ani qamal qilishdan voz kechish kerakligini bildirgan. Shu sababli Imomqulixon Abdulazizga Maruchag' qal'asidan chekinishni buyurgan[12].

Mir Muhammad Salim o'zining "Silsilat us-salotin" asarida yozishicha, Shoh Safiy I davrida Eron va Buxoro o'rtasida elchilik almashinuvi to'xtamagan, ammo ba'zan ochiqdan-ochiq yurishlar ham bo'lgan[7]. Shuningdek, Buxoro xonligida o'z mavqeyiga ega bo'lgan Jo'yboriy xo'jalar ham tashqi siyosatda faol ishtirok etishgan. Shulardan biri Xo'ja Abdurahim hisoblanadi[9]. Muhammad Tolib shunday yozadi: "Arzimas sabab tufayli Imomqulixonning xotirida xojadan (Xo'ja Abdurahim nazarda tutilyapti U.B) anjak g'ubor paydo bo'lib, xon unga Ka'ba ziyoratiga borishni hukm etgan. Xoja shu soatning o'zida qo'shinini yuklab, shahardan chiqib Sumitanga keldi va ulug'lar mozori yoniga qo'ndi.... Mehribon noma yozib, xojani Isfahon viloyatida shoh Abbos darboriga

yubordi[2]. Imomqulixon hukmronligining so'nggi yillarida ko'zi ojiz bo'lib qoladi. U ukasi foydasiga taxtdan voz kechib, 1642-yilda Baytulloh ziyoratiga safarga chiqqan. Imomqulixon Makkada vafot etgan va Baqe' qabristoniga dafn etilgan. Tarixchi olimlar Guldon Taniyeva yozishicha, Imomqulixon bir tomondan yetarli iqtisodiy imkoniyatga egaligi bilan haj qilish talablariga javob bergan bo'lsada, ikkinchi tomondan esa ko'zi ojiz bo'lganligi uchun haj talablaridan biriga javob bergan. U majburlikdan haj safarini amalga oshirgan[13]. I. Nizomiddinov yozishicha, boburiy Shoh Jahon o'z vakili Mir Ibrohim orqali Imomqulixonga bir lak rupiya yuborgan. Ammo vakili Mir Ibrohim Makkaga yetib borganiga qadar Imomqulixon vafot etgan. Mir Ibrohim esa pulga marvarid (40 ming rupiyaga) va zotli otlar sotib olib, Shoh Jahonga topshirgan[4] Makkaga yo'l olgan Imomqulixon Eronda hurmat bilan kutib olingan. U Eronda bo'lganida musavvirlar tomonidan uning portreti ishlangan. Imomqulixon 200 nafar nufuzli ziyoratchilar bilan haj safariga chiqqanligi to'g'risida manbalarda ma'lumotlar keltirilgan[13].

Xulosa va takliflar. Buxoro xoni Imomqulixon hukmronligi davrida ma'lum darajada Eron shohlari bilan tashqi aloqalar olib borildi. Safaviy hukmdorlar asosan elchilik maktublarida Turkiyada hukmronlik qilgan Usmoniylarga qarshi kurashga Imomqulixonni da'vat qilgan. Shuningdek, Buxoro xonligida o'z mavqeyiga ega bo'lgan Jo'yboriy xo'jalar ham Eron bilan diplomatik munosabatlarda faol ishtirok etishgan.

ADABIYOTLAR

1. İsgəndər bəy Münşi Türkman. Dünyanı bəzəyən Abbasın tarixi (Tarixe-aləmaraye-Abbasi). II Kitab. – Bakı. "Şərq-Qərb" Nəşriyyat evi, 2014.
2. Мухаммад Толиб. Матлаб ут-толибин. / Форс тилидан таржима, сўзбоши ва изоҳлар муаллифлари: Ғ. Каримий, Э.Миркомиллов. – Тошкент. "Movarounnahr", 2016.
3. Армений Вамбери. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи. – Тошкент. Info capital group, 2024.
4. Низомиддинов И. XVI-XVIII асрларда Ўрта Осиё-Ҳиндистон муносабатлари. – Тошкент. Ўзбекистон ССР "ФАН" нашриёти, 1966.
5. Ахмедов Б.А. История Балха (XVI- первая половина XVIII в.) – Ташкент. Фан, 1982.
6. Зияев А. "Силсилат ас-салатин" о политическом положении Бухарского ханства в середине XVII века //Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. 1989. 8-сон.
7. Зияев А.Х. "Силсилат ас-салатин" как исторический источник/ Дисс.на соиск. Уч степ. канд. ист.наук. – Ташкент. 1990.
8. Burton A. The Bukharans. A dynastic, diplomatic and commercial history 1550–1702. Curzon, 1997.
9. Рахмонкулова З. Б. XVI-XX аср бошларида Ўрта Осиё ва Усмонийлар давлатлари ўртасидаги ижтимоий-сиёсий ва маданий муносабатлар тарихи Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун диссертация. – Тошкент. 2002.
10. Тўраев Ҳ. Бухоро хонлигининг XVI-XVII асрлар ижтимоий-сиёсий ва маънавий-маданий ҳаётида Жўйбор хўжаларининг тутган ўрни. Тарих фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент, 2007.
11. Зиёев Ҳ. Ўзбекистоннинг Россия билан элчилик ва иқтисодий алоқаларнинг ўрнатилиши, ривожланиш тарихи (кадимги даврдан то XX аср бошларигача). III жилд. – Тошкент. Янги аср авлоди, 2012.
12. Cihat Aydoğmuşoğlu. Şah Abbas ve zamanı. Doktora Tezi. – Ankara, 2013.
13. Tofiq Nəcəfli. Azərbaycan Səfəvi imperiyasının Türkünstan xanlıqları ilə siyasi əlaqələri. – "İdeal-Print" MMC, Bakı, 2021.
14. Таниева Г. XVI–XIX аср биринчи ярмида Ўрта Осиё халқларининг ҳаж зиёрати тарихи Тошкент. "Ўзкитоб савдо нашриёт матбаа ижодий уйи", 2021.
15. Saray.M Rus işgali devrinde Osmanlı Devleti ile Türkistan hanliklari arasindaki siyasi münasebetler. – 2. baskı. Ankara. Turk Tarih Kurumu. 2017.



Iroda ILKHAMOVA,
State Museum of History of Uzbekistan
E-mail: iilkhamova84@gmail.co

Chief Specialist of the Department of Travelling Exhibitions

Based on the review of M. Mukhamedova, associate professor of the National Institute of Art and Design

MEDICAL MUSEUMS: HISTORICAL FORMATION, INTERNATIONAL EXPERIENCE AND RESEARCHES

Annotation

This article is devoted to a comprehensive analysis of the history, formation and current state of medical museums as specialised institutions of preservation and popularisation of historical and medical heritage. It traces the stages of formation and development of the origins of museum work in medicine, starting from the ancient practices of collecting medical instruments and knowledge in Egypt, Greece and Rome (the works of Hippocrates, Galen, Ebers papyrus), through the contribution of medieval scientists of Central Asia (Ibn Sina), up to the key stage of institutionalisation in the early 20th century. The article considers medical museums as scientific and educational institutions whose main mission is to collect, preserve and display artefacts (instruments, pharmaceutical objects) to visualise the historical path of medicine. The importance of pharmaceutical heritage as the oldest form of activity is emphasised.

Key words: medical museums, museum revolution, preservation, popularisation, exposition, exhibit, pharmaceutical heritage, chronological principle, humanistic ideas.

МЕДИЦИНСКИЕ МУЗЕИ: ИСТОРИЧЕСКОЕ ФОРМИРОВАНИЕ, МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И ИССЛЕДОВАНИЯ

Аннотация

Данная статья посвящена комплексному анализу истории, становления и современного состояния медицинских музеев как специализированных институтов сохранения и популяризации историко-медицинского наследия. На всем протяжении ее прослеживаются этапы становления и развития истоков музейного дела в медицине, начиная с древних практик сбора медицинских инструментов и знаний в Египте, Греции и Риме (труды Гиппократ, Галена, папирус Эберса), через вклад средневековых ученых Средней Азии (Ибн Сина), вплоть до ключевого этапа институционализации в начале XX века. Статья рассматривает медицинские музеи как научно-просветительские учреждения, чья основная миссия – сбор, сохранение и демонстрация артефактов (инструменты, фармацевтические объекты) для визуализации исторического пути медицины. Особо отмечается значение фармацевтического наследия как древнейшей формы деятельности и необходимость ее музеефикации.

Ключевые слова: медицинские музеи, музейная революция, сохранение, популяризация, экспозиция, экспонат, фармацевтическое наследие, хронологический принцип, гуманистические идеи.

TIBBIYOT MUZEYLARI: TARIXIY SHAKLLANISH, XALQARO TAJRIBA VA TADQIQOTLAR

Annotatsiya

Ushbu maqola tibbiyot sohasidagi muzeylarning tibbiy-madaniy merosni saqlash va ommalashtirish borasidagi ixtisoslashtirilgan institutlar sifatida tashkil qilinishi, rivojlanishi hamda bugungi kundagi faoliyatini kompleks tahlil qilishga bag'ishlangan. Unda jahon tibbiyot sohasidagi muzeylarning vujudga kelish va rivojlanish istiqbollari, (Qadimgi Misr, Yunoniston, Rimdagi tibbiy bilimlar va meditsina asboblari to'plash amaliyotlari; Gippokrat, Galen asarlari, Ebers papirusi, O'rta Osiyoda ushbu sohada o'z faoliyatini olib borgan buyuk olimlar va hakimlar ilmiy merosi orqali muzeylar tashkil qilish amaliyoti o'rganib chiqilgan. Maqolada adabiyotlar va turli manbalarga asoslanib meditsina muzeylari faoliyati ilmiy-ma'rifiy muassasalar sifatida ko'rib chiqilib, ularning asosiy vazifasi – tibbiyotning tarixiy yo'lini ko'rsatish uchun artefaktlarni (asbob-uskunalar, farmatsevtika obyektlari) to'plash, saqlash va namoyish etishdan iborat ekanligi asoslab berilgan. Shuningdek, mazkur sohaga oid farmatsevtika merosining eng qadimgi faoliyat turi sifatidagi ahamiyati hamda uni muzeylashtirish zaruriyati alohida ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: tibbiyot muzeylari, muzey inqilobi, saqlash, ommaviylashtirish, ekspozitsiya, ko'rgazma, ashyo, farmasevtika meros, davriylik prinsipi, insoniylik g'oyalari.

Introduction. Medicine is the main field of human health protection, diagnosis, treatment and prevention of diseases. Throughout the history of mankind it has been subjected to various pathogenic influences - many diseases caused by both natural factors and unfavourable exogenous conditions. This led to the development of human treatment methods, resulting in the formation of the first medical knowledge. With the development of medical knowledge, it became necessary to study it systematically and apply it in practical medicine. As a result of historical development,

medical institutions protecting human health - hospitals and medical schools - were established.

Literature review. The museification of medical science within museums has long been regarded as a subject of ongoing debate in global scholarly discourse. Drawing upon the scientific works of A. Kadirov, V. Ananyev, K. Pashkov, M. Tutorskaia, N. Chizh, and Maud Abbott, this paper presents a comparative analysis of the establishment and evolution of medical museology across different countries. Furthermore, it underscores the enduring relevance of this

field, deemed essential for both studying and analyzing the development of medical science.

Medical museums are institutions that depict the history of human health, medical science and treatment methods. There you can see medical practices, instruments and scientific steps from ancient times to the present day. Even before the concept of medical museums existed, medical collections began to be assembled in ancient Egypt, Greece and Rome [9].

The medical knowledge of ancient Greece was largely based on the teachings of the Greek physician Hippocrates, who is still honoured today. In his time, various methods were used to treat and prevent disease. These included medication (pharmacotherapy) and various religious rituals. Doctors also had a deep understanding of the importance of a healthy diet, regular exercise, daily routines and fresh air. In the 4th century BC, Hippocratic writings such as *Corpus Hippocraticum*, *On Air, Water and Places*, *Epidemics*, *Prognostics*, *Diet in Serious Diseases* and *Aphorisms* were important sources of this knowledge [10]. Various medical instruments used during this work, such as Diokla's spoon, surgical scissors, probe spatulas, and scalpels were preserved.

Claudius Galen made a significant contribution to the development of ancient Roman medicine and medical writings. Many sources recognise him as the greatest scientist, anatomist and naturalist since Hippocrates, which gives him a special place in the study of the history of medicine [1]. Through his writings, the scientist left valuable information about the occurrence of diseases as a result of various external influences and their treatment. Claudius Galen's medical works *The Importance of the Parts of the Human Body*, *Anatomical Investigations*, and *Methods of Treatment* are among the major books written about medicine in the world.

As there were no pharmacies in ancient Rome, medicinal plants were dried at home. Later, pharmacotropeists began to appear, who distributed these preparations among the population and prepared various potions and medicinal powders from them [1]. Later, the tradition of preparing and distributing these medicines at home began to emerge, and at the same time the first pharmacies began to appear. The concept of herbology - the effective use of medicinal plants - developed. A catalogue compiled by the ancient military physician Dioscorides has been preserved. It describes about 600 species of medicinal plants and almost 1000 types of preparations used in the treatment of patients. One of the sources that collected complete information on medicinal plants were the works of Pliny.

The formation of medicine in Ancient Egypt began 4,000 years ago BC [7]. In Egypt, along with other disciplines such as mathematics, astronomy and geography, medicine was also studied in depth. The study of medicine dates back to 2000 BC and ancient Egyptian medicine was divided into specialties and medical practices were performed. In particular, this area has seen the development of surgeons, general practitioners, surgical interventions and dentists [7].

Ancient Egyptian culture has left a deep trace in the history of world culture. The most complete source of information on ancient Egyptian medicine is the Ebers papyrus (XVI century B.C.), found in Thebes in 1872. This source consists of 108 papyri joined together, is 20.5 metres long and is called 'The Book of Preparation of Medicines for All Organs of the Body' [4].

It contains about 900 inscriptions used to treat all organs of the human body, diseases of the ear, throat, nose, eyes and skin. The work also contains information about diseases caused by improper diet, various intestinal parasites and supernatural phenomena that were relevant at the time, such as the possession of demons in a sick body. The development of medicine in Central Asia in the Middle Ages

is associated with the names of such scholars as Abu Ali ibn Sino, Abu Sakhl Masikhi, and Abu Abdullakh Ilaki. Their rich heritage, such as "Canons of Medical Science", "Compendium of Medical Sciences", "100 Books on Medical Art", remains relevant even today [10].

We know from centuries of history that the peoples who inhabited the territory of our province had their own ideas about the methods of maintaining human health and treating various diseases. They applied them in practice, using knowledge and skills passed down from generation to generation, as well as the experience of scientists who were famous for their work in this field.

The activity of medical museums is directly related to the emergence of medical knowledge and museology. As is well known, the emergence of medical knowledge served as a basis for the creation of the first international museum association. According to K. A. Pashkov in the emergence in the 20th century of various branches of medicine, in particular pathological anatomy, bacteriology and experimental medicine, served as a basis for the creation of the first international association of medical museums [4].

The formation and functioning of the International Association of Medical Museums is inextricably linked to the stages of development identified in Europe and North America by the famous Dutch museologist Peter van Mersch, the author of hundreds of scientific works on museology and museum business. According to Van Mersch, the formation of the Association of Medical Museums took place in 1906, which coincides with the "Museum revolution" of the late 19th and early 20th centuries. It was during this period that the development of museums in certain areas began, and the first associations and periodicals devoted to museum work began to appear [2].

According to Canadian scientist and pathologist Maud Abbott, the author of the idea of organising an international museum association and uniting the activities of professional societies, a person who combined the educational process and museum activities, "A well-organised museum is an anatomical theatre for general pathology and a practical place for dissecting anatomy". A visit to a medical museum is as important to students as travelling to new countries is to students of geography [6].

As B.D. Petrov, an academician of the former USSR Academy of Medical Sciences, notes, at this time museum business began to develop, and special attention was paid to specialised museums, particularly medical museums. The main stage that determined the development of the museum business was the formation of volunteer teams that organised the museum, created its exposition, and collected basic items, in some cases even without any material encouragement [5]. Their efforts formed the museum's collection, which later grew from small collections into large ones. Museums did not have a plan for collecting exhibits, and the collection was assembled in a scientific way. That is, there was information about the poor functioning of the system, which did not pay attention to such issues as exhibits brought or acquired, their importance for the museum, which departments needed which exhibits [5].

M.Y. Yarovinsky, a specialist in the history of medicine, Doctor of Medical Sciences, Professor of the Department of History of Medicine and Cultural Studies of the Sechenov Moscow Medical Academy, also expressed his opinion on the need to establish interaction with the founders of museums in the process of exposition formation. I.M. Sechenov Moscow Medical Academy M.Y. Yarovinsky [3, 26]. The expositions of medical museums will demonstrate the prospects for the development of the medical industry at the city, district, regional and republican levels, including maternal and child health care and labour protection for

employees of production enterprises. In his opinion, the periodicity of the museum exposition will allow the visitor to see the development of medicine in different periods, regardless of whether he is a medical specialist or a person of another profession. It is known that the expositions of medical museums in different countries are similar on the one hand, but on the other hand there are also differences. In some museums, exposition objects are placed based on the periodicity of the development of the medical system, and in some museums - by departments in accordance with the activities of different branches of medicine.

Serious changes in the museum sphere also affect medical museums. E. Mamaeva emphasises that, as in all spheres, global changes also show their effective results in the museum sphere [11]. That is, there is a continuous increase in the number of museums and the growth of interest in them, expansion of the geography of museums, and changes in the forms and types of activities. Among the various branches of medicine, pharmacy is the oldest form of human activity, even more ancient than art and culture, since it can be considered that it has always served man.

At present, the geography of pharmaceutical heritage and numerical indicators of museified pharmaceutical heritage, as well as the contribution of pharmacy to the history of world civilisation and the development of human society have every right to include historical and cultural pharmaceutical heritage as one of its types in the phenomenon of universal heritage.

In this regard, according to museologist M. Kuzybaeva, all museums in the Russian Federation, medical museums are considered to be scientific and cultural-educational institutions that are engaged in collecting, preserving and popularising the historical and medical heritage among the population. Along with the study of museum exhibits, the entire system of scientific knowledge and practical activities of medicine is studied in the context of humanistic ideas of promoting human health, prolonging life, prevention (prophylaxis) and treatment of various diseases [30].

Medical museums represent a critical institutional nexus between the historical evolution of medical science and contemporary cultural heritage preservation. The foundations of medicine trace back to ancient civilizations – Egypt, Greece, Rome, and Central Asia – where systematic medical knowledge emerged through pioneers like Hippocrates, Galen, and Ibn Sina. Their contributions, documented in seminal works such as the “Hippocratic Corpus”, Galen’s “On the Usefulness of the Parts of the Human Body”, and Ibn Sina’s “Canon of Medicine”, established early frameworks for diagnostics, pharmacology, surgery, and preventive care. Artifacts like surgical instruments, pharmacopeias (e.g., Dioscorides plant catalog), and texts (e.g., the Ebers Papyrus) underscore the sophistication of ancient medical practices and the enduring legacy of herbal medicine.

The formalization of medical museums arose from the need to preserve this heritage, catalyzed by advances in specialized fields like pathology and bacteriology. The establishment of the International Association of Medical Museums (IAMM) in 1906 marked a pivotal institutional milestone, aligning with broader museological shifts termed the “Museum revolution”. Visionaries like Maud Abbott emphasized the museum’s dual role as a scientific resource (an “anatomical theatre”) and an educational instrument, vital for training medical professionals and contextualizing medicine’s evolution. Early collections often relied on volunteer efforts, evolving from unsystematic assemblages into scientifically curated repositories.

Today, medical museums adapt dynamically to global changes, expanding their geographic reach, embracing digital innovation, and enhancing public accessibility. As articulated by museologists like M. Kuzybaeva, they remain scientific and cultural institutions dedicated to contextualizing medicine’s past, present, and future[2]. Their enduring relevance lies in bridging historical wisdom with modern practice, ensuring that the collective memory of medicine’s triumphs and challenges continues to inform and inspire both the medical community and society at large.

Research methodology. The article presents a historical-descriptive study based exclusively on secondary sources. Its goal is to reconstruct the evolution of medical museums from antiquity to the present day through the lens of their cultural and educational mission. The article utilized a comparative analysis of medical museology practices in different countries all around the world. Furthermore. Special attention in the article` composition is given to the analyses of historical texts, using the works and heritage of the great scholars. The main part of the article devoted to the synthesizing scholarly literature.

Analysis and results. Medical museums represent a unique socio-cultural institution fulfilling the critically important function of preserving, interpreting, and transmitting the historical experience of medicine. They serve as the materialized “memory” of the field, visibly connecting the achievements of ancient civilizations (documented in artifacts, texts, and instrumentation) with modern scientific paradigms and practices.

Conclusion. We know that medical museums stand as indispensable custodians of humanity’s enduring struggle to understand, treat and preserve health. From their embryonic origins in the collections of ancient Egyptian physicians, Greco-Roman surgical innovators and medieval Islamic scholars to their formal institutionalization during 20th century. Their main mission was to collect, preserve and contextualize exhibits – particularly pharmaceutical heritage as medicine’s oldest practiced art – enables the visualization of medicine’s historical continuation.

ЛИТЕРАТУРА

1. Кодиров А.А. Тиббиёт тарихи. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат-илмий нашриёти. Тошкент 2005. 63 б.
2. Ананьев В.Г. История зарубежной музеологии. СПб. Институт истории СПбГУ 2014.
3. Пашков К.А., Тугорская М.С., Чиж Н.В. История международных музеев. Москва 2018. 115 б.
4. Киценко О.С., Белова Л.И., Гуляева Е.Ш. История медицины. Учебное-методическое пособие. Волгоград 2016. С 247.
5. Историко-медицинские музеи и выставки. Сборник научных трудов ВНИИ социальной гигиены . Москва 1984. С 115.
6. Maude Abbot Medical Museum. Mcgill.ca/medicalmuseum
7. Xalq-tabobati.uz/uz/6601/blog/medizina-v-drevnem-egipte/
8. Tibbiyot-tarixi_kutubxonachi.uz
9. <http://x-legio.com/wiki/medicamentum>
10. <http://uz.wikipedia.org/wiki/Gippokrat>
11. <https://www.prlib.ru/item1908568>



UDK: 930.85(575.1)

Karomatillo KURBANOV,

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tayanch doktoranti

E-mail: karomatullokurbonov1986@gmail.com

Termiz davlat universiteti dotsenti, PhD D.Yangiboyeva taqrizi asosida

THE PROBLEM OF SLAVERY IN THE EMIRATE OF BUKHARA IN THE RESEARCHES OF SADRIDDIN AINI AND TURGUN FAYZIEV

Annotation

This article analyzes slave relations in the Bukhara Emirate based on the works of Sadriddin Aini and Turgun Fayziev. Based on the work of Sadriddin Aini "Slaves" and the study of Turgun Fayziev "Slave Trade in the Bukhara Khanate", historical facts are revealed, and a comparative study of the approaches, methodology and analytical methods of the two authors is carried out.

Key words: slave, maid, slave owner, master, feudal lord, Sadriddin Aini, Turgun Fayziev, Bukhara Emirate, historical analysis.

ПРОБЛЕМА РАБСТВА В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ В ИССЛЕДОВАНИЯХ САДРИДДИНА АЙНИ И ТУРГУНА ФАЙЗИЕВА

Аннотация

В данной статье анализируются рабовладельческие отношения в Бухарском эмирате на основе произведений Садриддина Айни и Тургуна Файзиева. На основе труда Садриддина Айни «Рабы» и исследования Тургуна Файзиева «Невольнический торг в Бухарском ханстве» раскрываются исторические факты, а также проводится сравнительное изучение подходов, методологии и аналитических методов двух авторов.

Ключевые слова: раб, служанка, рабовладелец, господин, феодал, Садриддин Айни, Тургун Файзиев, Бухарский эмират, исторический анализ.

BUXORO AMIRLIGIDA QULCHILIK MASALASI SADRIDDIN AINIY VA TURG'UN FAYZIYEV TALQINIDA

Annotatsiya

Usbu maqolada Sadriddin Ainiy va Turg'un Fayziyev asarlari asosida Buxoro amirligidagi qulchilik munosabatlari tahlil qilinadi. Sadriddin Ainiyning "Qullar" asari hamda Turg'un Fayziyevning "Buxoro xonligida qul savdosi" nomli tadqiqoti asosida tarixiy haqiqatlar ochib beriladi, shuningdek, ikki muallifning yondashuvi, metodologiyasi va tahlil usullari qiyosiy o'rganiladi.

Kalit so'z: qul, cho'ri, quldor, xo'jayin, feodal, Sadriddin Ainiy, Turg'un Fayziyev, Buxoro amirligi, tarixiy tahlil

Kirish. O'zbekiston tarixshunosligida Buxoro amirligidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, xususan qulchilik tizimi alohida o'rinni egallaydi. Mustaqillik yillarida ushbu mavzuga yangicha yondashuvlar paydo bo'lib, tarixiy adolatni tiklash va faktlarga asoslangan tahlil qilish zaruriyati vujudga keldi. Shu nuqtai nazardan, Sadriddin Ainiy (1878-1954) va Turg'un Fayziyev (1926-2003) ning Buxorodagi qulchilikka oid qarashlari alohida o'rganishni talab etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Buxoro amirligi ijtimoiy tabaqalari, jumladan qullar bilan bog'liq munosabatlar tarixini ilmiy tahlil etishda o'zimizning mahalliy manbalar va arxiv hujjarlariga murojaat etamiz. Masalan, Muhammad Mirolim Buxoriyning "Fathnomayi sultoni" [1], Mirzo Shams Buxoriyning "Bayoni ba'zi havodisoti Buxoro, Xo'qand va Qoshqar" [2], Ahmad Donishning "Mang'it xonadoni tarixining muxtasar tarixi risolasi" [3], Mirzo Abdulazim Somiyning "Tarixi salotini mang'itiya" [4], Mirzo Salimbekning "Tarixi Salimiy" [5], Sadriddin Ainiyning

"Tarixi amironi mang'itai Buxoro" [6] va "Qullar" [7] hamda Tur'un Fayziyevning "Buxoro xonligida qul savdosi" [8] kabi manbalar mavzuni yoritishda qimmatli ahamiyatga ega.

Buxoro amirligidagi qulchilik munosabatlari tarixini o'rganishda biz XIX asr boshlaridan XX asrning boshlarigacha bo'lgan davrda amirlikka tashrif buyurgan rus va ingliz elchlari, tatqiqotchilari, harbiy amaldorlar va sayyohlar tomonidan o'rganilgan jihatlarga e'tibor qaratamiz. 1820 yillarda amirlikka tashrif buyurgan E.Eversman [9] hamda Ye. Meyendorf [10], N.Xanikov [11] o'z hisobotlarida Buxorodagi qullar haqida ma'lumot keltirgan. Ye.Meyendorf Buxoroda asirga tushib qul bo'lgan rusning suvsizlik muammosi va rishta degan kasallikdan aziyat chekkanligi haqidagi suhbatini o'zining xotiralarida yozib qoldirgan.

A.Berns, A.Vamberi, Yu.Skayler amirlikdagi qullar hayotini turli ko'rinishda kuzatganlar va mushohada etganlar. A. Vamberi Buxoro feodal

jamiyatida katta yer egalari qishloq xo'jaligi ishlarida qullarni ko'proq jalb qilganliklarini bayon etadi[12]. Amir Nasrulloning iltifotidan bahramand bo'lgan Hakimbiy qushbegi nafaqat zeb-ziynat buyumlari-yu chorva mollari balki minglab qullarga ega ekanligini ham ma'lumot sifatida keltiradi [13]. Yujen Skayler Buxoro amirligida qulga aylantirilgan Jovani Orlando ismli italiyaning qismati haqida va Buxoroning qul bozorlarida qirg'iz, eronlik va turkmanlar qullarni yetkazib berishi haqida marumot beradi [14].

Buxoro amirligida qulchilik munosabatlari tarixini o'rganishda M.A.Terentyev, A.A.Bobinskiy, A.A.Semyonov, A.S.Andreyev, A.M.Belinskiy, P.P.Ivanov, B.B. Iskandarov, M.A.Abdurahimov, B.Ismailova, F.D.Tadjiyeva, G.B.Normurodovlarning tadqiqotlarini yuqori baholash mumkin. Mavzuni qisman qanoatlantiradigan xorijiy va mahalliy tadqiqotlarni ko'plab misol keltirish mumkin. Masalan, Xolid Adib, Anke fon Kyugelgen, Kimura Satoru, N.P. Mahkamova, T.G. To'xtametov, Sh.X. Vohidov, R.E. Xoliqova, Q.K. Rajabov, D.M. Jamolova va boshqalar.

Buxoro amirligi qulchilik munosabatlari mavzusini qiyosiy nuqtai nazardan tahlil qilishda N.V.Veselovskiy [15], S.V. Jukovskiy[16], A.S. Morozova [17], F.J. Tadjiyeva [18]larning tadqiqotlari katta ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi: Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar – tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, xronologik tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan.

Tahlil va natijalar. Sadridin Ayniy hayoti va ijodi Buxoro amirligining oxirgi yillariga to'g'ri keladi. Uning shaxsiy hayoti ham qullar hayotidan qolishmaydigan holatda bo'lgan. Ayniqsa, amirlik Rossiya vasalliga aylangach, mamlakatdagi iqtisodiy-ijtimoiy hayot avvalgi holatidan deyarli farq qilmadi, hamon og'ir sharoit saqlanib qolgan edi. 1889-yilda Buxoroda tarqalgan vabo tufayli Sadridin 12 yoshida ota-onasidan ayrilib, voyaga yetmagan ukalarining ta'minoti uning zimmasiga tushgan. Ota-onasini dafn qilish uchun olingan qarz, ocharchilik va doimiy mehnat Ayniy hayotining ajralmas qismiga aylangan. U o'z esdaliklarida o'sha davrni shunday tasvirlaydi: “Menda faqat juda eskirgan bitta (yamoqdan bo'sh joyi qolmagan) chapon va bitta (karbosdan qilingan) ko'ylak-lozim bor edi. Men ko'ylak va lozimimni yuvib otxonada qoldirdim to quriguncha. Oyog'imdagi bulg'or kovushim butkul yirtiq edi. Loy va qorda majbur yurardim”[19]. Bejiz u dastlabki ijodida “Sifliy”, “Muhtojiy”, “Jununiy” kabi taxalluslardan foydalangan emas [20]. Bu og'ir sharoitlar uning dunyoqarashini shakllantirgan va ijtimoiy tengsizlikka qarshi baralla ovoz ko'targan ijodkorga aylantirgan.

Buxoro amirligining so'nggi yillaridagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy muhitni Ayniy o'z asarlarida real rasvirlagan. U mamlakat boshiga yaqinlashayotgan inqilobiy jarayonlar fonida amirlikdagi ijtimoiy tabaqalar, xususan qullar, beva-bechoralar, yetimlar, chorakorlar hayotini ochib beradi. “Buxoro jallodlari”, “Odina”, “Doxunda”, “Qullar”, “Qul bobo yoki ikki ozod”, “Ta'rix amironi mang'it'iyai Buxoro”, “Buxoro inqilobi tarixi” singari asarlarda ushbu mavzular markaziy o'rinni egallaydi. Ayniy “Ta'rix amironi mang'it'iyai Buxoro” asarida Qutliboyning sadoqatli quli, Marv hokimining o'g'li qul sifatida Buxoroga keltirilgani, Poyiostona saroyidagi qul bozorlari haqidagi muhim tarixiy ma'lumotlarni keltiradi [6].

Ayniyning “Qullar” asari dastlab “Qulbobo” nomi bilan 1934 yilda chop etilgan bo'lib, unda musibat girdobida qolgan ijtimoiy qatlamlar, ayniqsa qullarning ayanchli taqdiri mahorat bilan yoritilgan. Asarda Afg'onistondagi siyosiy beqarorlik ortidan Hirotidan odamlarni o'g'irlab keltirilib, Buxoroda sotilishi haqida ham batafsil tasvirlab berilgan[21; 22]. Qari qulfurushning quyidagi so'zlari buni yaqqol ko'rsatadi: “...Eshitishimcha, keyingi kunlarda Afg'oniston shuluqlangan (tartibsizlik avj olgan). Temirshoh o'g'illari - Shohizamon va Shohmahmud oralarida bo'layotgan janjallar mamlakat chegaralarini egasiz qoldirgan, jumladan, Hirot tomonlari ham ilg'ordan bo'shagan. Mana shu yoqlarga bir oqin yasab toleni sinash kerak” [7].

Asarda shuningdek, qulga aylantirilgan insonlar og'ir jazolar orqali bo'ysundirilgan, ularning insoniy huquqlari butunlay poymol qilinganligi keng yoritilgan. Ayniyning ushbu yozganlari tarixiy haqiqatga asoslangan bo'lib, Buxoro jamiyatidagi real voqelikni aks ettiradi. O'sha davrdagi hayotini o'zida mujassam etgan va juda ham muvofiq keladigan Bedilning quyidagi g'azalida in'ikosini ko'radi:

Daleli korvoni ashkam ohi sardro monam,
Asarparvardi dog'am harfi sohibdardro monam.
Rafiqi vahshati man g'ayri dog'i dil nameboshad,
Dar in g'urbatsaro xurshedi tanhogardro monam...[23]

(Mazmuni: Ko'z yoshim karvonining yo'lboshchisi mening oh-zorimdir,

Yuragimdagi dog' izlari o'z so'zlarimning mulkidir,

Do'stimning vahimasi men uchun begona emas,
Bu g'urbat uyida yolg'iz quyoshdek yonaman).

Turg'un Fayziyevning bolalik va o'smirlik yillari O'rta Osiyo tarixining murakkab va keskin o'zgarishlarga boy davriga to'g'ri keladi. Birinchi jahon urushi, 1916-yilgi Jizzax qo'zg'oloni, 1917-1923-yillardagi ocharchilik yillarida boshlangan sinovli hayoti ikkinchi jahon arafasidagi siyosiy beqarorlik davrida davom etdi. Sovet tuzumining shakllanishi, bolsheviklar hokimiyatining o'rnatilishi, istiqlochlilik harakatlarining qurolli to'qnashuvlarga aylanishi, kollektivlashtirish va quloqlashtirish siyosatining kuchayishi, “katta terror” yillaridagi qatag'on siyosati – bularning barchasi o'sha davr ziyolilari hayotiga bevosita ta'sir ko'rsatdi[24].

Ana shunday tarixiy sharoitda voyaga yetgan T.Fayziyev jamiyatdagi ziddiyatlarni chuqur his etgan va ularni tahlil etish orqali tarixiy haqiqatni yoritishga harakat qilgan. U jamiyatdagi muammolarni nafaqat hozirgi holati, balki tarixiy ildizlari orqali ham anglash va yoritish lozim, degan qarashni ilgari surgan. Shu sababdan ham u o'z tadqiqotlarida Buxoro amirligidagi qulchilik tizimining tarixiy asoslarini chuqur o'rgangan.

Sharqshunos olim T.Fayziyevning “Buxoro xonligida qul savdosi” va “Buxoro feodal jamiyatida qullardan foydalanishga doir hujjatlar” nomli asarlari Buxoro amirligida qulchilik munosabatlarini o'rganishda muhim manba sifatida xizmat qiladi. Xususan, “Buxoro xonligida qul savdosi” asarida Eron, Afg'oniston, qozoq, qalmoq va rus yerlaridan o'g'irlab keltirilgan qullar va cho'rilar Buxoro bozorlarida sotilganligi qayd etiladi. Ular orasida eroniy, kurd, qalmoq, jamshid, hazora, afg'on, hind, turk, rus, arab, mo'g'ul kabi millatlar vakillari ham mavjud bo'lgan [8].

Buxorodagi asosiy qul bozorlari poytaxt bilan bir qatorda Qorako'l, Qarshi, Chorjo'y, Vardanze, Vobkent va

G'ijduvon shaharlarida joylashgan edi. Qullarning narxlar ularning yoshi, sog'ligi, mehnatga layoqatiga hamda "qo'lga tushishida sarflangan xarajat"larga qarab belgilanardi. Masalan, Armeni Vamberi ma'lumotlariga ko'ra, 10-15 yoshli qullar 35 tillo, 15-25 yoshli qullar 45-50 tillo, 25-40 yoshli qullar 60-80 tilloga baholangan. Cho'rilar esa yosh ulg'aygan sari narxlar kamaygan: 10-15 yoshli cho'ri – 70-80 tillo, 15-25 yoshli cho'ri – 50-60 tillo, 25-40 yoshli cho'ri – 30-40 tillo atrofida bo'lgan[8].

T. Fayziyev o'z asarlarida Buxoro amirligida qullar turli ijtimoiy guruhlariga mansub bo'lgan yuqori tabaqalar tomonidan ekspluatatsiya qilinganini ta'kidlaydi. Ayniqsa, u qullarning turli toifalari va ularning huquqiy maqomiga alohida e'tibor qaratadi. Bozordan tillo evaziga sotib olingan qullar "zarxarid" deb yuritilgan, nikoh asosida tug'ilgan qullar "qin", "xonazod", "xolis qul" yoki "qulbachcha" deb atalgan. O'zini o'z puli bilan "sotib olgan" - ozod qilgan qul "mukotab", xo'jayin vafotidan so'ng ozod etilgan qul "mudabbar", xo'jayin o'zi uchun tanlagan cho'ri "istilod", cho'ri orqali bola tug'ilgan holatda esa "ummvalad" deb nomlangan. Ba'zi hollarda shartli ozodlik holatlari ham mavjud bo'lgan.

T. Fayziyevning "Buxoro feodal jamiyatida qullardan foydalanishga doir hujjatlar" asari uning avvalgi kitobining boyitilgan va to'ldirilgan variantidir. Unda qullarni sotib olish va sotish shartlari, ularning ozod qilinishi tartiblari, shuningdek, huquqiy va iqtisodiy munosabatlar tizimi yanada kengroq va hujjatlar asosida yoritiladi. Ko'pgina qullar to'lov evaziga ozod qilingan bo'lsa-da, oz miqdordagi qullar yillar davomidagi halol va tinimsiz mehnati evaziga ozod qilingan [25]. Muallif nafaqat faktlarni taqdim etgan, balki ularni chuqur tahlil qilib, Buxoro jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini yoritishga erishgan.

S.Ayniy va T. Fayziyev Buxoro amirligida mavjud bo'lgan qulchilik tizimini har biri o'z uslubi, ilmiy asoslari va zamonaviy talqini orqali yoritgan. Har ikki muallif o'z qarashlari orqali tarixiy haqiqatni yuzaga chiqarishga intilgan. Ularning qulchilik jarayonlari haqida bildirgan munosabatlarida tarixiy voqelikni haqqoniy tasvir etish, eng avvalo, zamonning muhim masalalariga diqqatni qaratish, Buxoro feodal jamiyatini qattiq tanqid qilish hamda amirlikdagi mavjud illatlarni fosh etish kabi xususiyatlar bayon etiladi. Har ikkala tarixchining Buxoro amirligidagi qulchilik munosabatlari haqidagi qarashlarida umumiylik va farqni ko'rish mumkin. Har ikkisi ham Buxoro amirligidagi qulchilik munosabatlarini ochib berishda tarixiy faktlarga tayanadi, bu tizimning mohiyati va oqibatlarini yoritishga intiladi. Shuningdek, Buxorodagi eng asosiy va katta qul bozori Poyiostona saroyi ekanligi ham ikki olim tomonidan aytilgan. Qullar orasida eng ko'p uchraydigan Nekqadam ismli qul (aynan bitta qulni nazarda tutmagan, boshqa alohida qul) hayoti bayon etilgan.

Farq qiluvchi jihatlarida esa, T. Fayziyev o'zining "Buxoro xonligida qul savdosi" kitobida qul mehnati amalda amirlikning oxirgi davrigacha davom etganligini ta'kidlasa[8], S. Ayniy esa, O'zbekiston SSRning tashkil topgan ilk yillarida qullar bo'lganligini isbotlashga harakat qilgan[26]. S.Ayniy qullarni jazolash masalasini ijtimoiy va madaniy nuqtai nazardan tahlil etar ekan, qullarni diniy bid'at va shar'iy hiylalar orqali "ongini boshqarish"[26], so'z orqali bosim o'tkazish, uyqu va ovqatlanish tartibi va me'yoring inson salomatlik talablariga mutlaqo javob bermaslik kabi holatlarni o'zining "Qullar", "Esdaliklar" va boshqa asarlarida keltiradi. T. Fayziyev esa, qulchilik

munosabatlarini ko'proq siyosiy va iqtisodiy hayot bilan bog'lashga harakat qilib, juda qattiq jismoniy taz'iqalar qullar qochib ketishi oldi olinadigan eng asosiy omil deb qaralib, insonlarning haq-huquqlari o'ta shavqatsizlarcha poymol bo'lganligi haqida ma'lumot beradi. Shuningdek, bozorlarda narxlar bir maromda saqlanmaganligi bois, qullarning narxi ham o'zgarib turganligi, qul kuchidan faqat katta mulk egalari foydalanilganligi kabi ma'lumotlarni keltirishlari bilan T.Fayziyevning qarashlari ba'zida Sadriddin Ayniyning mulohazalaridan ajralib turadi. Buxoro bozoridagi qul oldi-sotdi savdosi tartibi, xarakteri jihatidan "Qobusnoma"da ko'rsatilgan "qo'llanma"ga asosanib olib borilganligiga alohida urg'u beradi[8:22]. Yana bir muhim farq qiluvchi jihat Ayniy tarixiy haqiqatni badiiy-publitsistik uslubda, shaxsiy kuzatuv va hayotiy tajriba asosida mulohaza yuritgan bo'lsa, T. Fayziyev esa tarixchi olim sifatida an'anaviy ilmiy metodologiyaga amal qiladi. Ayniy qullikni insoniy fojia sifatida, dramatik obrazlar orqali ochib bergan. Uning asarlarida ko'proq ijtimoiy tanqid, insonparvarlik, adolatga chaqiriq aks etadi. T. Fayziyev asarlarida esa arxiv hujjatlari, statistik ma'lumotlar, konkret tarixiy faktlar asos qilib olingan. T. Fayziyev yondashuvi hissiyotdan xoli, obyektiv va manbaviy dalillarga asoslangan. U ijtimoiy-siyosiy tuzum, iqtisodiy omillar va huquqiy normalarni tahlil qiladi.

Shunday qilib, Ayniyning qarashi adabiy-badiiy va insoniy dramani yoritishga xizmat qilsa, T. Fayziyev yondashuvi tarixiy-iqtisodiy tahlilga qaratilgan. Ularning qarashlari metodologik jihatdan turlicha bo'lsa-da, bir-birini to'ldirib boradi va Buxoro amirligidagi qulchilik tizimini to'liq tahlil qilish imkonini beradi.

Bugungi globallashuv sharoitida, ayniqsa, turli siyosiy manfaatlar to'qnashuvi kuchayib borayotgan bir paytda insonlardan mafkuraviy va iqtisodiy vosita sifatida foydalanish holatlari tobora kengayib bormoqda. Xususan, ayrim guruhlar tomonidan "ishga taklif qilish" niqobi ostida xorijga olib chiqilayotgan insonlarning ekspluatatsiya qilinishi, odam savdosi hamda mehnat muhojirlari orasida huquqsizlik va beqarorlik holatlari ko'paymoqda.

Shu nuqtai nazardan, tarixiy saboqlarga murojaat qilish, yosh avlodda mafkuraviy immunitetni shakllantirish, fuqarolik hissini tarbiyalash va ma'rifat vositasida jaholatga qarshi kurashishni targ'ib etish davr talabi bo'lib bormoqda. Ayniqsa, Buxoro amirligida mavjud bo'lgan qulchilik tizimining mohiyatini chuqur o'rganish, ma'lum bir toifadagi insonlarning boshqalarni ekspluatatsiya qilish mexanizmlarini ochib berish orqali zamonaviy xavf-xatarlarga qarshi samarali g'oyaviy chora-tadbirlarni ishlab chiqish mumkin.

Binobarin, tarixda qulдор va qul o'rtasidagi munosabat qanday ijtimoiy va ma'naviy iztiroblarga olib kelgan bo'lsa, bugun ham har qanday ekspluatatsiya shakllari – garchi u zamonaviy ko'rinishda bo'lsa-da – jamiyat taraqqiyotiga jiddiy to'siq bo'lishi mumkin. S. Ayniy va T. Fayziyevning asarlari orqali tarixdan saboq chiqarish, o'tmishni tahlil qilish orqali bugungi kun muammolarini anglash va hal etish yo'llarini belgilash mumkin bo'ladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Buxoro qulchilik masalasi ko'plab tarixchi olimlarning diqqatini o'ziga tortgan mavzulardan biridir. Buxoroda qulchilik munosabatlari mohiyatini ochib berishda bizga bir qancha manbalar qatori Sadriddin Ayniy va Turg'un Fayziyevning yuqorida nomlari zikr etilgan

asarlari va ularda ilgari surilgan g'oyalar, ilmiy xolisona qarashlar muhim ahamiyat kasb etadi. S.Ayniy ham, T. Fayziyev ham sovet mafkurasi asosida tayanganliklarini istisno etmagan holda aytish joizki, tahlil, muhokama va tadqiqotlaridan juda qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Har ikkala muallifning qarashlari bir-birini to'ldirib, zamonaviy tarixshunoslik uchun muhim metodologik asos

bo'lib xizmat qiladi. Tariximizning mana shunday ayanchli va alamli sahifalarida aniqliklar kiritishda Sadriddin Ayniy va Turg'un Fayziyevning asarlaridagi obyektiv qarashlari, mulohazalari va g'oyalaridan xolisona foydalansak ayni muddao bo'lardi. Ularning qarashlari zamonaviy davr mafkuraviy va ijtimoiy tahdidlarini anglashda ham muhim g'oyaviy manba bo'la oladi.

ADABIYOTLAR

1. Мир Олими Бухорои. Фатхноме Султони. -Рқп. Институт востоковедения АН Республики Узбекистан. - Инв № 1888.
2. Мирзо Шамси Бухорои. О некоторых событиях в Бухаре, Коканде и Кашгаре: Записки Мирзо-Шамса Бухорои, изд. в тексте с пер. и примеч. В.В. Григорьева. - Казань, 1891.
3. Аҳмад Дониш. Рисола ёхуд манғитлар хонадони салтанатининг қисқача тарихи /Таржима, изоҳлар ва кириш сўзи муаллифи Қиёмиддин Йўлдошев. –Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2014.
4. Мирза Абдал Азим Сами. Тарих-и салатин-и мангитийа (История мангитских государей). Издание текста, предисловие, перевод и примечания Л.М.Епифановой. –Москва: Изд-во Восточной литературы, 1962.
5. Мирза Салимбек. Тарих-и Салими (Источник по истории Бухарского эмирата). /Перевод с персидского, вводная статья и примечания: Н.Норкулов. – Ташкент: Академия, 2009.
6. Айни Садриддин. Таърихи амйрони мангитияи Бухоро. – Душанбе, 2023.
7. Айний Садриддин. Куллар. – Тошкент, 1964.
8. Файзиев Т. Бухоро хонлигида кул савдоси. –Тошкент, 1970.
9. Эверсман Э.А.Путешествие из Оренбурга в Бухару.Оренбургб -2023.
10. Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. Москва. -1975.
11. Ханьков Н. Описание Бухарского ханства. СПб. -1843.
12. Арминий Вамбери. Путешествие по Средней Азии. –Москва: Восточная литература 2003.
13. Arminius Vambery. History of Bukhara. London 1873.
14. Eugene Schuyler. Turkistan: Notes of a journey Russian Turkistan, Khokand, Bukhara, and Kuldja. VOL. II. -1876. New York; SCRIBNER, ARMSTRONG CO.
15. Веселовский Н. И. Очерк историко-географических сведений о Хивинском ханстве от древнейших времен до настоящего времени. СПб., 1877.
16. Жуковский С.В. Сношения России с Бухарой и Хивой за последнее трехсотлетие // Записки Российского Археологического Общества, №2. Т. 12, 1915.
17. Морозова А. С. Рабство у туркмен и узбеков Хивинского ханства в XIX веке. Диссертация на соискание степени кандидата исторических наук, Л., 1945.
18. Таджиева Ф.Дж. Хива хонлигида кулчилик муносабатлари моҳияти ва ижтимоий оқибатлари. –Нукус, 2022.
19. Айни Садриддин. Мухтасари тарҷумаи холи худам. – Сталинобод, 1958.
20. Матниёзов А. Публицистика ва назми устод С.Айни. – Сталинобод, 1958.
21. Гонковский Ю.В. Империя Дуррани. – Москва, 1958.
22. Romodin V.A. A History of Afghanistan. –Moscow, 1985.
23. Айни Садриддин. Ёддоштҳо. – Сталинобод, 1954.
24. Рискиев Т. Миллий истиқлол ғояси:асосий тушунчалар, тамойиллар ва атамалар. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2002.
25. Файзиев Т. Бухоро феодал жамиятида куллардан фойдаланишга доир ҳужжатлар (XIX). –Тошкент, 1990.
26. Айни Садриддин. Ғулмон. – Сталинобод, 1960.



UDK: 091.127.321

Sabohat MAMATQOBILOVA,
Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: sabohatmamatqobilova@gmail.com

Renaissance university dotsenti, DSc D.Uralov taqrizi asosida

YUNON –BAQTRIYA PODSHOSI YEVRATID I TANGALARI HAQIDA

Annotatsiya

Tarix fanida ilmiy yechimini kutayotgan muammolar talaygina. Shulardan biri – O'zbek davlatchiligi tarixida Yunon-Baqtriya podsholigi tangalari tavsifi, ijtimoiy va madaniy hayot masalalarini yozma va moddiy manbalar bilan haqqoniy, tanqidiy tahlil qilish bugungi tarix fani va tarixchilar oldida turgan dolzarb muammolardan biridir. Tariximizni o'rganishda tangashunoslik fanining o'zni beqiyosdir. Tangalar bizga eramizdan avvalgi davrdan to hozirgi kungacha bo'lib o'tgan tarixiy va madaniy voqealar qolaversa, siyosiy, iqtisodiy, millatlarning diniy dunyoqarashlari, hukmdorlar titullari haqida ham qimmatli malumotlarni beradi. Maqolada Yunon-Baqtriya podsholigi tangalari va ularning klassifikatsiyasi, tangalar turlari va muomalasi Yunon-Baqtriya podsholigiga oid muhim numizmatik topilmalar to'g'risidagi ma'lumotlar aks etgan.

Kalit so'zlar: Yunon-Baqtriya podsholigi tangalar turlari, Ellin va Sharq madaniyati, Iskandartepa yodgorligi, Yevkratid, Yevtidem, Demetriy, tangalarda aks etgan podsholik titullari.

О МОНЕТАХ ГРЕКО-БАКТРИЙСКОГО ЦАРЯ ЕВКРАТИДА I

Аннотация

В исторической науке существует множество проблем, ожидающих научного решения. Одна из них - описание монет Греко-Бактрийского царства в истории узбекской государственности, правдивый и критический анализ вопросов общественной и культурной жизни с использованием письменных и материальных источников - одна из актуальных задач, стоящих сегодня перед исторической наукой и историками. Роль нумизматики в изучении нашей истории бесподобна. Монеты предоставляют нам ценную информацию о политических, экономических, религиозных мировоззрениях народов, титулах правителей, а также об исторических и культурных событиях, происходивших от нашей эры до наших дней. В статье содержатся сведения о монетах Греко-Бактрийского царства и их классификации, типах и обращении монет, важные нумизматические находки, относящиеся к Греко-Бактрийскому царству.

Ключевые слова: Виды монет Греко-Бактрийского царства, эллинской и восточной культуры, памятник Искандартепе, Евтидему, Деметрию, отраженные на монетах царские титулы.

ON THE COINS OF THE GRECO-BACTRIAN KING EUCRATIDES I

Annotation

There are many problems waiting for a scientific solution in the science of history. One of them is the description of the coins of the Greco-Bactrian kingdom in the history of the Uzbek statehood, the truthful and critical analysis of social and cultural life issues with written and material sources is one of the urgent problems facing the science of history and historians today. The role of numismatics in studying our history is incomparable. Coins provide us with valuable information about political, economic, religious worldviews of nations, titles of rulers, in addition to the historical and cultural events that took place from BC to the present day. The article contains information about the coins of the Greco-Bactrian kingdom and their classification, types and circulation of coins, important numismatic findings related to the Greco-Bactrian kingdom.

Key words: Types of coins of the Greco-Bactrian kingdom, Hellenic and Eastern culture, monument of Iskandartepa, Euthydemus, Demetrius, royal titles reflected on coins.

Kirish. Eng qadimgi davlatlar joylashgan O'zbekiston hududida ellinizm sivilizasiyasi, hind-yevropaliklarning kelib chiqishi, dunyo dinlarining o'zaro ta'siri va sharqning eng qadimiy davlatlari, ularning faoliyati kabi murakkab masalalarga oydinlik kirituvchi noyob ma'lumotlar mavjud. XIX-XX asrlarda ellinistik Baqtriya tarixi Aleksandr Makedonskiy va uning vorislarining sharqqa yurishi bilan bog'liq holda

o'rganildi. Shundan kelib chiqib, numizmatik va yozma manbalar asosida Yunon-Baqtriya podsholigining tarixiga oid bir qancha qarashlar vujudga keldi. Bu manbalar asosida biz Ahamoniylar istibdodi va Aleksandr bosqini davrida Baqtriya o'lkasidagi holat haqida bilimga ega bo'lishimiz mumkin. Ellinizm tarixida Yunon-Baqtriya podsholigi yangi sahifa ochdi [1]. O'rta Osiyo tangashunosligi tarixi bo'yicha

aytdigan bo'lsak, hukmdor tasvirining tangalarda ifodalanishi Aleksandr Makedonskiy davriga borib taqaladi. U zarb ettirgan tangalarda ilk bor podshoh va ma'budlar tasviri hamda titulini zarb ettiradi [2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Numizmatika tarixiy hodisalarni qayta tiklash uchun eng aniq ma'lumot beruvchi tarix fanining tarmoqlaridan biridir. Numizmatik manbalar amaliy jihatdan hujjatli; ularni ishlab chiqish, tizimlashtirish va tahlil qilish, ayniqsa, o'rganilayotgan hudud tarixiga oid yozma manbalar yetarli bo'lmagan hollarda ishonchli ma'lumotlar olish imkonini beradi [5]. Baqtriya zarb etilgan birinchi tangalarning paydo bo'lishi Selevkning o'g'li Antiox II (Spitamening qizi Apamaning o'g'li) nomi bilan bog'liqdir. Bu tangalarning nomlari ham turlicha edi. Jumladan, oltindan yasalgan tangalar stater, kumush tangalar tetradraxma, draxma va yarim draxma deb atalgan [2]. Antiox II (mil. avv. 280-262-yillar) tangalarining o'ng tomonida toj kiygan shoh tasviri zarb etilgan. Tersida esa libossiz Zevs tasviri tushirilgan. O'ng qo'lida bir dasta chaqmoq. Chap qo'lida esa qalqon ushlagan Zevs hamda yunon tilida "Vasilevs Antioxoy" ya'ni "Shox Antiox" degan titul yozilgan [2].

Keng tarqalgan arxeologik ishlar tufayli, so'nggi yillarda, Yunon-Baqtriya numizmatikasi yuzlab tangalar bilan boyitildi, podsholikning pul munosabatlari to'g'risidagi bilimlarning rivojlanishi uchun ahamiyati kata yordamchi tarixiy fanlarning eng muhim tarmog'i hisoblangan numizmatikani naqadar muhim tarmoq ekanligini ta'kislash lozim[3]. Bu yangi materiallar Markaziy Osiyo mintaqasida yashagan xalqlarning azaliy tillari va yozuvlari yodgorliklari ularning tarixi, madaniyati, munosabatlarini o'rganish jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. P. Bernard Yevkratid hukmronligining boshlanishi miloddan avvalgi 170-yilga to'g'ri keladi deb hisoblaydi. Yunon-Baqtriya podshohlari ichida Yevkratid tangalari eng ko'pi hisoblanadi. Uzundaradan olingan draxma Yevkratid tangalarining birinchi turiga mansub. Tangadagi belgilar diqqatga sazovordir. Qiymat belgilarining paydo bo'lishi, aftidan, Yevkratidning davlati shaharlari bo'ylab tangalarni birlashtirishga urinishi bilan bog'liq. Shu sababli tangalarning og'irligini ko'rsatish uchun yunoncha harflarni qo'yish zarurati paydo bo'ldi [5].

Tadqiqot metodologiyasi. 8 nusxada 244 donani tashkil etgan Yunon-Baqtriya podsholigining tangapullaridan iborat, 2019-yil 14-sentyabr kuni "Ayritom" bojxona chegara postida qo'lga olingan kolleksiya shunday qimmatli xazinalardan biri. Ushbu Yunon-Baqtriya tangalarini o'rganish, tizimlashtirish va tasniflash qiyosiylikni talab qiladi, busiz ushbu numizmatik materialnin o'rganish imkonsiz bo'lib qoladi. Ushbu jamlangan kolleksiyani o'rganishda maqsad tizimlashtirish bilan cheklanib qolmasdan tipik va xronologik tasnifini yoritib berishni maqsad qilib qo'yildi. 8 guruhga mansub ushbu tangalar o'zining tasvir xarakteri, zarb etilganlik holati bilan bir biridan farq qilsa, kimyoviy tarkibi, og'irligi, diametrik bilan o'xshashdir. Jumladan Yevkratid (A) guruhga kiruvchi 28 dona tanganing avers hamda revers qismida tasvir yaxshi saqlangan. Yozuvni to'liq o'qish mumkin. Ushbu

guruhga kiritilgan tangalar orginal Yevkratid tangalarining birinchi turi hisoblanadi. Yevkratid (B) guruhga kiruvchi 48 dona tanga Yevkratid tangalariga taqlidan zarb etilgan, bunda avers hamda reversda mavjud tasvir saqlangan, biroq asl nusxadagi tasvirdan og'ish holatlari yaqqol ko'zga tashlanadi. Yevkratid (C) guruhga kiruvchi 8 dona tangada aversda hukmdor tasviri taqlidan tasvirlangan, reversda afsona asl nusxadagidek tasvirlangan. Yevkratid (D) guruhga kiruvchi 5 dona tangada avers hamda revers qismida asl tasvirdan anchayin uzoqlashish holatini ko'rish mumkin. Yevkratid (E) guruhga kiruvchi 4 dona tangada asl tasvirdan chekinish holadi darajasi oshib borgan. Yevkratid (F) guruhga kiruvchi 100 dona tangada tasvirni mutlaqo ko'rish imkoni yo'q biroq kimyoviy tahlili o'rganilayotgan Yevkratid tangalarining boshqa guruhga kiruvchi tangalarga juda o'xshash. Mazkur maqolada ilmiy-tadqiqotning analiz, sintez, analogik tahlil kabi usullardan samarali foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Yevkratid hukmronligi bosqichlarining nisbiy xronologiyasi tangalar bilan belgilanadi. Kumush tangalar ikonografik jihatdan ikkita asosiy turga bo'linadi. Birinchi tur: aversda diademdagi ko'krak qafasigacha bo'lgan hukmdor tasviri, reversda dafna shohlari bilan chopayotgan otlardagi Dioskur tasviri hamda oddiy afsona Qirol hukmdor Yevkratidning (tangasi) ΒΑΣΙΛΕΩΣ ΕΥΚΡΑΤΙΔΟΥ afsonasi ifodalangan [2]. Ikkinchi tur o'ng tomonida makedoncha dubulg'a kiygan shohning ko'kragigacha tushirilgan tasviri. Tersida esa ot choptirib kelayotgan egizak aka-uka Dioskur tasviri ifodalangan va tangada ΒΑΣΙΛΕΩΣ ΕΥΚΡΑΤΙΔΟΥ "Xaloskor shoh Yevkratid" (Soter vasilevs Evkratidoy) degan yunoncha yozuv orqali o'z titulini ifodalagan. Yevkratid (G) guruhga kiruvchi 46 dona tanga aynan Yevkratidning birinchi tur tangalari va ularga taqlidan zarb etilgan namunalar hisoblanadi [6]. Shuningdek kolleksiyada 5 dona turli hukmdorlar tangalari ham uchraydi. Baqtriya hududida pul munosabatlarining boshlanishi antik davrga borib taqaladi. Yunon-Baqtriya podsholigining tanga sistemasi antik standartga asoslangan edi: tangalar asosan kumush va misdan, bazan tilladan zarb etilardi [2].

Yunon-Baqtriya kumush tangalari, asosan, bir andozada bo'lib, o'ng tomonida hukmdor podshonng, tersida esa u o'ziga pir qilnb olgan ma'budlarning, masalan, Zevs, Gerakl, Poseydon, Apollonning tasviri tushinilar edi. Ularda podshoning martabasinn, ismini hamda laqabini masalan «podsho Antimax Xudoning deb beruvchi grek yozuvlarn yarim doira yeki ustuncha shaklida joylashtirilgan. Bundan tashqari, tanganing tersida ma'budning tasviri yonida bir necha yunon harflaridan iborat monogramma xam bor. Monogrammaning nima uchun keraklngi haligacha noma'lum: ba'zi tadqiqotchilar bu zarbxona nomlarning qisqartirib yozilgani desa, ba'zilar tangalarni chiqarish uchun mas'ul bo'lgan amaldorlarning ismlari, xatto tanga zarb etilgan sana deb ham taxmin qilishadi [2] Biz o'rganayotgan numizmatik materialning asosini tashkil etgan hukmdor Yevkratid davrida zarb etilgan tangalar ichida o'ng tomonida podshohning o'z surati hamda ΒΑΣΙΛΕΩΣ ΕΥΚΡΑΤΙΔΟΥ «Ulug' shoh Yevkratid»

degan yozuv, tersida esa yigit yoki erkak xamda peshonasida tillaqosh taqqan ayolning yon tomonndan olingan surati aks ettirilgan. Suratning tagida: «Geliokl va Laodika» deb yozilgan tangalar uchraydi. Yunon-Baqtriya tangalari texnikaviy ijrosi jihatidan va xususan, podshohdarning siymosini aks ettirishdagi badiiy ifoda usullari jixatidan hatto eng baland saviyada zarb etilgan ellada tangalaridan ustun turadi. Yevkratidning kichik kumush tangalari, shuningdek, yirik nominallar, ikki turga bo'linadi. Birinchi tur: o'ngda ko'krak qafasigacha bo'lgan toj kiygan hukmdor tasviri, dafna novdalari bilan Dioskur tasviri. Ikkinchi tur: o'ng tomonda toj va dubulg'adagi hukmdorning ko'krak qafasigacha bo'lgan tasviri, dafna novdalari bilan Dioskur tasviri tushirilgan. Biz o'rganayotgan kolleksiyadagi Yevkratid tetrodraxmalari monogrammali birinchi turdagi tangalarni nazarda tutadi. Xuddi shunday tanga Kampirtepada ham topilgan. Ushbu joyda yana ikkita obol topilgan, ammo ularning ikkalasi ham yomon saqlanib qolgan, bu esa ularni qat'iy atributlashni imkonsiz qiladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qiladigan bo'lsak, Yevkratid hukmronligi bosqichlarining nisbiy xronologiyasi tangalar bilan belgilanadi. Kumush tangalar ikonografik jihatdan ikkita asosiy turga bo'linadi. Birinchi tur: aversda diademdagi ko'krak qafasigacha bo'lgan hukmdor tasviri, reversda dafna shohlari bilan chopayotgan otlardagi Dioskur tasviri hamda oddiy afsona Qirol hukmdor Yevkratidning (tangasi) ΒΑΣΙΛΕΩΣ ΕΥΚΡΑΤΙΔΟΥ afsonasi ifodalangan [2]. Ikkinchi tur o'ng tomonida makedoncha dubulg'a kiygan shohning ko'kragigacha tushirilgan tasviri. Tersida esa ot choptirib kelayotgan egizak aka-uka Dioskur tasviri ifodalangan va tangada ΒΑΣΙΛΕΩΣ ΕΥΚΡΑΤΙΔΟΥ "Xaloskor shoh Yevkratid" (Soter vasilevs Evkratidoys) degan yunoncha yozuv orqali o'z titulini ifodalagan. Yevkratid (G) guruhiga kiruvchi 46 dona tanga aynan Yevkratidning birinchi tur tangalari va ularga taqlidan zarb etilgan namunalar hisoblanadi [6]. Shuningdek kolleksiyada 5 dona turli hukmdorlar tangalari ham uchraydi. Baqtriya hududida pul munosabatlarining boshlanishi antik davrga borib taqaladi. Yunon-Baqtriya podshohligining

tanga sistemasi antik standartga asoslangan edi: tangalar asosan kumush va misdan, bazan tilladan zarb etilardi. [2] Yunon-Baqtriya kumush tangalari, asosan, bir andozada bo'lib, o'ng tomonida hukmdor podshohning, tersida esa u o'ziga pir qilib olgan ma'budlarning, masalan, Zevs, Gerakl, Poseydon, Apollonning tasviri tushinilar edi. Ularda podshohning martabasini, ismini hamda laqabini masalan «podsho Antimax Xudoning deb beruvchi grek yozuvlarni yarim doira yoki ustuncha shaklida joylashtirilgan. Bundan tashqari, tanganing tersida ma'budning tasviri yonida bir necha yunon harflaridan iborat monogramma xam bor. Monogrammaning nima uchun kerakligi haligacha noma'lum: ba'zi tadqiqotchilar bu zarbxona nomlarining qisqartirib yozilgan desa, ba'zilar tangalarni chiqarish uchun mas'ul bo'lgan amaldorlarning ismlari, xatto tanga zarb etilgan sana deb ham taxmin qilishadi [2]. Biz o'rganayotgan numizmatik materialning asosini tashkil etgan hukmdor Yevkratid davrida zarb etilgan tangalar ichida o'ng tomonida podshohning o'z surati hamda ΒΑΣΙΛΕΩΣ ΕΥΚΡΑΤΙΔΟΥ «Ulug' shoh Yevkratid» degan yozuv, tersida esa yigit yoki erkak xamda peshonasida tillaqosh taqqan ayolning yon tomonndan olingan surati aks ettirilgan. Suratning tagida: «Geliokl va Laodika» deb yozilgan tangalar uchraydi. Yunon-Baqtriya tangalari texnikaviy ijrosi jihatidan va xususan, podshohdarning siymosini aks ettirishdagi badiiy ifoda usullari jixatidan hatto eng baland saviyada zarb etilgan ellada tangalaridan ustun turadi. Yevkratidning kichik kumush tangalari, shuningdek, yirik nominallar, ikki turga bo'linadi. Birinchi tur: o'ngda ko'krak qafasigacha bo'lgan toj kiygan hukmdor tasviri, dafna novdalari bilan Dioskur tasviri. Ikkinchi tur: o'ng tomonda toj va dubulg'adagi hukmdorning ko'krak qafasigacha bo'lgan tasviri, dafna novdalari bilan Dioskur tasviri tushirilgan. Biz o'rganayotgan kolleksiyadagi Yevkratid tetrodraxmalari monogrammali birinchi turdagi tangalarni nazarda tutadi. Xuddi shunday tanga Kampirtepada ham topilgan. Ushbu joyda yana ikkita obol topilgan, ammo ularning ikkalasi ham yomon saqlanib qolgan, bu esa ularni qat'iy atributlashni imkonsiz qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Попов А.А. Греко-Бактрийское царство. – Москва: 2008. – С. 6.
2. Ртвеладзе Э.В. Древние монеты Средней Азии. – Ташкент: 1987. – С. 9.
3. Pidayev Sh. Tangalar davr ko'zgusida. – Toshkent: 1984. – B. 3-9.
4. Горин.А.Н. Денежное обращение северной Бактрии в середине II в. до н.э. – III в. н.э. – Ташкент: 1987. – С.3.
5. Зеймаль Е.В. Древние монеты Таджикистана. – Душанбе. 1983. – С.16.
6. Двуреченская Н.Д., Горин А.Н., Шейко К.А. Монеты из крепости Узундара (по результатам работ 2015 г.).
7. Попов А.А. Эволюция царской власти в Греко-Бактрии Античное общество - IV: Власть и общество в античности. Материалы международной конференции антиковедов, проводившейся 5-7 марта 2001. – С.10.
8. Ртвеладзе Э.В. Древние монеты Средней Азии. Из литературы. Г. Гусьяма. – Ташкент: 1987. – С.25.
9. Ртвеладзе Э.В. Титулы правителей государств и владений Средней Азии в начале I тыс.до н.э. // ОНУ. – 2006. – С. 46-57.
10. Sallet A. Die Nachfolger Alexanders des Grossen in Baktrien und Indien. Berlin, 1879. – P-23.



UDK:94

Nozima NASRIDDINOVA,

Termiz davlat universiteti katta o'qituvchisi tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti professori, t.f.d E.Qobulov tahriri ostida

THE FORMATION OF THE EPIC STORYTELLING TRADITION IN SURKHANDARYA

Annotation

This article provides information, based on reliable sources, about the formation of the art of bakhshi in the Surkhandarya region, its condition during the Soviet era, the role of bakhshi poets in the development of this art, and the repertoire of the bakhshis of the oasis.

Key words: Oasis, bakhshi, dombra, art, terma, epic, master, apprentice, school, tradition.

PROTSESS FORMIROVANIYA ISKUSSTVA "BAXSHICHILIK" V SURXANDARE

Annotatsiya

V dannoy state rassmatrivaetsya protsess formirovaniya iskusstva baxshi v Surxandare, a takje sostoyanie etogo iskusstva v sovetskiy period, deyatelnost poetov-baxshi v razvitii etoy sfery i repertuarы baxshi dannogo regiona na osnove dostovernыx istochnikov.

Ключевые слова: region, baxshi, dombra, iskusstvo, terma, doston, nastavnik, uchenik, shkola, traditsiya.

SURXONDARYODA BAXSHICHILIK SAN'ATINING SHAKLLANISH JARAYONI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Surxondaryoda baxshichilik san'atining shakllanishi hamda sovet davrida ushbu san'atning ahvoli, baxshi shoirlarning sohani rivojlantirishdagi faoliyati hamda voha baxshilarining repertuarlari xususida aniq manbalar asosida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Voha, baxshi, do'mbira, san'at, terma, doston, ustoz, shogird, maktab, an'ana.

Kirish. O'zbek xalqi bebaho ma'naviy merosga egaligi bilan jahon madaniyatida o'z o'rniga ega. Bu borada xalq og'zaki ijodi – folklor, ayniqsa, epik janrlar xalqning tarixi, dunyoqarashi, orzu-umidlari, kurash va jasoratini o'zida mujassam etgan. Shular orasida baxshichilik san'ati, ya'ni dostonchilik – xalq hayoti, milliy ruhi va qadriyatlarining ta'sirchan ifodasi sifatida alohida ahamiyatga egadir.

O'zbekistonning janubiy hududi – Surxondaryo viloyatida baxshichilik san'ati yuksak darajada rivojlangan. Ayniqsa, Sherobod dostonchilik maktabi o'zining boy repertuari, o'ziga xos ijro uslubi, tarixiy shakllanish jarayoni va yuksak maqomi bilan ajralib turadi. Bu maktab nafaqat viloyat, balki jahon o'zbek folkloristikasida ham muhim o'rin tutadi. Maktabning asoschilaridan biri Sherna baxshi va uning shogirdlari tomonidan yaratilgan asarlar bugungi kunda ham katta ilmiy va ma'naviy ahamiyatga egadir.

Mazkur maqolada Sherobod dostonchilik maktabining paydo bo'lishi, rivojlanish bosqichlari, mashhur baxshilarning ijodi, dostonlarning mavzusi va ijro an'analari, shuningdek, sovet davridagi mafkuraviy tazyiqlar va ularning baxshichilikka ta'siri haqida aniq manbalar asosida tahlil yuritiladi. Shuningdek, xalq orasida ustoz-shogirdlik tizimi, yozib olingan dostonlar va ularning ahamiyati ham ko'rsatib o'tilgan.

Metodlar. Mazkur ilmiy maqolani tayyorlashda bir qator ilmiy-tahliliy va amaliy usullardan samarali

foydalanildi. Avvalo, tarixiy-xronologik usul orqali baxshichilik san'atining yuzaga kelishi, uning Sherobod maktabi doirasida shakllanish bosqichlari xronologiya asosida o'rganildi. Shuningdek, manbashunoslik usuli asosida 1920–1960-yillarga oid folklor ekspeditsiyalari, folklorshunos olimlar qaydlari, arxiv hujjatlari va ommaviy axborot vositalarida chop etilgan materiallar o'rganib chiqildi. Solishtirma-tahliliy usul yordamida Sherobod dostonchilik maktabi va O'zbekistonning boshqa dostonchilik maktablari o'rtasidagi farqlar aniqlandi.

Etnografik kuzatuv usuli orqali olingan ma'lumotlar ham maqolada muhim ahamiyat kasb etdi. Jumladan, Omonnazar baxshi, Sherna baxshi, Shoto'ra baxshi, Mardonqul baxshi va boshqa ijodkorlar haqidagi tarixiy xotiralar va folklor materiallaridan foydalanildi.

Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlar tahlili orqali folklorshunos olimlar – Hodi Zarif, Muzayana Alaviya, S.Tursunov, T.Mirzaev kabi mutaxassislarning ishlari asosida nazariy mulohazalar berildi.

Natijalar. O'zbek folklorshunosligida Bulung'ur, Nurota, Narpay, Qamay, Qo'rg'on, Xorazm, Shahrisabz, Sherobod, Chiroqchi kabi dostonchilik markazlari baxshichilik maktablari sifatida e'tirof etiladi [1]. Ana shu dostonchilik maktablari orasida Sherobod dostonchilik maktabining o'ziga xos o'rni bor.

Sherobod dostonchilik maktabining ilk asoslari qachon bunyod etilganligi hanuzga qadar bahsli masalalardan biri sanaladi. Chunki, vohaning baxshi shoirlari haqida birorta tarixiy manbada ma'lumot qayd etilmagan. Biroq, baxshichilikning ilk ildizlari qariyb ming yillardan ko'proq davrni o'z ichiga oladi. Fikrimizning isboti sifatida aytish mumkinki, baxshi atamasi mo'g'ilcha so'z bo'lib, ma'rifatchi, ustoz degan ma'nolarni beradi, bundan tashqari qadimgi sanskrit tilida bhikshu-so'zi qalandar yoki darveshlarga nisbatan qo'llanilganligini inobatga oladigan bo'lsak ushbu san'at turining shakllanish tarixi yanada qadimiylashib boradi [2]. Har holda Sherobod dostonchilik maktabi tarixi ham bir necha yuz yillarni qamrab oladi. Hozirgi kunga qadar yetib kelgan ma'lumotlarga tayanadigan bo'lsak, Sherobod dostonchilik maktabining shakllanishini Sherna baxshi ya'ni Shernazar Berdinazar o'g'lining nomi bilan bog'lanishini bilib olamiz.

Ammo Sherna baxshining ustози Qosim ko'r baxshi haqida nihoyatda kam ma'lumotga egamiz. Qolaversa Qosim ko'r baxshi Bobo baxshidan ta'lim olgan. Sherobod dostonchilik maktabi o'z repertuari, baxshilarning ijro uslubi, dostonlarining turlari, doston syujetlarining xilma-xilligi bilan yurtimizdagi boshqa dostonchilik maktablaridan tub farq qiladi. Sherobod dostonchilik maktabining ijro uslubi bo'g'iq ovoza asoslangan bo'lib, bu uslub boshqa dostonchilik maktablarida ko'zga tashlanmaydi. Sherobod dostonchilik maktabining geografik diapozoni ancha keng bo'lib, mazkur maktab Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlarining bir necha tumanlarini bundan tashqari Janubiy Tojikiston va Janubi-g'arbiy Turkmaniston hududlari, shuningdek Shimoliy Afg'onistonning o'zbeklar yashaydigan tumanlarini o'z ichiga oladi [3].

Sherobod dostonchilik maktabida uchraydigan dostonlardan "Oltin qovoq", "Malla savdogar", "Zayidqul", "Ollonazar Olchinbek", "Oychinor", "Kelinoy", "Xubrsana", "Toshbosar" kabi dostonlar boshqa dostonchilik maktablarining repertuarida ko'zga tashlanmaydi [4] Sherobod dostonchilik maktabiga birlashga baxshi shoirlar: "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Kuntug'mish", "Hasanxon", "Avazxon", "Nurali", "Yunuspari", "Misqol pari" kabi dostonlarni o'ziga xos uslubda kuylagan.

Surxon vohasidagi dostonchilik an'analari haqidagi ilk ma'lumotlar rus orientalisti Ye.F.Kalning kundaliklarida qayd etilgan. U 1890 yilda Termiz yaqinidagi Solihobod qishlog'iga kelib to'xtaganda qo'ng'iro't urug'ining oyinli dahasiga mansub bo'lgan Omonnazar baxshi unga to'xtovsiz uch soat davomida do'mbira jo'rligida doston kuylab bergan. Keyinchalik Ye.F.Kalning kundaliklarini o'rgangan folklorshunos olim Hodi Zarif Omonnazar baxshi kuylagan doston "Alpomish" dostoni bo'lishi mumkin deb qayd etgan[5].

Sherobod dostonchilik maktabidan Sherna baxshi, Mardonuqul Avliyoqul o'g'li, Umir Safar o'g'li, Normurod baxshi, Ahmad baxshi, Nurali Boymat o'g'li, Xoliyor baxshi, Mamarayim baxshi, Yusuf O'tagan o'g'li, Eshqobil baxshi, Bo'riboy Ahmad o'g'li, Ermamat baxshi Badal o'g'li, Ulash baxshi G'ozi o'g'li, Boyqul baxshi, Boymurot baxshi, Nazar baxshi, Eson

baxshi, Jo'ra baxshi va boshqa yana o'nlab zabardast baxshi o'shoirlar yetishib chiqqan.

Shernazar (Sherna) baxshi Sherobod dostonchilik maktabining asoschilaridan biri sanaladi. Sherna Qosim yuz boshi, Alim yuzboshi, Xolmurod Qosim o'g'li kabi baxshilar bilan bir paytda ijod qilgan. Sherna 17 yoshida Sherobod baxshining nomdor baxshisi Niyozali jebachi bilan aytishuvda g'olib chiqqan [6]. Sherna baxshi G'uzor, Boysun, Sherobod, Denov va Hisor bekliklarida ancha nom qozongan. Sherna baxshining nomi bilan bog'liq ellikdan ortiq dostonlar mavjud bo'lib shundan 20 dan ortiq doston yozib olingan. Shoto'ra yuzboshi (1887-1947) ham Sherobod dostonchilik maktabining tipik vakillaridan biri sanaladi.

Shoto'ra baxshi baxshichilik sirlarini otasi Boyqul baxshidan o'rgangan. Boyqul baxshi ham o'z davrining nomdor baxshilaridan biri bo'lib, hatto amir Muzaffar huzurida ham bir necha marta doston kuylab baxshichilikka vasiqa olgan [7].

Shoto'ra baxshi "Alpomish" va "Go'ro'g'li" turkumiga mansub qirqqa yaqin dostonlarni alohida mahorat bilan kuylagan. Bundan tashqari "Yodgor", "Shodmonbek", "Savdogar" dostonlari aynan Shoto'ra baxshiga tegishli ekanligi folklorshunos olimlar tomonidan tan olingan. Sherobod dostonchilik maktabining yetuk baxshilaridan yana biri Umir baxshi Safar o'g'lidir. Umir baxshi qariyb 20 dan ziyod doston yuzdan ziyod termalarni yoddan bilgan. "Suluvxon" va "Oyparcha" dostonlari Umir baxshiga tegishli dostonlar sifatida e'tirof etiladi [8] Sherobod dostonchilik maktabida unutilmas iz qoldirgan va ushbu maktabning yangi o'zanini yarata olgan baxshilardan biri Mardonuqul baxshi Avliyoqul o'g'lidir (1889-1975) Mardonuqul baxshi Sherna baxshining ham kuyovi ham shogirdi. Mardonuqul baxshi "Alpomish" dostonini yangi syujetlar bilan boyitgan. Jumladan, Alpomishning qolmoq shohining qizi Tovkaoyim bilan bog'liq munosabatlari aynan Mardonuqul baxshi repertuarida jamlanganligi bilan xarakterlanadi.

Mardonuqul baxshi ko'plab shogirdlarni tarbiyalab voyaga yetkazgan ustoz baxshilardan sanaladi. Masalan, denovlik Toshmurod To'ra o'g'li, Eshmurod Sherdon o'g'li, angorlik Rahim baxshi, Qiyom baxshi Chori o'g'li, boysunlik Ulash baxshi G'ozi o'g'li, sherobodlik Saidali Hayitnazar o'g'li, Bo'ri baxshi Ahmad o'g'illari Mardonuqul baxshining shogirdlari sanaladi [9]. Sherobod dostonchilik maktabining yana bir zabardast vakili boysunlik Ermamat baxshi Badal o'g'lidir. Ermamat baxshi asli Robot qishlog'idan bo'lib qo'ng'iro't urug'ining qorabo'yin dahasiga mansub. Ermamat baxshi do'mbira chalish sirlarini otasi Badal bobodan va qaynotasi Mergan ovchidan o'rgangan. Ermamat baxshi arab va fors tillaridan ham bir muncha xabardor, qolaversa, diniy ilm yuzasidan ham saboq olganligi bois xalq orasida mullo Ermamat baxshi sifatida nom chiqargan. Ermamat baxshi ijodidan yigirmadan ortiq dostonlar o'rin olgan. Jumladan, "Alpomish", "Avazxon", "Dallijon", "Kuntug'mish", "Misqol pari", "Balogardon", "Bazurg'on", "Qunduz va Yulduz" dostonlarini o'ziga xos uslubda kuylagan.

1938 yilda gazalik Xudoyqul Turdialiev Ermamat baxshidan termalar yozib olgan. Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda folklorshunos olimlar Muzayana Alaviya va Hodi Zariflar Boysunga kelib Ermamat baxshi bilan uchrashgan va ko'plab termalar va ayrim dostonlarni yozib olgan [10]. Sherobod dostonchilik maktabining a'zolaridan doston va termalarni yozib olish ishlari XX asrning 20 yillarining oxirlarida boshlab yuborilgan. O'zbekiston ilmiy tekshirish instituti folklor ekspeditsiyasi tarkibida 1929 yilning 17 iyul kuni Boysunning Padang qishlog'iga tashrif buyurgan etnograf L.P.Patapov, tilshunos G'.O.Yunusov va folklorshunos H.Zarifovlar shu yerlik baxshilar "Qo'ng'iro't botiri Alpomish" haqida doston kuylashligini eshitganligini qayd etishgan. Yana bir misol 1929 yilda folklorshunos Hodi Zarif boysunlik Abdunazar baxshidan "Amir qochdi" dostonini va bir qancha termalarni yozib olgan. 1945 yilda folklorshunoslar H.Zarifov va Q.Muhammedovlar Sherobodning Chig'atoy qishlog'ida yashagan Mardonoqul Avliyoqul o'g'lidan "Alpomish" dostonining Surxondaryo variantini yozib olgan. Shuningdek, 1956 yilda Umir baxshi Safar o'g'lidan 1958 yilda Mamarayim yuzboshidan, 1966 yilda esa sherobodlik Bo'ri baxshi Ahmad o'g'lidan "Alpomish" dostonining Surxoncha variantlari yozib olingan.

1945 yilda etnolingvistik ekspeditsiya tarkibida Surxon vohasiga tashrif buyirgan folklorshunos olim M.Afzalov o'zining "O'zbek xalq shoirilari" maqolasida ushbu ekspeditsiyada to'plangan ma'lumotlar haqida axborot berish bilan birga Sherobod dostonchilik maktabining ustoz-shogirdlik an'analarga ham to'xtalib o'tgan.

Biroq, kommunistik mafkura va sovet hukumati hukmronlik qilgan davrda ko'plab milliy qadriyatlarimiz qatorida o'zbek xalqi og'zaki ijodi ham qattiq nazorat ostiga olindi. Iloji boricha xalqni milliy o'zligini anglashga bo'lgan intilishi markazning nazorat organlari tomonidan muntazam cheklab kelindi. Misol uchun VKP (b) Markaziy Qo'mitasining bevosita topshirig'i asosida 1952 yil 21-22 fevral kunlari

O'zbekiston Kompartiyasining X Plenumi bo'lib o'tdi. Ushbu plenumda "Respublikada mafkuraviy ishlarning ahvoli va uni yaxshilash choralari" degan masala ko'rib chiqildi.

Plenum qarorlarida folklor asarilar, ayniqsa, "Alpomish" dostoni tabiatan zararli, xalqqa qarshi, chunki o'tmishni "ideallashtiradi" deb ko'rsatildi [11]. Plenum va unda qabul qilingan qarorlar O'zbekistonning ma'naviy hayotiga kuchli zarba bo'lib tushdi. Markaz ko'rsatmalariga labbay deb javob berishga o'rganib qolgan Til va adabiyot instituti hamda Respublika Yozuvchilar uyushmasi rahbarlarining tashabbusi bilan 1952 yil 26 mart kuni "Alpomish" dostonining muhokamasi bo'lib o'tdi. Mazkur muhokamada "Pravda Vostoka" gazetasi orqali "Alpomish" qahramonlik eposini qoralab chiqqan mualliflardan biri Abdulla Abdunabiev so'zga chiqib "Alpomish" dostonini tadqiq va nashr qilgan olim va shoirilar sha'niga haqorat va tuhmat so'zlarni yog'dirdi [12]. Shundan so'ng o'zbek xalqining xalq og'zaki ijodi yana ta'qib ostiga olindi. Baxshi shoirilar ijodiga e'tibor berilmadi.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqqan holda, Sherobod dostonchilik maktabi nafaqat Surxondaryo vodiysida, balki butun O'zbekiston folklor makonlarida alohida o'rin tutadi. Ushbu maktabning shakllanishi ming yillik an'analarga, ustoz-shogirdlik tizimiga, boy repertuar va o'ziga xos ijro uslubiga tayanadi.

Sherobod baxshilari tomonidan yaratilgan dostonlar nafaqat xalqni milliy ruhda tarbiyalash, balki madaniy merosni avlodlar orasida uzluksiz yetkazish vositasiga aylangan. Ayniqsa, Sherna baxshi, Mardonoqul baxshi, Ermamat baxshi va boshqa ijodkorlarning faoliyati milliy adabiyot va san'at tarixida o'chmas iz qoldirgan.

Sovet mafkurasida davridagi ta'qib va taqiqlarga qaramasdan, baxshilar xalqning milliy o'zligini asrashga, tarixiy xotirasini saqlashga xizmat qildilar. Baxshichilik san'ati milliy qadriyat sifatida yanada chuqur o'rganilishi va yosh avlodga yetkazilishi lozim.

ADABIYOTLAR

1. Раззоков Х Мирзаев Т, Собиров О, Имомов К. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. – Тошкент, 1980. – Б. 72.
2. Турсунов С, Пардаев Т, Турсунов Н, Муртозоев Б. Ўзбекистонда бахшичилик санъатининг шаклланиши ва тараққиёти тарихи. – Тошкент: "Tafakkur", 2015. – Б. 23.
3. Мирзаев Т. Халқ бахшиларининг эпик репертуари. – Тошкент: "Фан". 1979. – Б. 32.
4. Турсунов С, Пардаев Т, Турсунов А, Тоғаева М. Ўзбекистоннинг жанубий ҳудудларида номодий маданият тарихи. – Тошкент: "Мухаррир", 2012. – Б. 83.
5. Зарифов Х.Т. К изучению узбекского народного эпоса // Вопросы изучения эпоса народов. – Москва, 1958, - С 110.
6. Турсунов С, Қобилов Э, Муртозоев Б, Пардаев Т. Сурхондарё тарихи. – Тошкент: "Шарк", 2004, - Б. 435.
7. Сурхон тонги газетаси 1999 йил 16 апрель
8. Сурхон тонги газетаси 1999 йил 26 август.
9. Moziydan saado. 2013. №3. – Б. 14-18.
10. Турсунов С, Рашидов Қ, Бойсун. – Тошкент: "Akademnashr", 2011. – Б. 343.
11. Муаллифлар жамоаси Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йй) – Тошкент: "Шарк", 2004. – Б. 285-286.
12. Муаллифлар жамоаси Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар) Иккинчи китоб. – Тошкент: "O'zbekiston", 2019. – Б. 94.



UDK: 398(=512.3/.5):930.85

Chingiz ODINAYEV,
Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti
E.mail: chingizodinayev9@gmail.com

Termiz davlat universiteti dotsenti v.b., PhD G.Kattayeva taqrizi asosida

MYTHOLOGICAL BELIEFS OF THE ANCIENT TURKS

Annotation

This article addresses the issue of the formation and development of the mythological worldview of the ancient Turkic peoples. It contains information about the origin and development of religious beliefs and religious ideas of the ancient Turks, as well as the role of the Yada stone in their lives.

Key words: Mythology, totemism, shamanism, Kok Tengri, Erlikhan, Umai Mother, Alp Er Tunga, Irk bitig, Golden Light (Oltin Yorug'), Devonu lugatit-Turk, Bort, Uza.

МИФОЛОГИЧЕСКИЕ ПРЕДСТАВЛЕНИЯ ДРЕВНИХ ТЮРКОВ

Аннотация

В данной статье поднимается вопрос формирования и развития мифологического мировоззрения древних тюркских народов. Содержится информация о возникновении и развитии религиозных верований и религиозных представлений древних тюрков, а также роли камня Яда в их жизни.

Ключевые слова: Мифология, тотемизм, шаманизм, Кук Тангри, Эрликхан, Умай-ене, Алп Эр Тонга, Ирк битиклар, Олтин Йорут, Девону лугатит-тюрк, Борт, Уза.

QADIMGI TURKIYLARNING MIFOLOGIK QARASHLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada qadimgi turkiy xalqlarning mifologik dunyoqarashining shakllanishi va rivojlanishi masalasi ko'tarilgan. Qadimgi turklarning diniy e'tiqodi va diniy tasavvurlarining paydo bo'lishi va rivojlanishi, ularning hayotida Yada toshining tutgan o'rni masalasiga oid ma'lumotlar aks etgan.

Kalit so'zlar: Mifologiya, totemizm, shamanizm, Ko'k Tangri, Erlikxon, Umay ona, Alp Er To'nga, Irq bitiklar, Oltin Yorug', Devonu lug'atit-turk, Bo'rt, Uza.

Kirish. Butun Jahon xalqlari o'zlarining kelib chiqishi yoki diniy e'tiqodi bo'yicha o'z mif va afsonalariga ega. Turkiy xalqlar ham bu borada uzoq o'tmishga ega bo'lib, ularning kelib chiqish mifologiyasi va diniy e'tiqodi shakllanishi haqidagi tasavvurlari mil. avv V- IV mingyilliklarga borib taqaladi.

Turk mifologiyasi – bu turkiy dunyo xalqlarining eng qadimiy diniy va falsafiy olami va dunyoqarashlarining tabiat bilan aloqalari, turkiy xalqlarning urf-odatlarini va diniy tasavvurlarini ifodalovchi ma'naviy boylikdir. Qadimgi turkiy miflarning aksariyati borliq va turkiy xalqlarning paydo bo'lishiga oiddir. Ularda ilohiy obrazlar bilan birga ruhlar, samoviy kuchlar va yerosti dunyosi kabi qarashlar aks etgan. Ayniqsa, turkiy xalqlar nuqtayi nazarida osmon ilohi - Ko'k Tangri, ona tabiat ilohasi - Umay, marhumlar saltanati hukmdori - Erlikxon kabi timsollar asosiy o'rinda turadi. Turk mifologiyasining paydo bo'lishi qadimgi turkiy qabilalarning ijtimoiy-iqtisodiy hayot tarzi, madaniy va ma'naviy rivojlanish darajasiga bevosita bog'liq bo'lgan. Chunki qadimda turkiy xalqlarning ko'chmanchi hayot tarzida tabiat hodisalari, hayvonot va koinot jismlari katta ahamiyat kasb etgan. Qadimda turkiy xalqlar har bir narsaning ruhi borligiga ishonishgan. Bu esa ularda animizm fetishizm va ayniqsa, ilk diniy e'tiqod shakllaridan biri bo'lgan shamanizm kabi e'tiqod shakllarining paydo bo'lishi va rivojlanishiga zamin yaratgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Qadimgi turkiy xalqlar hayoti haqidagi miflar asosan yunon va xitoy muarrixlari asarlarida moniylik she'rlari, O'rxun –Enasoy toshbitiklari, Irq bitiklar, Oltin Yorug', "Alp Er To'nga", "O'g'uznoma", "Korkut ota" va boshqa turkiy xalqlar folklori namunalari saqlangan. Bundan tashqari, Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit-turk" asarida ham qadimgi turkiylarning urf-odat, an'analari bilan birga turkiylar mifologiyasi haqida ham anchagina ma'lumotlar bizgacha yetib kelgan. Hozirgi kunda ham turk mifologiyasiga qiziquvchi, mazkur sohada tadqiqot olib boruvchi tadqiqotchilar ham oz emas. Masalan, folklorshunos O. Xo'jayev o'z asarlarida o'zbek xalq og'zaki ijodi, afsonalar va dostonlar asosida turkiy mifologik tasavvurlarni tadqiq qilgan. N.I. Jo'raqo'ziyev "Qadimgi turkiy yozma yodgorliklarda kosmogonik mifologiya" nomli monografiyasida qadimgi turkiy xalqlarning ilk diniy e'tiqod shakllari va olam haqidagi tasavvurlari izchil tadqiq qilingan.

Bundan tashqari, dunyo miqyosida turkshunoslik bilan shug'ullanuvchi turkiy mifologiya bo'yicha tadqiqot olib borgan olimlarning ilmiy ish va maqolalarini ham aytib o'tishimiz mumkin. Masalan, turkiyalik B.O'gelning "Turk mifologiya" asarida turkiy miflarni tizimlashtirgan bo'lsa, R. Bascomning "The Shamanistic Origin of Turkish Mythology" maqolasi, ruminiyalik M.Eliadening ilmiy ishlarida turkiy xalqlarning shamanistik urf-odatlarini haqida tahliliy fikr bildirilgan. Shundan ko'rishimiz

mumkinki, ko'plab turkolog va folklorshunoslar qadimgi turkiy xalqlar mifologiyasi bo'yicha o'z izlanishlarini olib borishmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar – tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, xronologik tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan.

Tahlil va natijalar. Qadimiy xalqlarning yozma yodgorliklaridan bir qator miflar bizgacha etib kelgan. Jumladan, borliqning yaratilishi (ismlarning, udumlarning, buyumlarning paydo bo'lishi haqidagi etiologik miflar, yoki olamning paydo bo'lishi haqidagi kosmogonik miflar; insonning paydo bo'lishi haqidagi antropogonik miflar - bu har uchala mif turi arxaiik miflarning asosiy mazmunini tashkil qiladi) haqidagi miflar jahon xalqlarning deyarli hammasida bor. Qadimgi turkiy xalqlar orasida mifologiyaning paydo bo'lishi o'ziga xos ko'rinishga ega bo'lgan. Turkiy xalqlar orasidagi kosmogonik mifologiyada tangrichilikning o'rni nihoyatda yuqori [1]. Tangrichilik - turkiy va mo'g'ul xalqlari orasida qadimdan mavjud bo'lgan, osmonga sig'inish bilan bog'liq bo'lgan an'anaviy din. "Tangri" so'zi turkiy tillarda "xudo" ma'nosini anglatadi va bu dinning asosiy xudosi osmonning o'zi yoki osmon xudosi hisoblanadi. Ayrim tadqiqotchilar fikricha, 5-6 ming yillar muqaddam qadimgi Shumerdan Oltoygacha bo'lgan ulkan hududda protooltoy qabilalari yashagan. Qadimgi shumerlar qadimgi turk tiliga yaqin bo'lgan protooltoy tili lahjasida so'zlashganlar. Shu davrda protooltoy xalqlarining eng qadimgi dini, insoniyat tarixidagi ilk dinlardan biri sifatida tangrichilik shakllangan. Tangrichilikda tabiat kuchlariga, ajdodlarga va ruhlarga ham sig'inish mavjud. Tangriga ibodat etish bilan birga ushbu murakkab din animizm, shomonchilik va totemizm unsurlarini ham o'z ichiga oladi. Islom dinining tarqalishi bilan Tangrichilik ta'siri kamaygan bo'lsa-da, ba'zi mintaqalarda (masalan, Oltoy, Tuva hududlarida) hali ham saqlanib qolgan [9]. Qadimda turkiy xalqlar mifologiyasiga ko'ra, olam 3 qavatdan iborat deb tushunilgan.

Birinchi qavat-Ko'k Tangri (Osmon) yuqori olami.

Ikkinchi qavat-Muqaddas Er-Suv o'rta olami.

Uchinchi qavat-Erlikxon hukmron bo'lgan yer osti olami.

Qadimgi turkiy miflarga ko'ra, birinchi qavat – yuqori olamda butun dunyoni boshqarib turuvchi, insonlar umrini belgilovchi, xoqonlarga davlat va kuch beruvchi Ko'k Tangri yashagan. Qadimda turkiylar bu olamni "Uza" ya'ni "Yuqori" deb atashgan [2]. Mahmud Qoshqariyning "Devonu lug'atit-turk" asarida ham qadimgi turkiy xalqlar e'tiqodi va aynan "Tangri" so'zining izohi quyidagicha berilgan. "Tojin tapug'saq, Tangri sefinchsiz" ya'ni, "Kofirlar Ulug' Tangriga ibodat qiladi, lekin ulug' Tangri uning ishidan rozi bo'lmaydi" [3]. Shunday qilib, Tangrining hokimiyati osmon, yer va odamlar taqdiri ustida bo'lgan. U barcha narsaning yaratuvchisi, insonlar taqdirini belgilovchi, urush va tinchlikni boshqaruvchi kuch sifatida talqin qilinadi. Tangrining hokimiyati abadiy va beqiyos deb qaralgan. Tabiat hodisalari hisoblanadigan chaqmoq, yomg'ir, momaqaldiroq kabilar Tangrining g'azabi yoki marhamati sifatida talqin qilingan. Shu bilan birgalikda, qadimgi turkiylar e'tiqodicha, birinchi qavat - Ko'k Tangri yuqori olamida Tangridan tashqari Umay ona va Tangrining boshqa yordamchilari: Mandashira, Moyto'ra, Yapqara, Shalyima, ob-havo boshqaruvchisi - Urker (Hulkar), chaqmoq boshqaruvchisi - Nasigay kabi yordamchi ruhlar ham yashagan. Mazkur miflarda

aytilishicha, yuqori olamda Ko'k Tangrining umr yo'ldoshi, oilaga baraka beruvchi va bolalarni yovuz rulardan asrovchi - Umay ona ham yashagan [2]. U nafaqat homilador ayollar va bolalarni himoya qiluvchi ilohiy kuch, balki urug', avlod, nasl barqarorligining ramzi sifatida e'tirof etilgan. Eng birinchi bo'lib, bu mifologik obrazga Mahmud Qoshqariy quyidagicha izoh bergan edi: "Umayqa tapinsa, o'g'il bo'lur", ma'nosi Umayga sig'ingan o'g'illi bo'ladi. Bundan shuni anglash mumkinki: Umay ona obrazi oiladagi ayollar-u bolalarni turli kulfatlardan himoya qiluvchi, oilaga baraka beruvchi muhim ilohalardan biri bo'lgan.

Qadimgi turkiylar ikkinchi qavat - o'rta dunyoni "Ekin ara", ya'ni osmon va yerning orasi deb atashgan. Ikkinchi qavat - o'rta dunyoning bosh xudosi Muqaddas yer-suv hisoblanadi. U ham turkiylarni asrovchi ilohlardan biri bo'lib, unga o'n yettita ruhlar bo'ysungan. Qudratli Iokan, suv, o'rmon, tog' ruhlari va insonlar shu olamda yashaydi, deb tasavvur qilingan.

Uchinchi qavat - yer osti olamining bosh xudosi Erlikxondir. Uni Ko'k Tangrining inisi ekanligiga ishora qilinadi. U zulmat, kasallik va o'lim bilan bog'liq bo'lib, shuningdek, insonlarning yovuz niyatlari, gunohlari uchun jazoni belgilovchi kuch sifatida ko'riladi. Erlik obrazi negativ personaj bo'lishiga qaramasdan, u ham kosmosning muhim qismi — qarama-qarshilik tamoyilining bir tarafidir. Uning nomini tilga olish, eslash yomonliklarga olib keladi, degan tasavvurlar hozirgacha saqlanib keladi. Shundan bo'lsa kerak, yozma manbalarda uning nomi kam uchraydi. Shunga qaramay, yerosti dunyosida Erlikxonning 9 ta o'g'illari va 2 ta qizi, elchilari va ajal ruhi Bo'rt va boshqa yomon ruhlar ham bo'lganligi haqida afsonalar yetib kelgan. Miflarda ular antropomorf, temir boshli maxluqlar sifatida namoyon bo'lgan. Shunday qilib, qadimgi turklar butun olam va borliqni shu tarzda tasavvur qilib, o'zlarining mana shunday afsonaviy miflarini yaratgan.

Tangrichilikda tangriga ibodat etish bilan birga ushbu murakkab din animizm, shomonchilik va totemizm unsurlarini ham o'z ichiga oladi. Dinning ilk shakllari orasida shamanizm alohida o'rin egallaydi. Shamanizm, ibtidoiy urug'doshlik dinlaridan farqli o'laroq, qabila uyushmalari birlashayotgan davrda shakllanib, ijtimoiy ongning urug'-qabila shakllari bilan bog'lanadi [4]. Bunda shamanizm qabila tuzumi bilan bog'liqligi darajasining ortishiga muvofiq ravishda, qabila tuzumi to'liq hukmronlik qilgan davrning dini sifatida asosiy o'rin egallaydi. Dunyo dinlarining, chunonchi, xristianlikning tarqalish sharoitida shamanlar shamanizmni missioner va ma'muriyat hujumlaridan himoya qilish maqsadida, shamanizm din emas, bu xalq tibbiyoti, emchilik va hokazolar kabi xususiy harakatdir, deb uqtirishgan. Bunda shamanizmning ma'naviy jihatlarini yashirgan holda, uning faqat bir funksiyasi – kasallik sababi bo'lgan tana va ruhdan iblisni quvgan holda kasallarni "davolash" funksiyasini qo'llashga harakat qilishgan. Lekin ayrim tanqidiy yondashuvchilar fikricha, ular shamanlarni yolg'onchi va firibgarlar deb bilishgan. Hozirgi kunda shamanizmga umuman din taraqqiyotining alohida bosqichi sifatida qaraladi. Chunki dunyoning barcha xalqlari urug'-qabila jamiyati shakllanish va yemirilish bosqichida shamanizmdan u yoki bu holatda o'tadilar. Umuman shamanizmni diniy tizim sifatida o'rganishda fan tadqiqotining boshlang'ich bosqichidadir. Bu shamanizm va uning amaliyoti har bir alohida holatda hammaga ma'qul bo'lgan hodisalarni o'z ichiga olganligi bilan bog'liq.

Kamlash, raqsga tushish, ashula aytish va zikr tushish – ruhlarni chaqirish, doira chalish, temir taqinchoqlar jarangi, sun'iy ravishda yoki yaxshilab mashq qilingan holda jazavaga tushish va hokazolar shamanlar iqtidoriga qarab individual elementlar bilan to'ldiriladi [5].

Markaziy Osiyo xalqlarida ham boshqa xalqlardagi singari shamanizm reliktlari turli ko'rinishlarda kuzatiladi. Masalan, "Chilla yosin" davolash marosimi birinchi navbatda Qur'ondagi "Yosin" surasini qirq marta o'qib, kasalni tol navdalari bilan "urish" bilan amalga oshiriladi. Bunda tol novdalari qirg'at bo'lishi kerak. Shamanlik marosimining yana bir turi, bu - "kinna", ya'ni bemor tanasidan kasalni haydashning alohida usulidir. Shamanizm elementlari sifatida kuyovnavkarlik bilan bog'liq bo'lgan odatni - kuyovning kelinnikiga jo'ralari bilan jo'raboshi boshchiligidagi qiyqiriqlar bilan bazmga borish - marosimini ko'rsatib o'tish mumkin. Jo'raboshi qo'lida tol navdalarini ushlagan holda navkarlar boshi uzra yelpiydi, bunga javoban navkarlar jo'r bo'lishib qiyqirishadi. Bularning barchasi yovuz ruhlarni kuyovdan haydashga qaratilgan bo'lib, shamanistik harakterga ega. Shunday qilib, shamanizm nafaqat turkiy xalqlar, balki butun dunyo xalqlari hayotida mavjud bo'lgan ilk diniy ta'limot sifatida uning yashovchanligini hozirgi kunda ham ko'rishimiz mumkin.

Bundan tashqari, turk mifologiyasi hayvonot olami bilan ham bevosita bog'liq. Turk mifologiyasida hayvonlar, qushlar katta ramziy ahamiyat kasb etgan. Masalan, bo'ri, burgut, yo'lbars, ot - bularning barchasi qahramonlik, kuch, ozodlik, sharaf, sadoqat kabi fazilatlarini ifodalagan. Jumladan, bo'ri obraziga juda katta e'tibor qaratilgan: chunki bo'ri turkiy xalqlar totemi hisoblanib, u bilan bog'liq afsonaviy "Bo'ridan tarqalgan urug'" rivoyati bizgacha yetib kelgan [6]. Ushbu rivoyatlarda bo'ri turkiy qabilalarning ajdodiy onasi yoki homiysi sifatida tasvirlanadi. Bu turkiy qabilalarning o'z nasl-nasabini muqaddas hayvon — bo'ridan boshlab, ilohiy asosda ko'rishlariga dalildir. Shu nuqtayi nazardan, qadimgi turkiylar orasida hayvonlar va qushlarning katta ramziy ahamiyat kasb etishini "Irq bitigi" misolida ham ko'rishimiz mumkin. Mazkur tarixiy manba tush ko'rish va uning ta'birini bayon qilish usulida yozilgan asar bo'lib, eramizning IX asrida yozilgan, qadimgi turk davriga oid, qog'ozga yozilgan yakka-yu yagona yodgorlikdir. Ushbu tarixiy manba qadimgi turkiy xalqlar hayotining barcha tomonlarini-madaniy-maishiy turmushi, odamlarning o'zaro axloqiy munosabatlarini o'zida aks ettirgan. Asarda bunday axloqiy prinsiplar ko'pincha hayvonlar va qushlar obrazi orqali gavdalantriladi. Chunki o'sha qush va hayvonlar (ilon, bo'ri, burgut, yo'lbars, ot va hokazo) turkiylarda muqaddas sanalgan. Irq bitigida folklor

motivlari ham, ertakka xos syujetlarni ham, kosmogonik va kalendar mifni ham, totemistik mifni ham, tabiatning jonli tasvirini ham kuzatish mumkin [7].

Turkiy xalqlar mifologiyasida mana shunday mifologik obrazlar bilan birga yada toshi kabi timsollar ham mavjud. Yada toshi timsoli va yadachilik aqidasi qadimgi turkiy xalqlar adabiyoti, madaniyati va folklorining muhim ajralmas qismi hisoblanadi. Turk mifologiyasida "Yada toshi" (yoki "Yada tasi") - tabiiy hodisalarga, ayniqsa yomg'ir, qor, bo'ron va do'lga ta'sir ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lgan sehrli tosh sifatida tanilgan. Bu tosh qadimdan Turkiy xalqlar orasida tabiat hodisalariga aralashish va ularga ta'sir ko'rsatish ramzi sifatida qabul qilingan. Yada toshining afsonaviy xususiyati shundaki, yadachi bu tosh orqali mahsus amallarni bajarib, istalgan paytda yomg'ir, do'l, jala, shamol, bo'ron, qyun, chaqira olish qudratiga ega bo'lgan. Mahmud Qoshqariy "Devonu lug'atit-turk" asarida ushbu toshni "yat" shaklida ifodalab, bu tosh bilan afsun qiladigan insonlarni "yatchi" deb atalganini qayd etgan. Yada toshi turli turkiy qabilalar va xalqlar shevasida turlicha nomlarda atalgani bilan ularning barchasi "yad" (sehr) so'zidan kelib chiqqan. Shunday qilib, turk mifologiyasida yada toshining o'rni va ahamiyati juda yuqori bo'lganligini ko'rishimiz mumkin [8].

Turk mifologiyasi o'zining qadimiy ildizlari va boy tasavvurlari bilan boshqa ko'plab madaniyatlarga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Ayniqsa, Eron, Xitoy, Hind va Mo'g'ul madaniyatlari [9] bilan bo'lgan aloqalar natijasida o'zaro o'zgarishlar, g'oyaviy almashinuvlar yuz bergan. Eron mifologiyasida uchraydigan ayrim obrazlar (masalan, Anaxita va Umay, Axriman va Erlik) o'rtnasidagi o'xshashliklar bu ta'sirlarni ko'rsatadi. Xuddi shuningdek, Mo'g'ul shamanistik qarashlari ham turkiy mifologiyaga yaqin bo'lib, ularning tangri tushunchasi ham o'xshashdir. Shuningdek, buddaviylik obrazida Yamu, tibet-lamaistik obrazlar Choydjal va Shindje kabi obrazlarning xususiyatlari Erlikxon obrazida mujassamlashgan. Bundan shuni anglash mumkinki, qadimdan turk mifologiyasi boshqa xalqlar va diniy ta'limotlarga o'z ta'sirini o'tkazgan.

Xulosa va takliflar. Turk mifologiyasi – bu o'tmishdan meros bo'lib qolgan muqaddas ma'naviy xazina bo'lib, unda xalqning dunyoqarashi, qadriyatlar, tabiat bilan munosabati va tarixiy xotirasi mujassam. Uning ildizlari juda chuqur bo'lib, shamanizm, totemizm, animizm va osmon ilohiga sig'inish kabi e'tiqod shakllari asosida shakllangan. Bugungi globalizatsiya davrida bu kabi qadimiy madaniy qatlamlarni o'rganish va yosh avlodga yetkazish milliy o'zlikni saqlash va mustahkamlashning muhim vositasidir.

ADABIYOTLAR

1. Jo'raqo'ziyev N.I. Qadimgi turkiy manbalarda mif va uning izlari. - Buxoro, 2012.
2. N.I. Jo'raqo'ziyev. Qadimgi turkiy yozma yodgorliklarda kosmogonik mifologiya. PhD dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent, 2018
3. Mahmud Qoshg'ariy. "Devonu lug'atit-turk". – Toshkent: "Fan" nashriyoti, 1963.
4. R. Bascom "The Shamanistic Origin of Turkish Mythology" maqolasi. Journal of Near Eastern Studies, Vol. 24,
5. P.B. Golden. Türk Halkları Tarihine Giriş. Ankara, Turkey: KaraM Publishing House, 2002.
6. Tekin, T. Orhun Yazıtları. Türk Tarih Kurumu Yayınları. (1993)
7. Irq bitigi (Ta'birnoma)
8. Bahaeddin O'gel. Turk mitolojisi. I cilt. Ankara, Turk tarih kurumu, 2010.
9. <https://www.wikipedia.org> internet sayti.



UDK: 902:2-186

Mahkamoy RAHMONBERDIYEVA,
Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: rahmonberdiyevamahkamoy@gmail.com

TerDU professori Sh.Shaydullayev taqrizi asosida

ARCHAEOLOGICAL MONUMENTS REPRESENTING THE GOD MITRA IN MATERIAL SOURCES

Annotation

This article is dedicated to the sanctuaries of the Mithra cult in the religious beliefs of the ancient world. The geographical region of Central Asia has been chosen as the area of study. The research analyzes the results of archaeological excavations and the scientific perspectives of scholars who have conducted studies on this topic, including Mikhail Mikhailovich Dyakonov, Elena Efimovna Kuzmina, Edvard Vasilevich Rtveladze, Nikolay Borisovich Vinogradov, Nora Elizabeth Mary Boyce, Viktor Ivanovich Sarianidi, Akhmadali Asqarovich Asqarov, Temur Shirinovich Shirinov, and Alisher Shopulatovich Shaydullaev. The study focuses on the analysis of discovered material artifacts, such as monumental temples and petroglyphs, and presents relevant conclusions.

Key words: Mitra, Jarkoton, Bronze Age, religious beliefs, northern Afghanistan, ancient period, Avesta, Eastern scholars.

АРХЕОЛОГИЧЕСКИЕ ПАМЯТНИКИ, ОТОБРАЖАЮЩИЕ БОГА МИТРУ В МАТЕРИАЛЬНЫХ ИСТОЧНИКАХ

Аннотация

Данной статье рассматриваются святилища культа Митры в религиозных представлениях древнего мира. В качестве исследуемого региона выбрана географическая территория Средней Азии. В статье проанализированы результаты археологических раскопок и научные взгляды исследователей, занимавшихся данной темой, включая Михаила Михайловича Дьяконова, Елену Ефимовну Кузьмину, Эдварда Васильевича Ртвеладзе, Николая Борисовича Виноградова, Нору Элизабет Мэри Бойс, Виктора Ивановича Сарияниди, Ахмадали Аскаровича Аскарова, Темура Шириновича Ширинова и Алишера Шопулатовича Шайдуллаева. Основное внимание уделено анализу найденных материальных артефактов, таких как монументальные храмы и петроглифы, а также сделаны соответствующие выводы.

Ключевые слова: Митра, Джаркутан, бронзовый век, религиозные представления, северный Афганистан, древний период, Авеста, восточные учёные.

MODDIY MANBALARIDA MITRA XUDOSI IFODALANGAN ARXEOLOGIYA YODGORLIKLARI

Annotatsiya

Ushbu maqola qadimgi dunyo diniiy qarashlarida mavjud Mitra kulti manzilgohlariga bag'ishlangan. O'rganilgan hudud sifatida O'rta Osiyo geografik hududi tanlab olingan. Tadqiq qilinayotgan mavzu yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borgan olimlar tarkibiga: Dyakonov Mixail Mixaylovich, Kuzmina Elena Efimovna, Rtveladze Edvard Vasilevich, Vinogradov Nikolay Borisovich, Nora Elizabet Meri Boys, Sarianidi Viktor Ivanovich, Axmadali Asqarovich Asqarov, Temur Shirinovich Shirinov va Shaydullayev Alisher Shopulatovichlarning arxelogik qazishmalar natijasida topilgan moddiy ashyolar (monumental ibodatxonalar va petrogliflar) tahlili va ilmiy qarashlari o'rganilib xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: Mitra, Jarqo'ton, bronza davri, diniiy qarashlar, shimoliy Afg'oniston, qadimgi davr, Avesto, sharq olimlari.

Kirish. Insoniyat paydo bo'lishi bilan, inson hayotida dinning ilk shakllari, uning hozirgi zamon yakkaxudolik va ko'pxudolikka asoslangan turlari hayotining ajralmas bo'lagi sifatida rivojlanib bormoqda. Din insoniyat hayotida qay darajada rol o'ynaydi.

Tarixiy moddiy topilmalar topilishi bilan eng qadimgi davrdan, hozirgi kunga qadar tarixiy jarayonlarni qayta tiklash, o'rganish va uning mazmun mohiyatini kelajak avlodga yetkazib berish tarixchilar oldida turgan asosiy vazifalardan hisoblanadi.

Mitra ilohi haqida to'xtalib o'tadigan bo'lsak, qadimgi dunyo tarixida Yevropa va Osiyo mamlakatlari xalqlari hayotida yorug'lik va quyosh ilohi sifatida ta'rif berilgan.

Ariylarning e'tiqodlari o'zlarining muqaddas matnlari – Vedalar nomi bilan Vedizm deb ataladi.

Vedalarga quyidagilar kiradi:

Rig Veda – “Madhiyalar vedasi”;

Yajurveda – “Qurbonlik formulalari vedasi”;

Samaveda – “Qo'shiqlar vedasi”;

Atharva Veda – “Ko'ruvchilar vedasi”.

Ushbu asarni yaratgan xalqlar tarixida shunga o'xshash asarlar ham mavjud hisoblanadi. Bunga misol tariqasida Avestoni keltirib o'tishimiz mumkin.

Avesto eski eron (paxlaviy) tilida “Qat'iy belgilangan qonunlar majmui” degan manoni anglatadi. Avesto 21 naskdan iborat bo'lib hozirgi kunda uning 4 naski saqlanib qolgan[1, 269-321].

Yasna – “muqaddas amallarni bajarmoq”. Juda xilma-xil tarkibga ega 72 bobdan iborat.

Visprad – “ibodat va murojaatlar”. Yasnaga qo'shimcha tarzda 24 bobdan iborat.

Videvdad – “Devalardan voz kechish qonuni”. 22 bobdan iborat bo'lib, poklik qonunlari va ifloslanishga qarshi kurashga bag'ishlangan.

Yasht – “hurmat qilmoq”. Ahuramazdaga bag'ishlangan bo'lib, 22 ta madhiyani o'z ichiga olgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Zamonaviy olimlar V.V. Struye, Ye.Ye. Bertels. M. M. Dyakonov, I. M. Dyakonov, V. I. Abayev. I. Aliyev, V. G. Gasyurov, E. A. Grantovskiy, X. Nyuberg. V. Videngren, R. Fray, Ye.Ye. Kuzmina, V.I. Sarianidi, A.A. Asqarov, Sh.B. Shaydullayev, A.Sh. Shaydullayev va boshqalar olimlar tomonidan fundamental tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Bu asarlar bilan tanishib chiqib, Mitra ilohiga tarif va olqishlar aytilgan. Ammo ilohaga oid manzilgohlar haqida yetarlicha ma'lumotlarni tarixchi olimlarning ilmiy arxeologik izlanishlari natijasida topilgan moddiy madaniyat ashyolariga tayanamiz.

Tadqiqot metodologiyasi. Qadimgi dunyo tarixida Mitra ilohiga oid manzilgohlarni o'rganish uchun avvalo, ushbu diniy kultning sig'inuvchilarini o'rganish maqsadga muvofiq sanaladi. Qadimgi Sharq olamida Mitra ilohiga sig'ingan xalqlarni yodga olsak, birinchi navbatda Shimoliy Qozog'iston hududlarida istiqomat qilgan Andronova madaniyati asoschilari bo'lgan Hind-Eron xalqlari ko'zga tashlanadi. Bu xalqlar tarixda Ariylar nomi bilan mashhur bo'lib (so'zma-so'z tarjima qilinganda “olijanob”, “zodagon”) ko'chmanchi va chorvadorlar sanaladi, ular bronza qurollardan foydalangan holda aravalarda jang qilishgan.

Ammo Hind-Eron xalqlarining istiqomat qilgan joylashuv hududi haqida olimlar o'rtasida haligacha aniq bir to'xtamga kelinmagan. Faqat ehtimolli nazariyalar mavjud. Tarixchi olimlarning keyingi yillardagi tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki Mitraga sig'ingan aholi joylashuv (lokalizatsiya)lari va ko'chish (migratsiya)lari quydagicha o'rin oldi.

Mitra ilohi bilan bog'liq manzilgohlarni ushbu hududlardan qidirish maqsadga muvofiq sanaladi[2, 60-64].

Miloddan avvalgi II ming yillikning o'rtalarida Ariylarning Hind-evropa qabilalari Andronovo madaniyati hududini (“Kaspiy, Orol va Afg'oniston o'rtasidagi uchburchak”) tark etib, Hindistonga bostirib kirishdi va uni zabt etishdi va qora tanli dravidlar tomonidan yaratilgan qadimgi Xarappa sivilizatsiyasidan qolgan narsalarni yo'q qilishadi. Ushbu urushlarning aks-sadolari ko'plab Vedik madhiyalari va hind dostonlarining asosini tashkil etdi[3, 166-167].

Tadqiqotimiz hududi O'rta Osiyo (O'rta Osiyo yirik geosistema sifatida (maydoni 3300 ming km²chamasida) Rossiyaning janubiy qismi, Qozog'istonning kattagina qismini, O'zbekiston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, qisman Xitoy hududlari hamda Afg'oniston va Eronning Amudaryo havzasiga qarashli qismini o'z ichiga oladi)[4] geografik nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda Hindistonda joylashgan Mitra ilohiga oid manzilgohlar qo'shimcha ma'lumot sanaladi. Ayni damda bizning tadqiqotimizga Rossiyaning janubi, Qozog'iston, O'zbekiston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, qisman Xitoy hududlari hamda Afg'oniston va Eron kabi mamlakat hududlari kiradi.

Tahlil va natijalar. Rossiyaning Chelyabinsk viloyatidagi Bolshaya Karaganka va Utyaganka daryolari vodiylarida joylashgan Arkaim – miloddan avvalgi 20 – 16-asrlarga oid turar-joy, qabriston va aholi punktlaridan iborat majmua.

Majmua 1971-yilda ochilgan. Tadqiqotlar 1980-1990 yillarda G. B. Zdanovich, S. G. Botalov[5], S. A. Grigoryev, D. G. Zdanovich tomonidan olib borilgan.

Arkaim qadimgi Ariylar sivilizatsiyasining poytaxti sifatida talqin etgan. Ilmiy hamjamiyatning bir qismi tomonidan ma'qullandi va Arkaimning mifologiyasi qarshiliklarga duch kelmasdan katta nisbatlarga ega bo'ldi[6].

Arkaim qal'asiga o'xshash bizning hududimizda joylashgan Qo'yqirilgan qal'a – qadimgi otashparastlar ibodatxonasi va qishloq xarobasi (miloddan avvalgi 4 – milodiy 4-asr). Hozirgi Qoraqalpog'iston Respublikasi To'rtko'l shahridan 22 km shim.-sharqda. Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi (rahbari S.P. Tolstov) ro'yhatga olgan (1938-yil). 1951 – 1957-yillardagi qazishmalar natijasida qadimgi xorazmliklarning maqbara-qasri va miloddan avvalgi 4 – 3-asrlarga oid doira shaklidagi ikki qavatli markaziy ibodatxona binosi (diametri 44,4 m, bal. 9,5 m ga yaqin) qazib o'rganilgan. O'rganish natijasida Mitra ilohiga sig'inish mavjud bo'lganligini va marosimlar o'tkazilganligi to'g'risida tadqiqotchilar tomonidan bayon etilgan. Ammo qal'aning qurilish arxitekturasini Mitra ilohining nomi bilan bog'liqligi qal'alarni tashqi tomondan kuzatish orqali anglasa bo'ladi. Mitra qadimgi dunyo tarixida quyosh xudosi sanalganligi uchun, uning obrazi aylana nur taratayotgan inson va quyosh siymolarida tasvirlanganligi barchamizga ayon.

Shu sababda Arkaim qal'asi, Qo'yqirilgan qal'a – qadimgi otashparastlar ibodatxonasi va Dashli-3 ibodatxonalarining qurilish arxitekturasini aylana va tuzilishi jihatidan bir-biriga yaqinligini inobatga olsak, Mitra obraziga monand qilib qurilganligiga amin bo'linadi.

Dashli-3 ibodatxonasi miloddan avvalgi 17-asrga oid aholi punkti bilan qurilgan dumaloq bino alohida e'tiborga loyiqdir. Binoning aylana shaklda qurilishi bo'yicha arxeologlar o'rtasida konsepsiya yo'q. Ushbu yodgorlikning birinchi tadqiqotchisi V.I.Sarianidi, bu bir vaqtning o'zida mudofaa funktsiyalarini bajaruvchi otashparastlar ibodatxonasi degan xulosaga keldi[7].

Dashli-3 ibodatxona tasviri Ye.Ye.Kuzmina quyosh boshi tasvirlarini Mitra bilan bog'ladi. Bronza davri petrogliflarida mavjud bu suratlar Qirg'iziston Respublikasi Jalolobod viloyati Toguz-Torouzsom tumani milliy bog'ida joylashgan Saymali-tosh suratlari va Qozog'iston Respublikasi Almata shahridan 120 km shimolda Ili daryosi bo'yida joylashgan Tamg'ali-tosh suratlari qurol bilan raqsga tushgan figuralar tasvirlari(8-rasm) bilan birga keladi. Olimaning ilmiy qarashlarida bu hudud aholisi asosan Mitraga e'tiqod qilishi bilan, bevosita petrogliflarda o'z tasdig'ini topgan deydi[8, 261].

Arkaim qal'asi va Qo'yqirilgan qal'a ham aylana va ichki joylashuv ham bir-biriga yaqin hisoblanadi. Ikki manzilgohning qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki ikki qal'a ham bitta xalq tomonidan bunyod etilgan degan taxminiy xulosalar mavjud.

Bronza davri Sopoli madaniyati va unga zamondosh bo'lgan Dashtli (Shimoliy Afg'oniston), Nomozgoh (Janubiy Turkmaniston, Murg'ob) madaniyatlari bilan birga Oks sivilizatsiyasi nomi bilan Qadimgi dunyo tarixi faniga kirdi va Qadimgi Sharq sivilizatsiyasining Mesopotamiya, Qadimgi Hindiston,

Xitoy, Misrdan keyingi, yangi - beshinchi o'chog'i sifatida e'tirof etilmoqda [9].

Tarixchi olim A.Sh.Shaydullayev tadqiqotlarida Oks sivilizatsiyasi bo'yicha o'zining ilmiy qarashlarini bildirib, shunday xulosa qilgan: Bronza davriga oid Jarqo'ton[10], Dashtli[11], Togolok, Gonur yodgorliklarida markazlashgan, monumental ibodatxonalar mavjudligi va topilmalar bu manzilgohlarda Mitra kultiga sig'inganligini takidlaydi[12].

Eronning shimolida, janubiy qirg'oqqa yaqin joylashgan Elburz tog'i haqidagi Eron afsonasida keltirilishicha Kaspiy dengizi qirg'oqlari va qadimgi hindlar va eroniylar yorqin Mitra xudosi haqida topilmalar mavjud[13].

Markaziy Osiyoning shimoliy rayonlaridan kelgan boshqa Ariylar Tojikiston orqali ular Hindistonning shimoli-g'arbidagi tog' dovonlari bo'ylab alohida guruhlariga bo'linib Gomali, Svat va Gandhara yodgorliklarida qo'nim topgan. Ularning qabristonlari ham mavjud bo'lib, manzilgohlarda otlarning dafn etilgan joylari va ular qoyalarga o'yib qo'ygan Mitra boshqarib borayotgan ot aravalar tasvirlari uchraydi[14]. Bundan tashqari Eron shohlarining buyuk ilohi sifatida ham qoyalarga ishlangan suratlari ham saqlanib qolgan.

Taniqli olim E.V.Rtveladze tomonidan o'rganilgan numizmatikaga oid Yunon-Baqtriya davlatiga oid tangalarda ham hukumdor zarb etgan tangalarda Mitra obrazi tasvirlangan.

Xulosa va takliflar. Mitraizm bu quyosh va yorug'lik xudosi sifatida alohida yakkaxudolikka asoslangan dinning ko'rinishi shaklida paydo bo'lgan degan qarashlar ham fanda mavjud. O'rta Osiyoda uchraydigan topilmalar tahlili shuni ko'rsatadiki, Mitra podsholarga madad bergan yo'lboshi sifatida tasvirlanadi. Mitraizmga sig'inadigan aholi hudud jihatidan ham ulkanligini va qadimgi dunyoning sivilizatsiya markazlarini tashkil etishi, uning qudratidan darak beradi. Qolaversa Mitraga sig'ingan xalqlar manzilgohlari topib o'rganilishi natijasida ular bunyod etgan binolar qurilishi bir-biriga yaqinligi bilan ajralib turadi.

Mitra ilohini o'rganish borasida jahon arxeologlarini yurtimiz hududiga jalb qilish orqali, hamkorlikda Mitra ilohiga oid manzilgohlarni ochish dolzarb sanaladi.

O'rta Osiyo mamlakatlarida Mitra ilohiga oid topilmalarni bir-biriga qiyosiy tahlil qilish orqali katta yutuqlarga erishsa bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Абу Рейкхан Бируни Памятники минувших поколений / Пер. и прим. М. А. Салье, Избранный произведения, Том II, Ташкент, ФАН, 1957.; Авеста в русских переводах (1861–1996) / Сост., общ. ред., примеч. И.В. Рака. 2-е изд. СПб., 1998. С. 269–321.
2. Rahmonberdiyeva M.J. O'RTA OSIYO HUDUDIDA MITRA XUDOSIGA BOG'LIQ ILMIY TADQIQOTLAR. (2024). TAMADDUN NURI JURNALI, 12(63), 60-64. <https://doi.org/10.69691/h55ay148>
3. Грантовский Э. А. Ранняя история иранских племен Передней Азии. 2-е изд. М., 2007. С. 347-349, ср. также комм. в: Авеста. «Закон против дэвов». СПб, 2008. С. 166-167.
4. Baratov P., Mamatqulov M., Rafiqov A., O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi, T., 2002.
5. Боталов. С. Г. Археологические исследования культурного слоя XVIII – XIX вв. г. Челябинска // Челябинск неизвестный: краевед. сб. / сост. В. С. Боже. – Челябинск, 1998. – Вып. 2. – С. 7-14.
6. Н. Б. Виноградов, С. А. Григорьев, А. В. Епимахов; Челяб. гос. ун-т; Ист.-культур. заповедник обл. значения «Аркаим». – Челябинск: Изд-во Челяб. гос. ун-та, 2010. – 4 1.214 с.
7. Сарианиди В. И. Маргуш. Древневосточное царство в старой дельте реки Мургаб. Ашгабат, 2002. 279 с.; Sarianidi V.I. Seal-Amulets of the Murgab Style / / The Bronze Age Civilization of Central Asia. Recent Soviet Discoveries. Ed. by Kohl P. L. New York, 1981, P. 221—225; Сарианиди Виктор . Задолго до Заратустры. М., 2010. 168 с.
8. Е.Е. Кузьмина. Откуда пришли индоарии. Материальная культура племён андроновской общности и происхождение индоиранцев. М.: «Восточная литература». 1994.Е.Е. Кузьмина Откуда пришли индоарии. Материальная культура племён андроновской общности и происхождение индоиранцев. // М.: «Восточная литература». 1994. 464 с. ISBN 5-02-017473. 261 с.
9. У истоков цивилизации. Сборник статей к 75-летию В.И. Сарианиди.- М., 2004. - С. 466; Масон В.М. Адтындепе. - Л., 1981. С. 91, 130- 131; Аскарлов А.А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана - Ташкент, 1977. - С. 248. Филинович М.И. Интерпатсия в формировании древних цивилизаций на территории Узбекистана (эпоха бронзы и раннего железа) // International Journal of Central Asian Studies. Volume 8. 2003. - С. 22-32.
10. Аскарлов А.А., Абдуллаев Б.Н. Джаркутан (к проблеме протогородской цивилизации на юге Узбекистана). Ташкент, 1983 г.
11. Сарианиди В.И. Древние земледельцы Афганистана. – С. 151-155.
12. А.Ш. Шайдуллаев. Ўрта Осиё халқлари динлари тарихида Митра образи. ўзбекистон археологияси мустақиллик йилларида: ютуқлар ва истикболлар. Ўзбекистон Республикаси Мустақиллигининг 25 йиллигига бағишланган халқаро илмий КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ Самарканд ш., 15-16 сентябрь 2016 й. 63-65 бетлар.
13. Деххода А.А. Словарь персидского языка. – Тегеран: Тегеран. ун-т, 1993. – Т. 2. –3068 с. (на перс. яз.)
14. Дьяконов М. М. Очерк истории древнего Ирана. М., 1961.
15. Rahmonberdiyeva M.J. Sharq olimlarining tadqiqotlarida Mitra kultining ifodalanishi. Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal.-№7/3 (116), Xorazm Ma'mun akademiyasi, 2024 y. – 175 b. – Bosma nashrning elektron varianti - <http://mamun.uz/uz/page/56>. 65-68 betlar.



УДК 316.61

Tamara RO'ZIYEVA,
NavDU Tarix kafedrası o'qituvchisi
E-mail: tamararuzieva07@gmail.com

Dots. F.Fayziyeva taqrizi ostida

MIRZO SIROJIDDIN HAKIMNING BUXORODAGI IJTIMOIIY JARAYONLARDA TUTGAN O'RNI VA ILMIY FAOLIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada muallif tomonidan jadidchilik harakatining yortqin namoyondalaridan biri bo'lgan Mirzo Sirojiddin Hakimning ilmiy faoliyati, shuningdek, taraqqiyotga erishish uchun maorif sohasini rivojlantirish va isloh qilish yo'lidagi say-harakatlari hamda "Tuhafiy ahli Buxoro" asari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: jadidchilik harakati, taraqqiyparvar, "Yosh Buxoroliklar" harakati, "Oyna" jurnali, "Tuhafi ahli Buxoro".

РОЛЬ МИРЗО СИРОДЖИДДИНА ХАКИМА В СОЦИАЛЬНЫХ ПРОЦЕССАХ В БУХАРЕ И НАУЧНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ

Аннотация

В данной статье автор представляет информацию о научной деятельности Мирзо Сироджиддина Хакима, одного из ярчайших представителей джадидского движения, а также о его усилиях по развитию и реформированию сферы образования с целью достижения прогресса и его труде «Тухафий ахли Бухара».

Ключевые слова: Джадидское движение, прогрессивное, движение «Ёш бухороликлар», журнал «Ойна», «Тухафи ахл Бухара».

THE ROLE OF MIRZO SIROJIDDIN KHAKIM IN SOCIAL PROCESSES IN BUKHARA AND SCIENTIFIC ACTIVITIES

Annotation

In this article, the author presents information about the scientific activities of Mirzo Sirojiddin Hakim, one of the most prominent representatives of the Jadid movement, as well as his efforts to develop and reform the education sector in order to achieve progress and his work "Tukhafiya Ahl Bukhara".

Key words: Jadid movement, progressive, "Yosh Buxoroliklar" movement, "Oina" magazine, Tuhafi Ahl Bukhara.

Kirish. Mustaqillik yillarida ilm – fan, ta'lim sohasida ilmiy tadqiqot ishlari bilan bir qatorda istiqloq davri mohiyatini aks ettiradigan asarlar yaratildi. Turkiston ozodligi, mustaqilligi uchun kurashgan, begunoh qurbon bo'lgan ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirish muqaddas burchimizdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Biz ajdodlarimizning yorqin xotirasini asrab – avaylab, qalbimizda, yuragimizda saqlaymiz"[1]. Zero jadidlar haqida gap ketganda ular o'sha davrning ilg'or taraqqiyparvar kuchlari, birinchi navbatda, ziyolilar mahalliy aholining umumjahon taraqqiyotidan orqada qolayotganligini his etgan, jamiyatni isloh qilish zaruriyatini tushunib yetgan shaxslar edilar.

Turkiston tarixining g'oyat tahlilali va murakkab davrida XIX asr oxiri XX asr boshlarida o'zining ma'rifatparvarlik faoliyati va fidokorona xizmatlari bilan jasorat ko'rsatgan jadid namoyondalari hayot yo'li madaniy-ma'rifiy, ilmiy, adabiy faoliyatini o'rganish, tadqiq qilish, tarix fani va tarixchi olimlar oldidagi muhim vazifasidir.

Kishilik jamiyatidagi komil inson tarbiyasi doimo rivojlanishning muhim omillaridan biri bo'lib kelgan. Zero taraqqiyotning tamal toshi ham mamlakatning qudratli millatni buyuk qiladigan ham ta'lim-tarbiyadir.

Shu bois, XX asr boshlarida jadidchilik harakatining yorqin namoyondalari bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydulla Xo'jayev, Abdurauf Fitrat, Isoqhon Ibrat, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Ismoil Zohiriy, Xoji Muyin, Sadridin Ayniy, Fayzulla Xo'jayev, Mirzo Sirojiddin Hakim kabi ko'plab taraqqiyparvar shaxslar jaholatga qarshi ilm, ma'rifat va talim, tarbiyani rivojlantirish orqali kurashish inson ongi va tafakkurini o'zgartirish mustamlaka bo'lgan Turkistonni mustaqil hamda dunyoning taraqqiy etgan mamlakatlari safida ko'rish yo'lida hatto jonlari fido qilgan. Afsuski, aksariyat ma'rifatparvar va millatparvarlarning hayoti va faoliyati ilmiy merosi, yetarli darajada o'rganilmagan.

Millat istiqbolini o'ylovchi taraqqiyparvar kuchlar xalqning deyarli barcha tabaqalari-hunarmand, dehqon, savdogar, mulkdor, ulamolar orasida mavjud edi. Ziyolilar dastlab chorizmga qarshi kurashni xalqni asriy qoloqlikdan uyg'otish – siyosiy-ma'rifiy jabhadan boshlashga qaror qildilar. Jadidchilik harakati ana shunday tarixiy bir sharoitda Turkiston mintaqasida rivojlanish uchun o'ziga qulay zamin topdi. Jadidlar orasidan yetuk olimlar, sanoat va ziroatchilik sohaslarining zamonaviy bilimdon mutaxassisleri, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod va o'z vatanlarini mustaqil ko'rishni orzu qildilar va shu yo'lda kurashdilar[3].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jadid adabiyotini yangi mezonlarda o'rganish murakkab va ziddiyatli bir davrda – sho'rolar zamonida boshlangan. G'ulom Karimov, Begali Qosimov, Naim Karimov, Boybo'ta Do'stqorayev, Sherali Turdiyev, prof. Ulug'bek Dolimov singari olimlarimiz jadidchilikni o'rganish bo'yicha salmoqli ishlar qilishgan, shuningdek, ilmiy tadqiqotlaridan ma'lumotlar olishimiz mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola tarixiy-taqqoslash, qiyosiy-tahlil, tizimlashtirish, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan bo'lib, bugungi kunda jadidchilik harakati namoyandalari faoliyatini o'rganish, ayniqsa Mirzo Sirojiddin Hakimning o'rni beqiyos ekanligi, o'lka ma'naviy-ma'rifiy soha taraqqiyotiga, milliy madaniyatning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan namoyandalardan biri sifatida ochib berilgan.

Tahlil va natijalar. XX asr boshlarida Turkiston mintaqasida jumladan, Buxoroda jadidchilik harakati avj oldi. Jadidchilik harakatining mashhur namoyondalaridan biri “Yosh Buxoroliklar” harakati a'zosi o'z davrining ko'zga ko'ringan vakillaridan biri Mirzo Sirojiddin Hakim edi.

Mirzo Sirojiddin Hakim 1877 yil 23-oktabrda Ismoil Otaliq mahallasida sarrof va savdogar oilasida dunyoga keldi (Hozirgi Anbar Mehtar mahallasida). Uning otasi Hoji Abdurauf Mirzohurd juda boy va Buxoroda juda taniqli shaxs edi. U yolg'iz o'g'lini ta'lim olishini, faoliyatini davom ettirishini orzu qilardi. Shu bois, 5 yoshidanoq o'g'lini ilm fanga, san'atga yunaldirishga alohida e'tibor bergan. Yosh Sirojiddin Hakim maktab va madrasa ilmlarini o'rgangach ustozlari qo'lida axloq, tarix, adabiyot, arifmetika, geografiya, matematika, fors, turk, arab, rus va fransuz tillarini puxta o'rganadi. Shu bilan u she'riyatga mehr qo'ydi. Uning ilk she'rlari Buxoro adabiy muhiti tomonidan yaxshi kutib olindi. U voyaga yetgach dastlabki faoliyatini, otasini kichik bir do'konida boshlab keyinchalik o'zi mustaqil ravishda paxta savdosi bilan shug'ullangan. U ish yuzasidan Marg'ilon, Andijon, Jizzax, Toshkent, Chimkent va Jambil kabi shaharlarga sayohat qildi. Mirzo Siroj Yevropa tibbiyotini o'rganishga juda qiziqardi. Tez orada u Tehronda sayohat qilib ichki kasalliklar bo'yicha malakali shifokor sertifikatini oldi va Tehrondagi shifoxonalardan birida ishlay boshladi, Amerika tibbiyot muassasasida ham malaka oshirdi.[4]

Mirzo Sirojiddin Hakim zamonasining ma'rifatparvar kishilaridan saboq oladi. S.Ayniy, M.Behbudiy, Sadr Ziyo va Ahmad Donishning “Navodir al Voqoyo” qori Rahmatilloh Vozihning “Savonil al masolik va Farosix al namolik” kitoblarini mutolaa qiladi.

XX asr boshlari tojik adabiyoti tarixida u o'zining “Tuhafi ahli Buxoro” (Buxoroliklarning tuhfas) nomli asari bilan mashhur bo'ldi. Ushbu kitobni o'qigan ko'plab zamonaviy kitobxonlar muallifning 20-asr boshlarida Buxoro amirligidagi siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy vaziyatdan yaxshi xabardor bo'lganini tezda anglaydi. Mirzo Siroj o'z asarini yozishda Mirzo Hakimxonning “Munta kab-ut-tavorix”, Ahmad Donishning “Navodir-ua-vaqoye”, Vozehning “Savoneh-ul-Masolik” va foydalangan. Uning ijodi publitsistik nuqtai nazardan juda puxta yozilgan.[4]

Mirzo Sirojiddin 1902-yildan 28 yoshida uzoq safarlarga chiqa boshlaydi, ana shu xotiralarining mahsuli sifatida “Tuhafi ahli Buxoro” (Buxoro ahliga tuhfa) asarini yozib 1910-yilda tugatdi. Asar fors tilida yevropa qog'ozida yozilgan. Biografik mimuar uslubida yozilgan bo'lib, 193 sahifadan iborat. Asarning qo'lyozma va

toshbosma nusxalari bugungi kunda fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qolyozmalar fondida saqlanmoqda.

Mirzo Sirojiddin Hakim 1902 – 1909 yillarda Yevropaning ko'p mamlakatlarida xususan Avstriya, Vengriya, Bolgariya, Serbiya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Italiya, Germaniya, Rossiya, Polsha va Eron kabi Sharq mamlakatlarida savdo qilgan. Shuningdek, Turkiya, Afg'oniston, Arabiston, Hindiston davlatlariga sayohat qiladi.

Ma'rifatparvar ko'p vaqtini xorijda o'tkazganligi sababli chet tillarini o'rganishga katta ahamiyat bergan. U o'z maqolasida shunday yozadi: “Chet tillarini o'rganish savdo va ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun zarurdir”.[2]

M.S.Hakim “Tuhafiy ahli Buxoro” memuar asaridan tashqari bizgacha o'zbek-tojik tillarda yozilgan 200 dan ortiq qa'sida va ga'zallar, muhammas va ruboiy kiritilgan, 2 ta to'plami ham yetib kelgan.

“Tuhafiy ahli Buxoro” asarida u: “Qarang, Yevropa xalqining ilm-fan, boyligi uni qayoqqa olib keldiyu, bizning jaholat va dangasaligimiz Osiyo xalqini qanday past mavqega olib keldi! Nima sababdan ular butun ilm-fan va san'atni o'z qo'lga oldilar, biz ularning ilmu san'atiga qaram bo'lib qoldik, ular esa butun yer yuzini egallab oldilar, biz ularga tobe bo'ldik...”

“Bolalar ko'yligidan tortib o'liklarning kafanlarigacha hammasi Yevropadan kelishi kerak. Hayotimizdagi barcha asbob-uskunalar chet eldan sotib olinishi kerak. Endi biz kambag'al bo'lmasak, kim bo'lardi? Butun boyligimizni Osiyo xalqidan tortib olganlar, boyimay kim boyib ketardi?... Lekin aralashish yo'lini bilmaymiz. Umrimizni g'iybatchilik va bekorchilikda o'tkazamiz. Buning oqibatida esa biz farzandlarimizga na ta'lim na tarbiya bera olamiz[4], deya xo'rsanib shunday fikrlarni keltirib o'tgan.

Tarbiya va inson kamoloti haqida to'xtalib o'tar ekan Mirzo Sirojiddinbolaga tarbiya berish uchun eng avvalo onalarning tarbiyasi va ilmi bo'lishlarini shart ekanligini ta'kidlab: “Bola tarbiyasiga bir lahzada ham g'aflatda qolmaslik kerak. Ularda yaxshi xislat va fazilatlarini shakllantirish zarur, yoshligidan bolaga ilm berish farz, chunki yoshlikda olgan tarbiya va bilim nihoyatda mustahkam bo'ladi”, - deb yozadi. Bolani erta maktabga berishni rad etib: “Farzand yetti yoshga to'lishi bilan unga ilm, odob va kamolot kasbini o'rgatish kerak, unga turmush qoidalari, odamiylik qonunlari va maosh to'g'risida xabar berish shart. Har kim bolasini tarbiyasiz qoldirsa, zotining saodat gavhari o'smay... baxtsiz bo'lib qoladi”, - deb ta'kidlaydi[5].

M.S.Hakim Buxoroda gazeta ta'sis etish ishlarida jonbozlik ko'rsatgan. 1912-yilda taraqqiyparvar Mirzo Muhiddin bilan Kogonda fors tilda chop etilgan “Buxoroi sharif” nomli gazetalarning asosiy tashkilotchisi va homiylaridan biri edi. M.S.Hakim jamiyatni qiynab kelayotgan masalalar to'g'risidagi maqollari bilan davriy matbuotda muntazam ishtirok etadi. Bunga uning Erondagi “Tusi va Navbahor” gazetalari Samarqanda chiqadigan “Oyna” jurnali, Buxoroda chiqadigan “Buxoroi sharif”, Turon gazetalari ma'rifiy-falsafiy mavzularda e'lon qilingan ilmiy-ommabop maqolalari yorqin dalil bo'la oladi.

Mirzo Sirojiddin “Kutubxona va o'quv xonalari ehtiyoj” maqolasida barcha hayotiy muammolarni hal etishda ta'lim asosiy omil ekanligini ta'kidlaydi: “Ammo, afsuski, bizning Buxoroda kutubxona va qiroatxona yo'q [2].

Buxoro ziyolilari chet eldan: Turkiyadan, Misrdan, Afg'onistondan, Hindistondan gazeta va jurnallar olib kelishdi. Bosma nashrlarni chegaradan olib o'tish katta qiyinchiliklar tug'dirgan. Bundan tashqari, ijtimoiy-iqtisodiy gazetalar paydo bo'lgan mamlakatlardagi sharoit Buxoro amirligidagi vaziyatdan farq qilgan edi. Shuning uchun buxorolik ziyolilar amirlikda gazeta chiqarishga qaror qilganlar. Bu ishni amalga oshirishda buxorolik maorif va savdogarlar Abduqodir Muxitdinov va Mirzo Sirojiddin Hakimlarning xizmatlari juda ham katta.

Mirzo Siroj Buxoroning kelajagiga ishonib taraqqiyot asosini ilm, hunar va tarbiyaga bog'laydi. Taraqqiyotga erishish uchun maorif sohasini rivojlantirish va isloh qilish kerakligini ta'kidlab: "Biz, Osiyo xalqi, ovro'poliklardan taraqqiyot jihatidan orqada qolgan bo'lsak ham, hali vaqt bor, qo'limizdan chiqib ketgan ilm va sarvatni qayta qo'lga olishga, bugungi faqirlikdan qutulishga imkoniyatimiz bor, taraqqiyot va obodonchilikni yo'lini to'sadigan biror narsa ko'rinmaydi va hech kim bizning yuzimizga ilm va hunar eshiklarini yopgani yo'q. Bizning taraqqiyotimiz ilmga bog'liqdir. Biz maktab va madrasalarimizdagi ta'lim va tarbiyani isloh qilishimiz kerak", - deb o'z fikr-mulohazalarini taqdim etadi[5].

Mirzo Sirojiddin Hakimning "Buxoroi sharif" va "Turon" gazetalarini chop etilgandan so'ng, oradan 1 yil o'tar o'tmas 153 sonidan keyin yopib qo'yiladi. Mirzo Sirojiddin Hakim XX asr jadid vaqtli matbuotida "Hakim Buxoriy" taxallusi bilan maqolalar e'lon qilib boradi. Masalan, Ro'znomaning ba'zi foydalari maqolasida gazeta xalq dunyoqarashini o'zgartirishi kitob mutoalasi qanday yashash o'rganish, dunyo yangiliklari va xalqlari ahvolidan xabardor bulishi uchun eng muhim vosita ekanligini ochib beradi.

Mirzo Sirojiddin Hakimning masnaviy usulida yozilgan "Yod bot" (yodda bo'lsin) nomli she'ri 1913-yilda "Oyna" jurnalida chop etiladi. Muallif o'z chiqishlarida tarixiy tafakkurni shakllantirish masalasiga alohida e'tibor qaratadi. Allomalar yurti bo'lgan Markaziy Osiyoda ilm-nufuzi pasayib ketganligini aholini savodli qilishdagi kamchiliklar va ta'lim tizimidagi muammolarni jiddiy tanqid qiladi. "Biz o'tmishda qanchalik rivojlangan edik, sivilizatsiya bobida o'zimizga yarasha o'rinda edik. Taraqqiyparvarlik ilm - fan kashfiyoti davlatchilik

rivojlanishida ham ilg'or edik, biz hozir g'aflatdamiz, ilmdan uzoqlashdik, bizning tanazzulimiz ta'lim va ilm kuchsizlanganligidandir" deb yozgan edi. Buyuk ajdodlarimizga munosib avlod bo'lish uchun tog'ri saboq chiqarishimiz, ilm fanni rivojlantirish uchun kitob o'qish lozimligini bayon etgan[6].

Mirzo Sirojiddin Hakim 1914-yil fevralida "Oyna" jurnalida "Aql" sarlavhali maqolasini e'lon qilgan. Bunda muallif "Aqlning lug'aviy ma'nosi va falsaviy kategoriyasiga alohida e'tibor qaratib u insonni hayvonot olamidani ajratib turuvchi zeynat ekanligini, aqlsiz shaxs jamiyatning to'laqonli ma'naviy barkamol a'zosi bo'la olmasligini qayd etadi. Muallif insonni 2 toifaga; noqis va komil shaxslarga ajratadi. Noqis aql insonga tugilishi bilan ato etilsa, komil aqlga esa ko'p kitob o'qish, tinglash, ilm olish va hayotiy tajriba asosida erishishi mumkin. Muallif "Beshikdan to qabrgacha ilm izla", hadisi sharif g'oyasini oldinga surib, odam faqat ilm tufayli komil inson bo'lib yetishishini yoqlaydi[7].

Mirzo Sirojiddin Hakim ayni kamolot yoshida 1913-yilda Eronga safari chog'ida Rashid shahrida sil bilan kasallanib Buxoroga qaytib keladi. Uning sakkiz yildan ortiq sarson va sargardonliklari oqibatida oradan 1 oy o'tib, 1914-yilning 17-yanvarida 36 yoshida vafot etadi. Yosh ma'rifatparvarning bevaqt o'limidan qattiq ta'sirlangan M. Behbudiy, S.Ayniy, "Oyna" jurnalida uning xotirasiga bag'ishlab maqola va marsiyalar e'lon qiladilar.

Xulosa va takliflar. Vatan mustaqilligini erk va ozodlik uchun kurash, taraqqiyparvar jadid bobolarimizni ma'rifiy, madaniy, ilmiy, badiiy merosini o'rganish ularni nomini abadiylashtirish tarix zarvaraqclariga muhrlash biz avlodlar uchun ham qarz, ham farzdir.

Mirzo Sirojiddin Hakim Buxoriy o'zining publitsistik maqolalarida zamondoshlarini ilm-fan, chet tillarini o'rganishga chaqirdi. Bolalarning gigienasiga alohida e'tibor bergan. "Buxoroi sharif" gazetasida ularni kiyintirish, ovqatlantirish, kasalliklardan asrash bo'yicha ko'plab foydali maslahatlar berilgan.

Xulosa qilib aytganda, shifokor, shoir, noshir, sayyoh, ma'rifatparvar, millatparvar Mirzo Sirojiddin Hakimning ilmiy, ijodiy merosi va faoliyatini o'rganish tadqiq qilish, unga munosib baho berish, bugungi kun talabidir.

ADABIYOTLAR

1. Sh. Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq. T.: O'zbekiston, 2017. 4-bet.
2. Bozorov N.Sh. Ma'rifatparvarlar va ularning sayohatlari/Tojikiston Milliy universiteti axborotnomasi. Filologiya fanlari turkumi. - 2017. - No 4. - B. 292-297
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Jadidchilik>
4. Mirzo Sirojiddin Hakim "Tuhafi ahli Buxoro". 1984. 6,7-betlar.
5. <https://jadid-media.uz/jadids/mirzo-sirojiddin-hakim-buxoriy>
6. Ҳақим Бухорий (Мирзо Сирож) Ёд бод. №2. 1913.
7. Ҳақим Бухорий (Мирзо Сирож), Ақл №16 (1914.02.08), б 286-28



UDC: 45.89.754.55

Boburjon SULAYMONOV,
Farg'ona davlat universiteti talabasi

Farg'ona davlat universiteti dotsenti B.Mirzaraximov taqrizi asosida

BUXORO XONLIGINING SIYOSIY VA MADANIY RIVOJIDA IMOMQULIXONNING TUTGAN O'RNI VA ROLI

Anotatsiya

XVI asrda tashkil topgan Buxoro xonligi (rasman 1533-yil) o'zbek davlatchiligi tarixida muhim o'rin tutadi. Xonlik dastlab Shayboniylar sulolasi (1501–1601), so'ngra Ashtarxoniylar sulolasi (1601–1756) tomonidan boshqarilgan. Shayboniylardan Shayboniixon (1501–1510) va Abdullaxon II (1556–1598), Ashtarxoniylardan esa Imomqulixon (1611–1642) davrida davlat siyosiy va iqtisodiy jihatdan yuksalishga erishgan. Xususan, Imomqulixon davrida Buxoro xonligi markazlashgan qudratli davlatga aylangan, markaziy hokimiyat mustahkamlangan va madaniy taraqqiyot tez sur'atlar bilan rivojlangan. Ushbu maqolada Buxoro xonligining shakllanishi, siyosiy boshqaruv tizimi, hududiy kengayish jarayoni va madaniy hayoti tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Buxoro xonligi, Imomqulixon, Samarqand, siyosiy boshqaruv, Toshkent, Balx, qozoq sultonlari, Yalangto'sh Bahodir, Jo'ybor xojalari, Muhammad Yusuf Munshiy, hunarmandchilik, me'morchilik, ilm-fan, ta'lim tizimi.

ПОЛИТИЧЕСКОЕ И КУЛЬТУРНОЕ РАЗВИТИЕ БУХАРСКОГО ХАНСТВА: РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ИМАМКУЛИХАНА

Аннотация

Бухарское ханство, основанное в XVI веке (в качестве ханства – в 1533 году), занимает важное место в истории узбекской государственности. Первоначально государством управляла династия Шейбанидов (1501 – 1601), а затем – представители династии Аштарханидов (1601 – 1756). Среди них правление таких шейбанидских правителей, как Шейбанихан (1501 – 1510) и Абдуллахан II (1556 – 1598), а также аштарханидского хана Имамкулихана (1611–1642) ознаменовалось важными преобразованиями. В период правления Имамкули-хана Бухарское ханство превратилось в централизованное государство. В результате проводимой им политики территория государства расширилась, центральная власть укрепились и был достигнут культурный прогресс. В данной статье освещаются эти вопросы на основе научных фактов.

Ключевые слова: Бухарское ханство, Имамкулихан, Самарканд, политика, Ташкент, Балх, казахский султан, Ялангтош Бахадур, Джуйбарские ходжи, Мухаммад Юсуф Мунши, ремесленничество, архитектура, наука, образование.

THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF IMAMQULIKHAN IN THE POLITICAL AND CULTURAL DEVELOPMENT OF THE BUKHARA KHANATE

Anotation

The Bukhara Khanate, established in the 16th century (formally recognized as a khanate in 1533), occupies a significant place in the history of Uzbek statehood. Initially governed by the Shaybanid dynasty (1501–1601) and later by the Ashtarkhanid dynasty (1601–1756), the khanate experienced considerable political and cultural development. Prominent among these rulers were Shaybanid leaders such as Shaybani Khan (1501–1510) and Abdullah Khan II (1556–1598), as well as the Ashtarkhanid ruler Imamqulikhan (1611–1642). During Imamqulikhan's reign, the Bukhara Khanate evolved into a powerful centralized state. His policies led to territorial expansion, consolidation of central authority, and notable advancements in culture, science, and education. This article analyzes these historical transformations based on scholarly sources.

Key words: Bukhara Khanate, Imamqulikhan, Samarkand, politics, Tashkent, Balkh, Kazakh sultans, Yalangtush Bahadur, Juybar khojas, Muhammad Yusuf Munshi, craftsmanship, architecture, science, education.

Kirish. Buxoro xonligi Ashtarxoniylar sulolasi davrida ham bir qator yuksalishlarni boshdan kechirdi. Ayniqsa, ushbu sulolaning taraqqiyot davrini boshlab bergan va shuning uchun ham boshqa sulola vakillariga qaraganda uzoqroq (31 yil) hukmronlik qilgan

Imomqulixon o'zining oqilona siyosati bilan tarixda muhim iz qoldirgan hukmdorlardan biridir.

O'zbekiston davlatchiligi tarixida turli davrlarda ko'plab sulolalar hokimiyatni boshqargan. Ularning ba'zilarining hukmronlik davrida davlat nufuzi va qudrati yuksalgan bo'lsa, boshqalarining davrida esa iqtisodiy va siyosiy inqirozlar, markaziy hokimiyat

zaiflashuvi kuzatilgan. Bu holatlarning yuzaga kelishida bir qator siyosiy, ijtimoiy va shaxsiy omillar muhim rol o'ynagan. Davlatning rivojlanish darajasi, eng avvalo, uning boshida turgan hukmdorning yurgizgan siyosati bilan bevosita bog'liqdir.

Xususan, XVI asrning ikkinchi yarmi va XVIII asrning birinchi yarmigacha Movarounnahr hududida hukmronlik qilgan Buxoro xonligida ham ikki asosiy sulola vakillari (Shayboniylar va Ashtarxoniylar) davlatni boshqargan. Bu davrda bir necha mashhur, ilmiy, siyosiy salohiyatga ega hukmdorlar yetishib chiqqan bo'lib, ular davlatni har tomonlama rivojlantirishga hissa qo'shgan. Ana shunday salohiyatli hukmdorlardan biri Imomqulixon (1589–1644) bo'lib, u 1611–1642-yillar oralig'ida xonlikni boshqargan. Uning davrida Buxoro xonligi siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan sezilarli ravishda yuksaldi. Eng asosiysi, bu davrda mamlakat Abdulloxon II davridagi kabi yana markazlashgan, barqaror davlatga aylana oldi.

Adabiyotlar tahlili va metodologik asoslar.

Ushbu manbalar orasida eng muhimlaridan biri - Hofiz Tanish Buxoriyning "Imomqulixonoma" asaridir. Ushbu asarning aynan Hofiz Tanish Buxoriy qalamiga mansubligini tadqiqotchi Jumaniyoz Sangirov o'z ilmiy ishlarida asoslab bergan [1]. Asar fors tilida yozilgan bo'lib, Imomqulixon davrida yaratilgan, biroq aniq yozilgan yili noma'lum. Ba'zi manbalarda muallif nomi sifatida Suhayl ko'rsatilgani sababli asar ko'pincha "Suhaylning Imomqulixonnomasi" deb ataladi. Tadqiqotchi Dilorom Sangirova ham ushbu asar ustida izlanish olib borgan va 2008-yilda chop etilgan maqolasida manbani tahlil qilib, Imomqulixon nasabining Amir Temur sulolasi bilan bog'liqligini ta'kidlaydi.

Yana bir muhim tarixiy manba - Muhammad Tolib tomonidan 1673-yilda yozib tugallangan "Matla' ut-tolibin" ("Toliblarning chiqish yeri") asaridir. Ushbu asar XVI–XVII asrlarda Buxorodagi siyosiy holat, Jo'ybor shayxlari va xojalarining faoliyati hamda ularning hukmdorlar bilan munosabatlariga bag'ishlangan. Ma'lumki, Jo'ybor xojalari diniy hayotda katta mavqega ega bo'lib, xalq orasida katta obro'-e'tibor qozongan edi. Hukmdorlar, jumladan, Imomqulixon ham ular bilan doimo yaxshi munosabat saqlashga intilgan. Manbalarda keltirilishicha, Jo'ybor shayxlaridan bo'lgan mashhur ruhoniylar Oxund Mulla Hadoniy vafot etganda, Imomqulixon uning dafn marosimida bevosita ishtirok etib, jasadini yelkasida ko'targani ta'kidlanadi [2].

Mazkur davr haqida muhim manbalardan yana biri - Hoji Mir Muhammad Salimning "Silsilat us-salotin" ("Podshohlar silsilasi") asaridir. Unda Imomqulixon buyrug'i bilan Makka shahrida qad rostlagan ikkita chorbog' haqida ham ma'lumot berilgan [3].

Mazkur davrning tarixiy ahamiyati tufayli bir qator olim va olimlar tomonidan turli ilmiy tadqiqotlar, dissertatsiyalar va maqolalar yozilgan. Ulardan biri - ingliz tarixchisi Audrey Burton bo'lib, u "The Bukharans: A Dynastic, Diplomatic and Commercial History 1550-1702" ("Buxoroliklar: Sulola, diplomatiya

va savdo tarixi (1550-1702)") nomli asarida XVI asr o'rtalaridan to Ubaydullaxon II hukmronligining boshlanishigacha bo'lgan davrni turli manbalar asosida mukammal tahlil qilgan [4].

Shuningdek, mashhur sharqshunos olim Yuri Bregel (1925-2016) ham Buxoro xonligi tarixiga oid keng ko'lamli tadqiqotlar olib borgan. Asli Rossiyada tug'ilgan bo'lib, faoliyatining katta qismini AQShda o'tkazgan. U Buxoro xonligining qadimgi davrdan 1920-yilgacha bo'lgan tarixini o'rgangan va shu asosda sakkizta ilmiy maqola yozgan. Ularning to'rtinchisi - "The Khanate of Bukhara and Khorasan" ("Buxoro xonligi va Xuroson") nomini olgan bo'lib, bu maqolada xonlikning Xuroson bilan olib borgan siyosiy munosabatlari, yurishlari, jumladan, Imomqulixon davridagi harbiy harakatlar yoritilgan [5].

Turkiyalik tadqiqotchilar ham bu davrni o'rganishga e'tibor qaratgan. Ulardan biri - Sheyda Duman bo'lib, u aynan Imomqulixon davriga bag'ishlab "Buhara Hanlığı'nda İmamkulkhan dönemi (1611–1642)" nomli dissertatsiyani yozgan [6]. Yana bir turkiyalik olim - Selim Serkan Ökten bo'lib, u "Buhara Hanlığı'nın Askerî Teşkilatı (1500–1868)" nomli ilmiy ishida Buxoro xonligining harbiy tuzilmasi haqida so'z yuritadi. Ushbu asarda muallif Imomqulixon 1613-yilda qozoqlarni Movarounnahrda siqib chiqargani va Toshkent chegara hududi sifatida ahamiyat kasb etgani sababli o'g'li Iskandarni u yerga hokim etib tayinlaganini ta'kidlaydi [7].

Shuningdek, turk olimasi İnci Yelda Dumlupınar ham Markaziy Osiyo tarixi, xususan Buxoro xonligi tarixi bilan shug'ullanadi. Uning "Astrahaniler ve Mangıtlar devri Buhara Hanlığı (1599–1920): Genel hatlarıyla kaynakları ve siyasi tarihi" nomli katta hajmdagi maqolasi mavjud. Unda keltirilishicha, Ashtarxoniylar Jo'jining o'g'li To'qay Temur avlodlariga mansub bo'lgani uchun bu sulola ayrim manbalarda "To'qay Temuriylar" deb ham nomlangan [8].

XVII asr Buxoro xonligi, xususan Imomqulixon davri tarixini o'rganishda rus olimlarining tadqiqotlari muhim manba hisoblanadi. Ulardan biri - Sankt-Peterburg Davlat Universiteti Sharqshunoslik fakulteti tadqiqotchisi Anton Kirillovich Alekseyev bo'lib, uning "Политическая история Тукай-Тимуридов: По материалам персидского исторического сочинения Бахр ал-асрап" ("To'qay-Temuriylar siyosiy tarixi: fors tilidagi tarixiy manba 'Bahr al-asror' asosida") nomli monografiyasi bu borada alohida e'tiborga loyiqdir. Asarda Mahmud ibn Valiyning "Bahr al-asror fi manoqib al-axyor" asari asosiy manba sifatida tanlangan bo'lib, unda Ashtarxoniylar sulolasining shakllanishidan tortib to uning inqirozigacha bo'lgan davr batafsil yoritiladi [9].

Shuningdek, rus sharqshunosligining klassik namoyandalari - A.A. Semyonov, V. Bartold, V. Grigoryev, V.V. Lunin kabi olimlarning tadqiqotlari ham Ashtarxoniylar davrini chuqur o'rganishga xizmat qilgan.

O'zbekiston tarixshunosligida ham Ashtarxoniylar sulolasi va Imomqulixon davrini o'rganish bo'yicha salmoqli tadqiqotlar amalga

oshirilgan. Xususan, B. Ahmedov, A. Ziyov, H. To'rayev, A. Zamonov, D. Sangirova, R. Muqminova, G'. G'ulomov kabi olimlarning ilmiy ishlari bu borada muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, yosh tadqiqotchi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Azizbek Musayevning "Ashtarxoniylar davrida Farg'ona vodiysida yuz bergan siyosiy jarayonlar tahlili" nomli dissertatsiyasi ham Imomqulixon davrini o'rganishda dolzarb manba hisoblanadi.

Muhokama va natijalar. Imomqulixonning shaxsiyati va siyosiy faoliyatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, u bevosita Ashtarxoniylar sulolasiga mansub bo'lib, otasi - Abdulloxon II davrida Nishopur viloyatining noibi bo'lgan Din Muhammad edi. Imomqulixon otasidan 10 yoshida yetim qoladi. Keyinchalik amakisi Vali Muhammadxon yurt taxtiga o'tirgach, Imomqulixonni Samarqand hokimi etib tayinlaydi [10].

Imomqulixon boshqa xonlarga qaraganda uzoqroq - 31 yil davomida hukmronlik qilgan bo'lib, bu holat mamlakatda nisbatan barqaror siyosat olib borilganidan dalolat beradi. Ingliz sayohatchisi va razvedkachisi A. Vamberi (1832–1913) o'z xotiralarida Imomqulixon davrida kambag'allar deyarli qolmaganini, amaldorlar ustidan qat'iy nazorat o'rnatilganini, hatto xon o'zi vaziri Nodir devonbegi bilan oddiy xalq kiyimida bozorga chiqib, narx-navoni tekshirganini qayd etadi. Tarixchi Muhammad Yusuf Munshiy esa bu holatni ifodalay turib, zavq bilan yozadi: "Imomqulixon oyoqlari davlat uzanggisida bo'lgan paytda, na Balxda va na Buxoroda qo'zg'olon va tartibsizliklar bo'lmadi" [10].

Darhaqiqat, mamlakatda qattiq, ammo adolatli siyosat yuritildi. Imomqulixon mamlakat hududiy yaxlitligini mustahkamlash, markaziy hokimiyatni tiklashga intildi. Ayniqsa, shimoldan xavf solayotgan qabilalar bilan kurashibgina qolmay, ular bilan murosali munosabat o'rnatishga ham urindi. Bu maqsadda qozoq sultoni Eshimxonning qizi Oyxonimga uylanadi [11]. Bizningcha, bu nikoh ikki asosiy siyosiy maqsadni ko'zlagan:

Mamlakatning shimoliy chegaralarini xavfsizlashtirish;

Qozoq sultonlari bilan tinch diplomatik munosabatlarni yo'lga qo'yish.

Imomqulixonning qozoq sulolasi bilan tuzgan siyosiy nikohi faqatgina ittifoq uchun emas, balki Eron shohlariga qarshi kurashda ularning harbiy kuchidan foydalanish maqsadini ham ko'zlagan edi. Buni, xususan, Vali Muhammadxon Erondan olib kelgan qo'shiniga qarshi bo'lib o'tgan jangda kuzatish mumkin. Imomqulixon bu jangda Buxoro xalqi va qozoq sultoni Eshimxonning ko'magi bilan eroniylarni tor-mor etishga muvaffaq bo'ladi [12]. Ushbu yordam evaziga Eshimxonga Toshkent va Turkiston hududlari beriladi, uning o'g'li Jonibek esa Samarqand yaqinidagi Sog'arj yeriga hokim qilib tayinlanadi.

Tarixchi Muhammad Yusuf Munshiyning yozishicha, ukasining o'limidan g'azablangan Imomqulixon Balxda yashayotgan boshqa ukasi Nadr Muhammadni Toshkentga yuborib, "otimning uzangisigacha odam qoni oqmaguncha bu yer xalqini

qirishni" buyuradi [10]. Bu buyrug'ni ulamolar yengillashtirish maqsadida, halok bo'lganlarning qonini to'plab, uni ko'lmakka quyishadi va shundan so'ng xonni ko'ndirishga muvaffaq bo'lishadi. Bu holat din peshvolariga hurmat bilan qaragan, ammo siyosatda qat'iyatli bo'lgan Imomqulixon shaxsiyatining murakkab tabiatini ko'rsatadi.

Tarixchi Mahmud ibn Vali "Bahr ul-asror" asarida Turkiston shahri haqida yozar ekan, shunday deydi: "Oddiy xalq uni Yassi deb ataydi va hozirda u yerda Buxoro xoni Imomqulixon nomidan qozoq sultonlari hukmronlik qilmoqda" [13]. Imomqulixon davrida yurishlar Dashti Qipchoqqacha davom etadi [11]. Bu harbiy muvaffaqiyatlar Movarounnahr va Xurosonning yagona hukmdor qo'li ostida birlashtirilganini va markazlashgan davlat tashkil topganini ko'rsatadi. Xorazm esa mustaqil Xiva xonligi tarkibida bo'lgan.

Masalan, Imomqulixon taxtga chiqqach, katta mavqega ega bo'lgan "Matlab ut-tolibin" asari muallifi Muhammad Tolibning otasi Tojiddin Hasanxo'jaga singlisi Poyandasultonbegimni nikohlab, unga Pirmasp qishlog'i va Dehinavdan Huzorgacha bo'lgan yerlarni tortiq qiladi [2]. Shuningdek, ukasi Nadr Muhammadga Balxni beradi va uni taxt vorisi etib tayinlaydi. Chunki Balxda hukmronlik qilgan shahzoda xonlik taxtiga eng yaqin nomzod hisoblanar edi.

Huquqshunos Ziyodullo Muqimov fikricha, "tanho" suyurg'oldan farq qilgan, chunki yer egasi yerning o'ziga emas, undan olinadigan daromadga egalik qilgan. Mahmud ibn Vali "Bahr al-asror"da shunday yozadi: "Podsho agar yerni hadya qilsa, agar u ulamo yoki sayyidga tegishli bo'lsa, suyurg'ol deyiladi, agar harbiyga berilsa, tanho deyiladi" [13].

Imomqulixon davrida savdo-sotiq, hunarmandchilik va bozor infratuzilmasi ham yuksaldi. Jumladan, manbalarda Samarqand bozorlari haqida quyidagi ifoda keltiriladi: "Bu shahar bozorlarining o'ziga xos jihati shundaki, har bir mahsulot turi uchun alohida bozor ajratilgan bo'lib, ular bir-biriga aralashmaydi. Bu juda noyob va qadimiy an'anadir." Ayniqsa, Samarqand qog'ozi ishlab chiqarish ustaxonalari Siyo kanali bo'ylaridagi ariqlarda joylashgan bo'lib, mahsulotlar chet ellarga ham eksport qilingan [14].

Bu davrda me'morchilik sohasi ham ravnaq topdi. Imomqulixon me'moriy obidalar qurilishiga alohida e'tibor qaratdi. 1617-yilda Registon maydonida Poyandabiy masjidi barpo etildi. U amirlardan biri – Qosimboy Turkmaning o'g'li, Poyanda otaliq Turkman tomonidan bunyod etilgan. Shuningdek, 1619–1620-yillarda Buxoroning eng boy kishilaridan biri bo'lgan Nodir devonbegi tashabbusi va mablag'i bilan bozor maydonida uzunligi 45 metr, eni 36 metr, chuqurligi 5 metr bo'lgan katta hovuz qurildi. Uning atrofi shag'al, marmar va toshlar bilan mustahkamlangan [15].

Zamonaviy tadqiqotchilarning fikricha, bu davrda ijtimoiy-falsafiy tafakkur, tarixshunoslik, adabiyot, huquqshunoslik kabi sohalar ancha taraqqiy etgan. Ayniqsa, Muhammadjon Yusuf Alqorabo'g'iy (1563–1647) kabi olimlar o'z asarlari bilan bu

jarayonga katta hissa qo'shganlar. U Kavkazdagi Qarabog' qishlog'ida tug'ilib, Samarqandda ilmiy faoliyat olib borgan, Buxoroda vafot etgan. "Mavlono Yusuf Qorabog'iy" taxallusi bilan mashhur bo'lgan bu zot adabiyot, astronomiya, falsafa sohalarini chuqur egallagan va "Mulloyi Nav" taxallusi bilan she'rlar ham yozgan. Tarixiy manbalarda Imomqulixon uni o'z suhbatlariga tez-tez chorlagani qayd etilgan [17].

Xulosa. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Imomqulixon davri Buxoro xonligi tarixida eng muhim va barqaror davrlardan biri sifatida tarixda o'z o'rnini egallaydi. Davlat siyosiy, harbiy va madaniy jihatdan yuksak cho'qqilarga erishgan. 1620-yilda Buxoroga kelgan rus elchisi I. Xoxlov Buxoroda Xivaga nisbatan o'n baravar ko'p qo'shin mavjudligini, ularning soni 100 ming atrofida ekanligini ta'kidlagan [4]. Bu

mamlakatning harbiy salohiyati yuqori bo'lganidan dalolat beradi.

Imomqulixon hayotining oxirida ko'rish qobiliyatini yo'qotib, hokimiyatni ukasi Nadr Muhammadga topshiradi va haj safariga chiqadi. Safar davomida Safaviylar saroyida mehmon bo'ladi va u yerda, mo'yqalam ustasi Muin Musavvir tomonidan chizilgan yagona portreti yaratiladi. 1644-yilda haj ziyorati vaqtida Arofot tog'ida vafot etadi va Madinatdagi Baqiy qabristoniga dafn qilinadi [18]. Payg'ambarimiz (s.a.v.) oilasi va sahobalari dafn etilgan ushbu qabristonga dafn etilishi uning musulmon olamidagi e'tibori va maqomini yana bir bor tasdiqlaydi.

Imomqulixonning uzoq yillik hukmronligi, adolatli siyosati, ilm-fanga bo'lgan hurmati va tinchlikni saqlashdagi sa'y-harakatlari uning nomini Markaziy Osiyo tarixiga muhrlagan.

ADABIYOTLAR

1. Sangirov J.A. Xofiz Tanish Buxoriyning "Imomkulixonoma" asari va uning Ashtarxoniylar tarixini o'rganishdagi o'rne // Science and Innovation, 2023, №2. – B. 256–266.
2. Abulabbos Muhammad Tolib. Matlab ut-tolibin. Tarjimonlar: Karimiy, E. Mirkomilov; Mas'ul muharrir: t.f.d. X. To'rayev. Toshkent: "Movarounnahr", 2016. – 386 b.
3. Ziyoy A. Silsilat as-salatin as a historical source // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 2021, Issue 11. – P. 624–628.
4. Burton A. The Bukharans: A Dynastic, Diplomatic and Commercial History, 1550–1702. London: Routledge, 2019. – 713 p.
5. Bregel Y. The Khanate of Bukhara and Khorasan // Encyclopaedia Iranica, Vol. V. New York, 2013. – P. 521–524.
6. Duman Ş. Buhara Hanlığı'nda İmamkulikhan Dönemi (1611–1642). Doktora tezi. Afyonkarahisar: 2023. – 185 s.
7. Ükten S.S. Buhara Hanlığı'nın Askeri Teşkilatı (1500–1868). Ankara: Neyir Matbaacılık, 2018. – 388 s.
8. Dumlupınar İ.Y. Astrahanîler ve Mangıtlar Devri Buhara Hanlığı (1599–1920): Genel Hatlarıyla Kaynakları ve Siyasi Tarihi // Genel Türk Tarihi Araştırmaları Dergisi, 2023, Issue 9. – P. 199–220.
9. Alekseev A.K. Политическая история Тукай-Тимуридов: По материалам персидского исторического сочинения "Бахр ал-асрап". Санкт-Петербург: Изд-во СПбГУ, 2006. – 231 с.
10. Zamonov A. Buxoro xonligining Ashtarxoniylar hukmdorlari. Monografiya. Toshkent: "BAYOZ", 2021. – 137 b.
11. Zamonov A. Buxoro xonligi tarixi. Metodik qo'llanma. Toshkent: "BAYOZ", 2021. – 266 b.
12. To'raev H. Buxoro tarixi. O'quv qo'llanma. Buxoro: "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2020. – 320 b.
13. Mahmud ibn Vali. Bahr al-asror fi manaqib al-axyar (More tayn otositelno doblestey blagorodnykh). Tarjima, izoh va ko'rsatkichlar: B.A. Ahmedov; mas'ul muharrir: A.K. Arend. Toshkent: "Fan", 1977. – 184 b.
14. Eshov B.J., Odilov A.A. O'zbekiston tarixi II (XIV asrning o'rtalaridan – XIX asr ikkinchi yarmigacha). Toshkent: "Donishmand Ziyosi", 2020. – 409 b.
15. Ne'matov M. Buxoroda Ashtarxoniylar davri me'morchiligi // Modern Science and Research, №10, 2024. – B. 34–37.
16. Ro'ziqulov O., Shodiyorov A. Ashtarxoniylar davrida ilm-fan va madaniy hayot // Innovation in the Modern Education System, №5, 2024. – B. 198–202.
17. Nasrilloev K. Ashtarxoniylar hukmdorlarning ilm ahllari bilan munosabatlari // Builders of the Future, №2, 2022. – B. 13–17.
18. Sangirova D.X. Haj ziyorati va hukmdor hojilar // O'tmishga nazar, №18, 2019. – B. 24–



УДК: 32.019.51:327(674.1)

Азиза УМАРКУЛОВА,
Докторант Координационно-методического центра
по вопросам новейшей истории Узбекистана при АН РУз
E-mail: azizaumarkulova1@gmail.com

На основе рецензии д.и.н, Р.Ю. Турсуновой

ИНСТРУМЕНТЫ И МЕХАНИЗМЫ РЕАЛИЗАЦИИ «МЯГКОЙ СИЛЫ» В ПОЛИТИЧЕСКОЙ НАУКЕ

Аннотация

В статье была проанализирована институционализация «мягкой силы» как стратегического ресурса влияния в международной политике. Исследование опиралось на междисциплинарный подход и охватывало практики ряда стран - от централизованных до гибридных и нишевых моделей. Особое внимание уделялось культурным агентствам, образовательным программам и цифровым платформам как ключевым инструментам soft power. Также были предложены рекомендации для стран постсоветского пространства, включая Узбекистан.

Ключевые слова: мягкая сила, институционализация, культурная дипломатия, стратегическая коммуникация, Узбекистан.

SIYOSATSHUNOSLIKDA “YUMSHOQ KUCH” NI AMALGA OSHIRISH VOSITALARI VA MEXANIZMLARI

Annotatsiya

Maqolada “yumshoq kuch” tushunchasining institutsional shakllanishi va uning xalqaro siyosatda ta'sir vositasi sifatidagi roli tahlil qilindi. Tadqiqot turli mamlakatlar tajribasiga asoslangan holda madaniy agentliklar, ta'lim dasturlari va raqamli platformalarning ahamiyatini ko'rsatdi. Post-sovet davlatlari, jumladan O'zbekiston uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: yumshoq kuch, institutsionalizatsiya, madaniy diplomatiya, strategik kommunikatsiya, O'zbekiston.

TOOLS AND MECHANISMS FOR THE IMPLEMENTATION OF “SOFT POWER” IN POLITICAL SCIENCE

Annotation

The article explored the institutionalization of soft power as a strategic tool in international politics. Using a comparative and interdisciplinary approach, it analyzed national models and highlighted the role of cultural agencies, educational programs, and digital platforms. Practical recommendations were formulated for post-Soviet countries, including Uzbekistan.

Key words: soft power, institutionalization, cultural diplomacy, strategic communication, Uzbekistan.

Введение. В условиях трансформации международной системы, всё более ориентированной на символическое воздействие, культурную конкуренцию и борьбу за интерпретацию глобального порядка, традиционные формы давления постепенно уступают место более тонким и гибким стратегиям влияния. Одной из ключевых категорий современной политической науки становится «мягкая сила» — способность воздействовать не через принуждение, а посредством культурной привлекательности, ценностных ориентиров и убедительной политической репрезентации.

С момента появления в работах Дж. Ная в 1990-х годах концепт soft power претерпел значительное развитие: он институционализировался, адаптировался к цифровой среде и стал неотъемлемой частью внешнеполитических доктрин [10]. Сегодня «мягкая сила» — это не только инструмент влияния, но и выражение стратегического стиля государства, способного выстраивать зоны символического признания за пределами прямого контроля [7]. Настоящее исследование фокусируется на механизмах и институциональных форматах реализации soft power, раскрывая её роль как технологии управления вниманием и доверительным капиталом в условиях глобальной медианеперегрузки [1].

Анализ литературы по теме. Концепция «мягкой силы» возникла на пересечении неолиберальной теории и практической переоценки форм международного влияния. В начале 1990-х годов Дж. С. Най предложил модель воздействия, основанную не на принуждении, а на привлекательности культуры, ценностей и

внешнеполитического имиджа [9]. Его подход представлял собой отход от классического реализма и попытку интерпретировать власть как способность формировать предпочтения через добровольное признание.

Со временем soft power приобрела статус самостоятельного стратегического ресурса, первоначально ассоциируясь с культурной дипломатией, гуманитарными миссиями и образовательным обменом. С начала XXI века концепт расширяется за счёт цифровых коммуникаций, стратегических нарративов и информационных технологий. В переработанной модели Дж. С. Ная ключевыми компонентами выступают культура, политические ценности и внешняя политика, воспринимаемая как справедливая. Параллельно возникает идея «умной силы» — как синергии soft и hard power, активно обсуждаемая в трудах Р. Кеохейна, Дж. Голдстейна, А. Вендта и С. Уолта [9].

В российской научной мысли категория «мягкой силы» переосмысливается не только как инструмент внешнего влияния, но и как ресурс внутренней легитимации. В.В. Рашенко акцентирует внимание на её институционализации [7], А.Е. Сагындыкова — на терминологической неопределённости [8], а Д.Д. Чебыкин — на потенциале soft power в укреплении национального единства через межкультурную коммуникацию [9].

В странах Восточной Азии наблюдается специфическая трансформация концепции. В Китае она реализуется в связке с экономическим влиянием и культурной экспансией, что отражено в инициативе BRI и

деятельности Институтов Конфуция. Япония использует культурные индустрии и бренд «Cool Japan», а Южная Корея опирается на феномен Hallyu, превратив массовую культуру в глобальный канал влияния.

Узбекская академическая традиция также активно интегрирует понятие soft power. А. Мамаджонов [3] и А.М. Низамов [4] подчёркивают её значимость для укрепления региональной субъектности, продвижения исламского наследия, культурной идентичности и реформаторской модели внешнеполитического позиционирования Узбекистана вне рамок жёсткой геополитической конкуренции.

Методология исследования. Исследование «мягкой силы» опирается на междисциплинарный подход, сочетающий политологический, институциональный и культурологический анализ. В качестве теоретической базы выступают неolibеральные и конструктивистские парадигмы, позволяющие рассматривать soft power как инструмент формирования привлекательного образа государства через ценности, нормы и культурные коды.

Методологическая основа включает системный и сравнительный подходы, обеспечивающие целостное понимание «мягкой силы» как совокупности ресурсов и механизмов, встроенных в внешнеполитическую стратегию. Особое внимание уделяется кейс-анализу практик США, Китая, России, Великобритании и Чехии [8], различающихся по масштабам влияния и способам институционализации.

В работе использованы методы содержательного анализа внешнеполитических доктрин, программ культурной дипломатии, а также данные международных индексов (Global Soft Power Index) [11]. Это позволяет оценить не только содержательную структуру стратегий, но и их воспринимаемую эффективность в глобальном контексте.

Анализ и результаты. Современное понимание «мягкой силы» предполагает её функционирование не как совокупности абстрактных ценностей или спонтанных культурных проявлений, а как результат системной мобилизации нематериальных ресурсов посредством специализированных инструментов. Ключевые ресурсы

Таблица 1. Сравнительная характеристика институциональных стратегий реализации «мягкой силы» в зарубежной практике

Страна	Ключевые институты	Основной фокус	Форма институционализации
Великобритания	British Council, BBC, Commonwealth	Образование, язык, культура, правовая дипломатия	Законодательно закреплённые программы, культурные агентства
Россия	Россотрудничество, Фонд "Русский мир", RT	История, язык, традиционные ценности, информационное влияние	Полугосударственные структуры, поддержка через СМИ
Китай	Институты Конфуция, BRI, CGTN	Экономика, инфраструктура, язык, цивилизационный нарратив	Государственные инициативы, сетевые институты
Япония	Japan Foundation, Cool Japan, NHK World	Культурные индустрии, язык, инновации, образовательная политика	Координированные госпрограммы и публичная дипломатия
Южная Корея	Korea Foundation, KOCIS, Arirang TV	К-поп, кино, язык, цифровая дипломатия	Государственные агентства, контентная экспансия
США	Fulbright, USAID, Voice of America, Hollywood	Ценности демократии, массовая культура, цифровые технологии	Федеральные агентства, транснациональные медиа и НПО
Чехия	Чешский центр, МИД, культурные фонды	Гуманитарные ценности, культура, посттоталитарная идентичность	Нишевые государственно-общественные проекты
Казахстан	Kazakh Culture Days, Nazarbayev University, Qazaq TV	Культура, язык, тюркская интеграция, образовательный экспорт	Гибридные форматы: госпрограммы и инициативы университетов

Наиболее очевидной формой институционального оформления «мягкой силы» являются культурные и образовательные агентства, создающие устойчивые каналы гуманитарного взаимодействия. Такие структуры, как British Council, Korea Foundation, Japan Foundation, Институты Конфуция, Goethe-Institut и Россотрудничество, выступают не только ретрансляторами культуры, но и модераторами символических границ [12; 13; 14; 15; 16; 17]. Они действуют в логике нормативной дипломатии, опираясь на адаптацию к локальным контекстам, и становятся элементами распределённой дипломатии, где культура функционирует как пространство конкурентного символического присутствия.

— культура, образование, язык, идеология, религия, информационные потоки - обретают политическую действенность только в том случае, если они институционализированы и встроены в воспроизводимую инфраструктуру гуманитарного и символического влияния. Инструментами такой трансформации выступают организационно оформленные формы транслирования: культурные агентства, академические программы, информационно-медийные каналы, цифровые коммуникационные платформы, дискурсивные практики и правовые форматы, через которые осуществляется управление восприятием [5].

Механизмы реализации этих ресурсов строятся на сочетании программного, организационного и сетевого уровней. Программный уровень предполагает наличие нормативно закреплённых стратегий и приоритетов, организационный - наличие устойчивых институтов, обеспечивающих системность воздействия, а сетевой - способность государства действовать через гибкие и распределённые каналы взаимодействия. Эффективность «мягкой силы» возникает именно там, где инструменты не изолированы, а объединены общей логикой - формированием устойчивой лояльности, культурной привлекательности и символического признания [2]. Таким образом, «мягкая сила» реализуется как управляемая, институционально закреплённая технология нематериального влияния в международных отношениях.

Переход от декларативного уровня «мягкой силы» к её стратегической реализуемости требует формирования устойчивой институциональной базы. Инструменты и механизмы soft power выходят далеко за рамки культурных инициатив, представляя собой многоуровневую инфраструктуру влияния, включающую символическое производство, информационное посредничество и управляемую трансляцию ценностей. Институционализация в этом контексте приобретает не только правовой, но и концептуально-политический характер, так как она направлена на формирование механизмов долгосрочной культурной субъектности в международной среде.

Значимую роль играют образовательные механизмы, формирующие лояльные элиты через академические программы мобильности. Fulbright, Erasmus+, Chevening, MEXT и аналогичные инициативы выполняют не только когнитивную, но и аксиологическую функцию — экспортируя не столько знания, сколько модели мышления, аргументации и поведения [13]. Образование в этом смысле становится инструментом латентного убеждения, действующего в пространстве равноправных коммуникаций.

Отдельный пласт формируют медиатехнологии, в которых институционализация soft power приобретает сетевой характер. Международные каналы, цифровые платформы, дипломатические аккаунты в социальных

сетях и мультимедийные кампании становятся элементами глобального нарративного поля. Их эффективность определяется не только охватом, но и способностью формировать архитектуру доверия, обеспечивая ощущение подлинности и включённости в глобальные тренды.

Механизмы реализации soft power различаются в зависимости от политического устройства, ресурсов и цивилизационных кодов. В централизованных системах (например, Китай) они организованы вертикально и мобилизационно [16]. В условиях институциональной диверсификации (США, Великобритания) «мягкая сила» распределена между государственными и частными структурами, обеспечивая гибкость и адаптивность [13]. Между этими моделями располагаются гибридные конфигурации, характерные для Чехии, Казахстана и Южной Кореи, где влияние строится вокруг нишевой специализации и культурной идентичности.

Заключение и выводы. На основе проведённого исследования можно сформулировать следующие ключевые положения:

Современная «мягкая сила» представляет собой институционализированную систему влияния, в которой нематериальные ресурсы реализуются через агентства, образовательные программы, медиа и цифровые платформы.

Национальные стратегии демонстрируют разнообразие моделей soft power — от централизованных

до гибридных и нишевых, что отражает специфику политических систем и культурных приоритетов.

Наблюдается сближение soft и hard power в форме smart power, где привлекательность сочетается с управлением вниманием, цифровым воздействием и алгоритмическим сопровождением. Основной вектор развития — цифровизация и медиатизация влияния, требующие переосмысления методик оценки и новых инструментов стратегической коммуникации. Учитывая приведённые выводы, представляется целесообразным предложить следующие направления практических действий:

Странам постсоветского пространства, включая Узбекистан, необходимо разработать целостную стратегию «мягкой силы», опирающуюся на культурное наследие и образовательный потенциал.

Приоритет следует отдавать устойчивым гуманитарным форматам — культурным центрам, обменным программам, долгосрочным проектам.

Цифровая составляющая должна стать неотъемлемой частью soft power: мультязычные платформы, онлайн-кампании, визуальные продукты.

Важно вовлекать негосударственные субъекты — вузы, НПО, креативные индустрии — как носителей гибкости и инновационности в реализации стратегии.

Необходимо развивать научно обоснованные индикаторы эффективности «мягкой силы» с учётом цифровой метрики, охвата и символической устойчивости.

ЛИТЕРАТУРА

1. Бакаева Т. А. Роль «мягкой силы» в международных отношениях // Вестник международных отношений и дипломатии. – 2022. – № 1(19). – С. 13–19.
2. Костюков П. А., Агапова Е. С. Политика «мягкой силы» России, Китая и Великобритании: аналитическое сопоставление // Международные отношения и мировая политика. – 2022. – № 5. – С. 54–66.
3. Мамаджонов А. А. Институционализация «мягкой силы» в странах Центральной Азии: сравнительный подход // Журнал политических исследований. – 2023. – № 4. – С. 92–101.
4. Назарова Н. Ш. Образование как фактор «мягкой силы» современного государства // Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. – 2023. – № 6. – С. 45–49.
5. Низамов А. М. Инструменты гуманитарного влияния как основа мягкой силы в Центральной Азии: контуры культурной дипломатии Узбекистана // Политологический альманах. – 2023. – № 2. – С. 40–46.
6. Рахимов И. И. Цифровая дипломатия и перспективы «мягкой силы» в эпоху ИИ // Геополитика и безопасность. – 2023. – № 4. – С. 25–32.
7. Ращенко В. В. Концепция «мягкой силы» Дж. Ная в зарубежном научном дискурсе: интерпретация и критика // Современные международные отношения. – 2022. – № 3. – С. 33–40.
8. Сагындыкова А. Е. Анализ концепции «мягкой силы» Чехии как инструмента внешней политики // Журнал международной политической аналитики. – 2021. – № 2. – С. 71–78.
9. Чебыкин Д. Д. Концепция «мягкой силы» в международных отношениях: теоретико-методологический анализ // Вестник Санкт-Петербургского университета. Серия 6. Политология. – 2021. – Т. 14, № 1. – С. 85–97.
10. Nye J. S. Soft Power: The Means to Success in World Politics. – New York: PublicAffairs, 2004.
11. Brand Finance. Global Soft Power Index 2023. – URL: <https://brandfinance.com/reports/global-soft-power-index-2023> (дата обращения: 15.04.2025).
12. Center for Strategic and International Studies (CSIS). How the U.S. Should Reinvent Its Soft Power. – URL: <https://www.csis.org/analysis/how-us-should-reinvent-its-soft-power> (дата обращения: 14.04.2025).
13. British Council. Cultural relations and the UK's role in the world. – URL: <https://www.britishcouncil.org/research-policy-insight/insight/cultural-relations-uk-role-world> (дата обращения: 15.04.2025).
14. USC Center on Public Diplomacy. What is Soft Power? – URL: <https://uscpublicdiplomacy.org/page/what-soft-power> (дата обращения: 14.04.2025).
15. Ministry of Foreign Affairs of Japan. Japan's Public Diplomacy. – URL: https://www.mofa.go.jp/policy/culture/public_diplomacy/index.html (дата обращения: 15.04.2025).
16. Confucius Institute Headquarters (Hanban). Official Website. – URL: <http://english.hanban.org> (дата обращения: 13.04.2025).
17. Korea Foundation. Annual Report 2022. – URL: <https://en.kf.or.kr/?menu=688> (дата обращения: 14.04.2025).
18. Министерство иностранных дел Российской Федерации. Официальный портал о гуманитарном сотрудничестве. – URL: https://www.mid.ru/ru/foreign_policy/humanitarian_issues/ (дата обращения: 15.04.2025).



UDK: 34.096

Khulkar KHOLIKULOVA,
Associate Professor of law enforcement Academy of Uzbekistan
E-mail: Xalikulova81@mail.ru

O'zMU dotsenti PhD R.Xomitov taqrizi asosida

THE MEDIEVAL INTELLECTUAL LEGACY ON WOMEN'S LEADERSHIP POTENTIAL: AN ANALYSIS THROUGH THE LENS OF RELIGION, PHILOSOPHY, AND FEMINIST THOUGHT

Abstract

This article analyzes philosophical and religious perspectives on women's leadership potential in society during the Middle Ages. By examining the views of thinkers such as Augustine, Gregory the Great, Thomas Aquinas, Anselm of Canterbury, John Wycliffe, and Christine de Pizan, the study explores historical interpretations of women's roles in social and political life. The article highlights the contradictions between philosophical and theological doctrines that laid the foundation for early feminist ideas.

Key words: Women's leadership, medieval philosophy, feminism, religion and society, philosophical doctrines, women's rights, patriarchal society, historical perspectives.

ИДЕЙНОЕ НАСЛЕДИЕ СРЕДНЕВЕКОВЬЯ О ЛИДЕРСКОМ ПОТЕНЦИАЛЕ ЖЕНЩИН: АНАЛИЗ В КОНТЕКСТЕ РЕЛИГИИ, ФИЛОСОФИИ И ФЕМИНИСТСКОЙ МЫСЛИ

Аннотация

В данной статье анализируются философские и религиозные взгляды на лидерский потенциал женщин в обществе в период Средневековья. Через изучение взглядов таких мыслителей, как Августин, Григорий Великий, Фома Аквинский, Ансельм Кентерберийский, Джон Уиклиф и Кристина де Пизан, исследуется историческое понимание роли женщин в социальной и политической жизни. В статье раскрываются противоречия между философскими и религиозными концепциями, которые впоследствии стали основой ранних феминистских идей.

Ключевые слова: Женское лидерство, философия Средневековья, феминизм, религия и общество, философские учения, права женщин, патриархальное общество, исторические взгляды.

AYOLLARNING LIDERLIK SALOHİYATI HAQIDA O'RTA ASRLAR G'OYAVIY MEROSI: DIN, FALSAFA VA FEMINISTIK G'OYALAR TIZIMIDA TAHLIL

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'rta asrlar davrida ayollarning jamiyatdagi yetakchilik salohiyatiga nisbatan falsafiy va diniy qarashlar tahlil etiladi. Avgustin, Grigoriy, Foma Akvinskiy, Anselm Kenterberiylik, Jon Uiklif va Kristin de Pizan kabi allomalarning qarashlari orqali ayollarning ijtimoiy va siyosiy hayotdagi roliga oid tarixiy yechimlar o'rganiladi. Mazkur maqolada ilk feminizm g'oyalarining paydo bo'lishiga asos bo'lgan diniy va falsafiy qarashlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Ayollar liderligi, o'rta asr falsafasi, feminizm, din va jamiyat, falsafiy ta'limotlar, ayollarning huquqlari, patriarxal jamiyat, tarixiy qarashlar.

Kirish Bugungi kunda dunyo mamlakatlarida jamiyatda lider ayollar masalasiga qiziqish va ehtiyoj ortib bormoqda. XXI asrda feminizm global ijtimoiy siyosatdagi shov-shuvli harakatlardan biriga aylandi. G'arb mamlakatlarida feministik g'oyalar ommaviy madaniyatning bir qismiga aylandi va ko'plab ayollar teng huquq va imkoniyatlar uchun kurashda sezilarli yutuqlarga erishdilar. Misol uchun, #MeToo kabi harakatlar jamiyatga katta ta'sir ko'rsatib, jinsiy zo'ravonlik va ta'qiblar muammosiga jamoatchilik e'tiborini qaratdi.

Usul. Maqolani tayyorlashda tarixiy-tahliliy va muqoyasali tahlil usullaridan foydalanildi. Ilmiy manbalar, allomalarning falsafiy asarlari, diniy

ta'limotlar va zamonaviy feministik ta'limotlar o'rtasidagi bog'liqliklar o'rganildi. Shaxsiylikka oid emas, balki ijtimoiy-tarixiy nuqtai nazardan qarashlar tahlil qilindi.

Natijalar. Aksariyat diniy manbalarda va allomalarning asarlarida ayollarning siyosiy hayotdagi ishtiroki, ijtimoiy vazifalari, ularning xulq-atvori va jamiyatdagi rollariga oid patriarxal jamiyatni qo'llab-quvvatlashga xizmat qilgan bo'lsa-da, ayrim olimlar ayollarning siyosiy jarayonlardagi ishtirokini ijobiy baholagan va qo'llab-quvvatlagan. Bunday allomalardan biri Avgustin (354–430) o'zining "Tanga shahar" asarida ayollar oila va jamiyatda muhim o'rin tutishi bilan birga, ularning tabiatdan siyosiy

yetakchilikka mos emasligi ta'kidlanadi.[1]. Avgustinning qarashlari ko'p jihatdan xristian dinining ibtidoiy doktrinal ta'limotlari ta'siri ostida shakllangan bo'lib, ayollarga hissiy barqarorsizlik, yuvoshlik va ta'sirchanlik xos deb hisoblagan. T.B. Ryabovanning fikricha, bu o'z navbatida antik davrda rimlik ayollarga sud muhokamalarida kimningdir nomidan chiqish taqiqlangan. Bu davrda ayollar engilfikrlil va beqaror deb hisoblanganligi sababli ular da'vogarlik sifatida ishtirok etish, guvohlik berish yoki sud ishlariga ta'sir ko'rsatish huquqidan mahrum qilingan [2]. Avgustin shunday deydi: «Ey Xudo, Sen insonni o'zing haqinda xulosa qilishga qodir qilding... hatto oddiy ayollarning guvohligiga ishonib»[3]. Uning bu fikrlari o'sha davrda ayollarning guvohligi erkaklarning guvohligiga qaraganda kamroq ishonchga sazovor deb qaralganligidan dalolat beradi [4].

Bu davrda yashab ijod qilgan yana bir yirik allomalardan biri Buyuk Grigoriy (540–604) ayollarning liderlik qobiliyatlarini e'tirof etgan. Grigoriy Nisskiyning eng mashhur "Insoniyat yaratilishi haqida" deb nomlangan asarida, "Jinsiy farqlar faqat biologik jihatdan bo'lib, ular insonning ma'naviy kamolotga erishish qobiliyatiga ta'sir ko'rsatmaydi" deb ta'kidlagan. Uning qarashlarida ayollar jamiyatning yetuk a'zolari sifatida e'tirof etiladi. Bundan tashqari, ayollar diniy va ma'naviy rahbariyatda muhim o'rin tutishi mumkin, chunki ular tarbiyachi sifatida nafaqat oilada, balki butun jamiyatda ahamiyatli rol o'ynaydilar deya ta'kidlagan. Demak, Grigoriy ayollarning aqliy salohiyatiga ulkan baho berib, ularni jamiyatning faol a'zolari sifatida ishtirok etishi mumkinligini e'tirof etgan birinchi allomalardan biri hisoblanadi[6].

Ilk o'rta asrlarda yashab o'tgan olimlarning g'oyalari dinning doktrinal ta'limotlari va patriarxal tuzilma bilan bog'liq bo'lgan bo'lsa-da, ayrim allomalarning asarlarida ayollarning ijtimoiy rolini kengaytirishga va ularning rahbarlik vazifalariga e'tibor berishga intilishlar kuzatiladi. Bu nazariyalar keyinchalik feministik harakatlarning vujudga kelishi uchun ilk nazariy asoslarni yaratgan va ayollar orasida liderlar yetishib chiqishiga zamin yaratgan[7].

Muhokama. Rivojlangan o'rta asrlarga kelib Yevropa ijtimoiy-siyosiy tafakkurida hamda ayollarning liderlikdagi o'rniga bo'lgan munosabatlarda sezilarli o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bu davrdagi Yevropa falsafasi va teologiyasida ayollarning ijtimoiy rolini kengroq muhokama qilishga qiziqish ortdi. Natijada ayollarning liderlik xususiyatlariga oid qarashlar yanada murakkablashdi. Masalan, Foma Akvinskiy (1225–1274) va Anselm Kenterberiyskiylar (1033–1109) o'z asarlarida ayollarning ma'naviy va intellektual imkoniyatlarini e'tirof etsalar-da, ayollarning salohiyati, vazifalari va rahbarlik layoqati haqidagi qarashlarini nasroniylilik ta'limoti va patriarxal jamiyat an'analari bilan bog'lab talqin qilganlar[8]. Masalan, Foma Akvinskiy, o'zining mashhur Summa Theologiyasi asarida ayollarning davlat ishlaridagi rolini cheklash tarafdori bo'lgan. Uning ta'kidlashicha, ayollar tabiat tomonidan erkaklarga nisbatan jismonan va aqlan zaifroq qilib yaratilgan va shu sababli, ularning asosiy vazifalari oila va diniy hayot bilan bog'liq bo'lishi kerak

deb hisoblagan [8]. Foma Akvinskiy ayollarning jamiyatdagi liderlik vazifalariga nisbatan salbiy munosabatda bo'lib, ularni siyosiy rahbarlikka qobiliyatsiz va doimiy erkaklar tomonidan boshqarilishga muhtoj deb qaragan[9]. Lekin, Foma Akvinskiy ayollarning muayyan ma'naviy yetakchilikda ishtirok etish va ta'lim olish huquqini inkor etmagan, balki ularning ma'lum sohalaridagi, jumladan, ta'lim va diniy sohadagi faoliyatlarini e'tirof etgan[10].

Foma Akvinskiyning qarashlariga zid ravishda Anselm Kenterberiyskiy ayollarning aqliy va ma'naviy salohiyatini yuqori baholagan[11]. Anselmning ta'kidlashicha, nafaqat erkaklar, balki ayollarning ham ma'naviy barkamolliigi va salohiyati jamiyatning rivojlanishi uchun katta rol o'ynaydi. Anselmning bu qarashlari ayollar orasidan liderlar kelib chiqishini rag'batlantirishga yo'naltirilgan nazariyalar asosini tashkil qilgan[12].

O'rta asrlarda antifeministik nasroniylilik diniy ta'limotlar ta'siri natijasida ayollarga nisbatan antifeministik qarashlar keng tarqalgan bo'lsa-da, ayollarning jamiyatdagi o'rnida ozgina o'zgarishlar sodir bo'ldi[13]. Foma Akvinskiy va Anselm Kenterberiyskiy kabi allomalarning qarashlari ayollarga nisbatan ijtimoiy yondashuvlarda muhim o'rin tutib, keyingi asrlarda ham ayollarning ijtimoiy va siyosiy rolini oshirishga asos bo'lgan[14].

XII–XIII asrlardagi faylasuflarning ijtimoiy-siyosiy qarashlari ko'p jihatdan xristian diniy ta'limotiga asoslangan bo'lib, ayollarning jamiyatdagi o'rnini, vazifalari va ijtimoiy ta'sirini tahlil qilishda diniy qarashlar ta'siri asosida shakllangan. Bu davrga kelib ko'plab g'arb mutafakkirlari ayollarning yetakchilik qobiliyatlarini inkor etmaganlar va ular orasida ayollarni qo'llab-quvvatlash tarafdorlari ham bo'lgan[15]. Bunday mutafakkirlardan biri Ioann Solsberi (1120–1180) hisoblanadi. Uning fikricha, ayollar jamiyatda muayyan siyosiy va ijtimoiy vazifalarni bajarishga qodir, hamda ular jamiyatni adolat va oqillik bilan boshqara olish qobiliyatiga egadirlar[16]. Ioann Solsberi ayollarning tarbiya va bilim olishlariga muhim ahamiyat qaratish lozimligini ta'kidlab, ularning yetakchilik salohiyatiga yuqori baho beradi. Uning bu qarashlari o'rta asrlardagi ko'plab olimlarning siyosiy-falsafiy qarashlaridan keskin farq qilgan va u ayollarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda ishtirok etishining tarafdori bo'lgan[17].

O'rta asrlardagi bunday qarashlar o'sha davr patriarxal jamiyatida ayollarning roli haqidagi o'ziga xos ziddiyatli qarashlarni keltirib chiqardi. Bu siyosatchi va faylasuf olimlarning turlicha yondashuvlari kelgusida ayollarning siyosiy va ijtimoiy ta'sirlarining oshishiga yordam berdi[18]. Ilmiy manbalar va xristian ta'limotiga asoslangan ushbu qarashlar G'arbda keyingi asrlarda paydo bo'lgan feministik g'oyalarning ildizlari sifatida namoyon bo'lib, ular ayollarning jamiyatdagi yetakchilik salohiyatini qayta ko'rib chiqishga zamin yaratdi[19].

So'nggi o'rta asrlarga kelib, Yevropada ijtimoiy va siyosiy qarashlar tizimida o'zgarishlar sodir bo'ldi, G'arb mamlakatlarida ayollarning o'rnini va ularning liderlik salohiyatini qayta ko'rib chiqishga bo'lgan

qiziqish kuchaydi[20]. Bu davrda diniy qarash va ijtimoiy tuzilmalar o'zgarishi, hamda davlatlarning iqtisodiy rivojlanishi natijasida ayollarning jamiyatdagi roli va ularning imkoniyatlariga nisbatan munosabat ham turli ko'rinishlarda namoyon bo'ldi. Ayniqsa Jon Uikliff va Kristin de Pizan kabi olimlarning asarlari ayollarning aqliy salohiyatini keng ko'lamda muhokama qilib, ularning ijtimoiy va siyosiy rolini qayta o'rganib chiqishga harakat qilgan[21].

Jon Uikliff (1320–1384) o'zining ijtimoiy va diniy islohotlarga oid qarashlarida ayollarning diniy vazifalardagi ishtiroki haqida so'z yuritgan. Uning fikricha, ayollar xristian dinini aholi orasida targ'ib qilishda jamiyatni tarbiyalovchi sifatidagi vazifalariga urg'u bergan. Shu sababli ham Uikliff asosan

ayollarning ta'lim olishlarining tarafdori bo'lgan va ularning ma'naviy yetakchi sifatidagi salohiyatini e'tirof etadi. Uning bu qarashlari ayollarning jamiyatdagi o'rnini kengaytirishga qaratilgan bo'lsa-da, asosan ma'naviy yetakchilikka e'tibor qaratiladi va ularning siyosiy ta'sirini cheklashga yo'naltirilgan. Bu qarashlar asosan ayollarning ta'lim olish, tarbiyachi sifatidagi va diniy jamoalarda faol bo'lishi uchun asos bo'ldi[22].

Xulosa. Ilk va rivojlangan o'rta asrlarda ayollarning liderlik qobiliyati turlicha baholangan bo'lib, ba'zi qarashlar ularning siyosiy va ijtimoiy faolligini cheklagan, boshqalari esa uni qo'llab-quvvatlagan. Bu tarixiy qarashlar zamonaviy feministik yondashuvlar uchun muhim nazariy asoslardan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Hodgson, M. (2005). *Medieval Women: Texts and Contexts in Late Medieval Britain*. Routledge.
2. Епифанова Т.В. Человек, общество и государство в историко-религиозном учении Августина Блаженного: Дис. ... канд. ист. наук. – Владимир, 2002. – 221 с.
3. Ерохина Ю.А. Исторические взгляды Августина: Автореф. дис. ... канд. ист. наук. – Казань, 2000. – 25 с.
4. Augustine of Hippo. (1950). *The City of God*. Translated by Marcus Dods. New York: The Modern Library; Richards, J. (2004). *Gender and Power in Medieval Exegesis*. Cambridge University Press; Kreider, R. (2009). *Women in the Middle Ages: The Role of Women in Medieval Society*. Routledge
5. Weber, K. (2017). *Feminist Perspectives on Medieval Philosophy: The Historical Impact of Women Thinkers*. Palgrave Macmillan.
6. Gregory the Great. (1999). *The Dialogues of Gregory the Great*. Translated by William McCarthy. New York: The Paulist Press; Duffy, E. (2005). *Saints and Sinners: A History of the Popes*. Yale University Press; Wiesner, M. (2000). *Women and Gender in Early Modern Europe*. Cambridge University Press.
7. McLaughlin, K. (2013). *Women in Medieval Society: The Roles of Women in the Middle Ages*. Cambridge University Press; Hanawalt, B. (1998). *The Wealth of Wives: Women, Law, and Economy in Late Medieval London*. University of North Carolina Press.
8. Mc Namer, S. (2000). *A Woman's Place: The Role of Women in Medieval Society*. University of Pennsylvania Press; Hodgson, M. (2005). *Medieval Women: Texts and Contexts in Late Medieval Britain*. Routledge.
9. O'Reilly, M. (2005). *Women in Medieval Europe: 1200-1500*. Routledge.
10. Фома Аквинский. Сумма теологии. К.: Эльга; Ника-Центр, 2005. Ч. I. Вопросы 75-119. 577 с.
11. Aquinas, T. (1948). *Summa Theologica*. Translated by the Fathers of the English Dominican Province. New York: Benziger Brothers.
12. Lynch, M. (2002). *The Power of Women in the Middle Ages: Historical Perspectives on Gender Relations*. Palgrave Macmillan.
13. Anselm of Canterbury. (1998). *The Major Works*. Edited by Brian Davies and G. R. Evans. Oxford: Oxford University Press.
14. Burton, J. (2001). *Women in Medieval History*. Greenwood Press; De Jong, M. (2011). *The Ethics of Gender: Perspectives from Medieval Philosophy*. University of Notre Dame Press.
15. Salisbury, J. of. (1990). *The Statesman's Book of Advice*. Edited by R. A. Austin. Oxford: Clarendon Press; Cohen, M. (2010). *Medieval Women and Gender: A Historical Encyclopedia*. ABC-CLIO.
16. Olsen G. John of Salisbury's Humanism // *Gli umanissimi medievali*. Firenze, 1993. P. 447–468.
17. Eisenbichler, K. (2001). *Women and the Common Good: The Reformation of Women's Roles in the Sixteenth Century*. University of Toronto Press.
18. McSheffrey, S. (1995). *Gender and the Politics of Education in Late Medieval England*. University of Pennsylvania Press.
19. Klein, S. (2007). *The Role of Women in the Middle Ages: A Historical Overview*. Greenwood Press.
20. Duffy, E. (1992). *The Stripping of the Altars: Traditional Religion in England, 1400–1580*. Yale University Press.
21. Bennett, J. (2006). *Women in the Medieval Church*. Ashgate; Harris, S. (2014). *The Representation of Women in Medieval Literature*. Routledge.
22. Wycliffe, J. (2005). *The Reformers: Their Lives and Their Works*. Edited by William H. Houghton. Wipf and Stock Publishers.